

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIONI SAQLASH
VAZIRLIGI
TOSHKENT TIBBIYOT
AKADEMIYASI

Yusupov Ahmal Oxunjonovich


GENETIKADAN MASALALAR
TOPLAMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI TIBBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH MARKAZI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI

«Гаслижаттаман»
Узбекистон Республикаси сенатини
салом берганда ишларни фан ва ўкув
хордаги боз оғизларини бошингти

— проф. Ахмадов Н.Е.
2007 й.

GENETIKADAN MASALALAR
TO'PLAMI



Toshkent - 2010 y.

Tuzuvchilar:

A.O. Daminov

tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

K.N. Nishonboev

tibbiyot fanlari doktori, Toshkent Pediatriya Medisina
Instituti, Tibbiyot biologiyasi va genetika kafedrasи
professori

P.R. Olimxo'jaeva

biologiya fanlari doktori, Toshkent Tibbiyot Akademiyasi,
Tibbiy - pedagogika va stomatologiya fakultetlarining
gistologiya va tibbiyot biologiyasi kafedrasи professori,

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi, MUX ni 14.04.2007 yil o'tkazilgan
majlisida,(majlis bayoni № 8) va Toshkent Tibbiyot Akademiyasini
3005. 2007 yil o'tkazilgan ilmiy kengashida, (majlis bayoni № 11)
tasdiqlangan

professor O.R. Teshaev
Toshkent Tibbiyot Akademiyasi
o'quv ishlар bo'yicha prorektor

KIRISH

Mazkur uslubiy qo'llanma tibbiyot institutlari talabalari uchun odam va tibbiyot genetikasidan amaliy mashg'ulotlar o'tqazilishi uchun mo'ljallangan bo'lib, qo'llanmada odam va tibbiyot genetikasining dolzarb masalalardan biri genetikadan masalalar yechishga bag'ishlangan. Fan va texnika taraqqiyoti har bir sohaga jadal kirib borayotgan davrda, talabalarga berilayotgan bilimlar ko'lamiga bo'lgan e'tibor ham tobora ortib bormoqda. Biologiya fanining ham roli benixoya ortib bormoqda. Hozirgi kunda oziq-ovqat programmasi vazifalarini hal qilish odamdag'i nasldan - naslga o'tadigan kasalliklarning o'r ganish, inson salomatligini yaxshilash tadbirlarini ishlab chiqish, koinotni zabit etish, tirik mavjudotlarning tuzilishi va funksiyasidan texnikaga andaza olish, va boshqa shu singari masalalar biologiya fanining rivojlanishi bilan uzviy bog'liq ekanligi hammamizga ma'lum.

Shunga ko'ra biologiyadan talabalarga chuqur va atroficha bilim berish, undan amalda foydalanishni o'rgatish oliy mактабning eng asosiy vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Genetika fani oldiga muhim vazifalar qo'yilmoqda. Talabalarga sisatli bilim berish, avvalo ularning bilish faoliyatini ko'chaytirish, mustaqil bilim olishini rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir.

Talabalarning bilim faoliyatini ko'chaytirishning, mustaqil bilim olish ko'nikma va malakasini rivojlantirishning bir qancha shakl va usullari mayjud. Ular orasida mashqlar bajarish va masalalar yechish alohida o'r in to'tadi. Hozirgi vaqtida genetika biologiyaning yetakchi sohalaridan biridir. Lekin tajribadan ma'lum bo'lishicha, talabalar uning mazmunini yetarli darajada o'zlashtirmoqdalar deb bo'lmaydi

Yildan yilga genetika fani oldiga mo'him vazifalar qo'yilmoqda. Bular jumlasiga sog'liqni saqlash, biotexnologik jarayonlarni yo'lga qo'yish, genetik injeneriyani rivojlantirish masalalalari kiradi. Bu muammolarni muvaffaqiyatli hal qilinishi, aholining turmush darajasini ko'tarish va irsiy kasalliklarning oldini olishni ta'minlaydi.

Talabalarni o'quv yili davomida o'z ustilarida mustaqil ishlashlariga va bilim olishlariga imkon beradigan, ularni ilmga bo'lgan qiziqishlarini oshiradigan usullarini ta'lim tizimiga tadbiq etish lozim.

Tibbiyot oliygohlari talabalari "Tibbiyot genetikasi" fanining nazarini bilimlarini o'zlashtirish qonuniyatlarini, jinsga bog'liq va birkkan holda irsiylanish, antropogenetika usullarini qo'llashni o'rganishlari va boshqa mustaqil ishlarni bajara olishlari lozim.

Ushbu qo'llanma talabalarning aynan shu fan sohasida oladigan nazarini bilimlarini genetik masalalarni yechish orqali mavzularni po'xta o'zlashtirishlariga, mustaqil fikr yuritishlariga imkon beradi. Shularni hisobga olgan holda ushbu masalalalar to'plamiga ko'proq odamlarda o'chraydigan belgi va kasalliklarga oid masalalalar kiritilgan.

Oliygohlar uchun o'zbek tilida yozilgan tibbiyot genetikasidan masalalar, hamma bo'limlarga tegishli bo'lgan masalalar bilan yetarlichcha yoritilmagan. Ushbu qo'llanmada tibbiyot genetika-barcha bo'limlari bo'yicha yetarli darajada masalalar keltirilgan va ularni ko'pchiligini yechish va javoblari ham berilgan

Ushbu uslubiy qo'llanmadan nafaqat tibbiyot oliygohlari talablar, balki boshqa oliygoh talabalari ham, umumiy genetika va tibbiyot genetikasi fani o'tiladigan hamma oliygoh talabalari, shuningdek genetika kursi o'tiladigan barcha o'quv yurtlari talabalari, tibbiyot kolleji talabalari, tibbiyot yo'nalishidagi liseylar hamda o'quv markazi o'quvchilari ham foydalaniishlari mumkin.

I - BO'LIM.

MOLEKULYAR GENETIKA

Molekulyar genetika molekula darajadagi irlsiyat bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarning o'rGANADI. Gen - Dezoksiribonuklein kislota(DNK) molekulasini biror bir belgini yuzaga chiqishiga javobgar bo'lgan ma'lum bir uchastkasidir. Shuni esda tutish kerakki, gen belgini darhol yuzaga chiqarmaydi. Gen asosida belgi yuzaga chiqqunicha juda ko'p oraliq reaksiyalar ro'y beradi. Gen faqat oqsilning birlamchi strukturasi haqidagi ma'lumotni o'zida saqlaydi. Oqsil - fermentlar organizmdagi biokimy-oviy jarayonlarning boshqaradi. Har qanday reaksiya uchun o'zini spesifik ferment - oqsil bo'ladi. Biokimyoviy reaksiyalar ketma-ketligi, u yoki bu belgini yuzaga kelishini ta'minlaydi. Masalan: yodni tirozinga birikishiga javobgar bo'lgan gen, odamda bo'lsa, unda qalqonsimon bezning garmoni - tiroksin normada sintezlanadi. Agarda ushbu gen bo'lmasa, unda yod tirozinga birikka olmaydi. Natijada ushbu garmon-tiroksin sintezlana olmaydi va odamda ushbu garmonning etishmasligi bilan bog'liq bo'lgan og'ir kasallik belgilari yuzaga chiqadi.

Shunday qilib, gen funksiyasini qo'yidagi sxema bilan tasavvur qilsak bo'ladi:

Gen - oqsil - ferment - biokimyoviy reaksiya - belgi.

Molekulyar genetikada ushbu sxemani birinchi bosqichi ya'ni qanday qilib gen spesifik oqsilni shakllanishini boshqarishi ko'proq o'rGANILGAN. Irsiy belgilari hujayradagi oqsillarning sifati va miqdori, ularning hujayra ichida taqsimlanishini va almashinishini ta'minlaydi. Irsiy belgi nuklein kislotaning strukturasidagi kimyoviy tilda yozilgan bo'yro'q, ko'rsatma, qolip (matrisa)dir.

Bu til DNK molekulasidagi to'rt tip nukleotidlarni birin-ketin kelishi shu tartibga qarab oqsil molekulasida aminokislotalar joylashadi. Oqsil biosintezi to'rtta bosqichda boradi:

- I. Aminokislotalar faolligini oshishi;
 - II. Inisiasiya - polipeptid zanjiri sintezining boshlanishi;
 - III. Elongasiya - hosil bo'layotgan polipeptid zanjirining uzunlashishi;
 - IV. Terminasiya - polipeptid zanjiri hosil bo'lishining tugashi.
- Ushbu bo'limda berilgan masalalar aynan mana shu bosqichlarga bag'ishlangan.

Molekulyar genetikaga oid masalalar D NK, RNK sintezi, ular orqali belgilarning yuzaga chiqishi, oqsil biosintezi bosqichlari haqida va molekulyar kasalliklar to'g'risidagi tushunchalarni chuq-urlashtiradi.

1. D NK molekulasining bitta zanjirida nukleotidlari qo'yidagi ketma-ketlikda joylashgan: TAC, GAT, GCC, TAG, CCT, CGA, CAA, TAA, TTT, GTC, AAA.... Shu D NK molekulasining ikkinchi zanjiridagi nukleotidlarning joylashish tartibini aniqlang.

2. D NK ning bitta zanjirida ko'rsatilgan nukleotidlari asosida ikkinchi zanjirdagi nukleotidlarning joylashish tartibini aniqlang: AGC, CCC, GAT, TAT, ACC, GTA, TAT, TGA, ACC, AAA, GTC...

3. D NK molekulasi tarkibida 1250 ta guanin bor, shu molekula tarkibida qancha sitozin bo'ladi

4. D NK molekulasida azotli asoslar normada quyidagi tartibda joylashgan: AAA, ACC, ATA, GAC, GAT, CAG. D NK replikasiyasi vaqtida chapdan yettinchi azotli asos (adenin) tushib qoldi. Normada va adenin tushib qolgandan keyin qanday polipeptid zanjiri hosil bo'lishini toping.

5. Bitta informasion RNK molekulasi tarkibida azotli asoslar quyidagi nisbatda uchraydi: adenin - 14, sitozin - 32, guanin - 30, urasil - 24. Shu RNK molekulasi asosida D NK zanjiridagi azotli asoslar miqdorini toping?

6. Fankoni sindromi (suyak to'qimasi hosil bo'lishining buzilishi) bilan kasallangai bemor siydigida infarmasion RNK molekulasining quyidagi tripletlariga mos keladigan aminokislotalar bo'ladi: AUA, GUC, AUG, UCA, UUG, UAC, GUU, AUU. Bemorning siydigida qaysi aminokislotalar bo'lishini aniqlang.

7. Polipeptid quyidagi aminokislotalardan tashkil topgan: valin-alanine-glisin-lizin-triptofan-valin- serin-glutamin kislota. Ko'rsatilgan polipeptidni kodlaydigan D NK uchastkasini aniqlang.

8. Polinukleotid quyidagi aminokislotalardan iborat: asparagin-glisin-fenilalanin-prolin-treonin. Shu polipeptidni kodlaydigan D NK uchastkasini aniqang.

9. Oshqozon bezi ishlab chiqradiyan insulin garmonini zanjirida qator bo'lib joylashgan birinchi 10 ta aminokislotalar quyidagilardan iborat: fenilalanin-valin-asparagin kislota-glutamin-gistidin-leysin-sistein-glisin-serin-gistidin. Insulin zanjirining ushbu qismini kodlaydigan D NK uchastkasini aniqlang.

10. D NK molekulasi quyidagi nukleotidlari tartibidan iborat: ACC-ATA-GTC-CAA-GGA- CCA-AAC-AGA-AAA-TTT. D NKni ushbu uchastkasi

asosida polipeptid zanjirida qanday aminokislotalar qatoridan iborat bo'lishini belgilang

11. DNKn uchastkasi quyidagi nukleotidlardan chap tomonidan 5 va 13-nukleotidlarni olib tashlansa, oqsil strukturasini qanday o'zgaradi ?

12. Polipeptidni kodlaydigan DNK molekulasi bir qismi normada quyidagi tartibda joylashgan azotli asoslardan iborat: AAA-ACC-AAA-ATA-CTT-ATA-CAA Replikasiya vaqtida chapdan 5- nukleotid ya'ni sitozin(C) - zanjirdan tushib qoldi. Dnk ni ushbu berilgan qismi asosida kodlanadigan polipeptid zanjirining strukturasini normada qanday tartibda bo'lishini, so'ng sitozin tushib qolgandan keyin zanjirda kuzatiladigan o'zgarishlarni aniqlang.

13. Normal gemoglobinning to'rtinchchi peptidi quyidagi aminokislotalardan tashkil topgan: valin-gistidin-leysin-treonin-prolin-glutamin kislota-glutamin kislota-lizin

1. Anemiyaning splenomegaliya simptomini bilan kasallangan bemorda to'rtinchchi peptidi quyidagi tarkibda aniqlandi: valin-gistidin-leysin-treonin-prolin-lizin-glutamin kislota-lizin. Mutasiyadan keyin DNKn uchastkasida sodir bo'lgan o'zgarishni aniqlang.

2. O'rroqsimon hujayrali anemiya kasalligi bilan og'rigan bemorda gemoglobinni to'rtinchchi peptidi quyidagi aminokislotalardan iborat: valin-gistidin-leysin-treonin-prolin-valin- glutamin kislota-lizin. Mutasiyadan keyin DNKn uchastkasida sodir bo'lgan o'zgarishni aniqlang.

14. Tekshirishlar shuni ko'rsatdiki, berilgan iRNKdagi nukleotidlarning umumiysi 34%- guanindan, 18%- urasildan, 28% - sitozindan, 20% adenindan iborat ekan. Ushbu iRNK nusxa olgan Dnk molekulasiagi azotli asoslarni % ini aniqlang.

15. Polipeptidni kodlaydigan Dnk molekulasing bir qismi normada quyidagi tartibda joylashgan azotli asoslardan iborat: TAA-CAA-AGA-ACA-AAA-ACC-ATA-CTT-ATA Mutasiya natijasida 5- va 6- nukleotidlardan orasiga sitozin(C), 13- va 14- nukleotidlardan orasiga timin(T), oxiriga esa adenine(A) nukleotidlari qo'shilib qoldi. Dnk ni ushbu berilgan qismi asosida kodlanadigan polipeptid zanjirining strukturasini normada qanday tartibda bo'lishini, so'ng qo'shimcha nukleotidlari qo'shilib qolgandan keyin, zanjirda ko'zatiladigan o'zgarishlarni aniqlang

16. Polipeptid quyidagi aminokislotalar qatoridan iborat. Gistidin-valin-alanine-glisin- asparagin-lizin-triptofan-serin-glutamin kislota-meteonin. Mutasiya tusayli triptofan aminokislotosi o'rniga boshqa aminokislota-fenilalanin o'rinni almashdi. Mutasiya sodir bo'lmashdan oldin ko'rsatilgan polipeptidni kodlaydigan Dnk uchastkasini aniqlang, so'ng Dnk uchastkasida mutasiya sodir bo'lidan keyingi o'zgarishni aniqlang.

17. DNK qo'sh spiralidagi qo'shni asoslar orasidagi masofa 0,34 nm.ga teng. Uzunligi 10200 nm.ni tashkil etgan DNK uchastkasida qancha aminokislota haqida ma'lumot saqlanishi mumkinligini aniqlang.

18. Insulin molekulasi 51 ta aminokislotadan iboratligi hamda qo'shni nukleotidlari orasidagi masofa 0,34 nm.ga tengligi ma'lum bo'lsa. Ushbu insulinni kodlaydigan DNK molekulasingning qismi qanday uzunlikka ega ekanligini aniqlang.

19. DNK molekulasi tarkibidagi (A) adenin nukleotidi umumiylari zanjirning 16 % ini tashkil qiladi. Qolgan nukleotidlarning har biri necha foizni tashkil qilishini aniqlang.

20. Berilgan DNK molekulasiда 60 ta timin nukleotidlari bo'lib, ular umumiylari zanjirning 10 % ini tashkil qiladi. Zanjirdagi qolgan nukleotidlari sonini toping?

21. DNK molekulasiда Adenin 800 ta, Guanin 2200 ta bo'lsa, ushbu zanjirda qancha molekula (F)-fosfat kislota, (D)-dezoksiriboza va (A)-azotli asos borligini aniqlang.

		KODONNING IKKINCHI NYKLEOTIDI					
		U	C	A	G		
K O D O N K I N G	U	UUU Phe	UCU Ser	UAU Tyr	UGU Cys	U C	K O D O N I N G
		UUC Phe	UCC Ser	UAC Tyr	UGC Cys		
		UUA Leu	UCA Ser	UAA Term	UGA Term		
		UUG Leu	UCG Ser	UAG Term	UGG Trp		
B I I N C H	C	CUU Leu	CCU Pro	CAU His	CGU Arg	U C	Y C H I N C H
		CUC Leu	CCC Pro	CAC His	CGC Arg		
		CUA Leu	CCA Pro	CAA Gln	CGA Arg		
		CUG Leu	CCG Pro	CAG Gln	CGG Arg		
Y K L I O T I D I	A	AUU Ile	ACU Thr	AAU Asn	AGU Ser	U C	N Y K L I E O T I D I
		AUC Ile	ACC Thr	AAC Asn	AGC Ser		
		AUA Ile	ACA Thr	AAA Lys	AGA Arg		
		AUG Met	ACG Thr	AAG Lys	AGG Arg		
G	G	GUU Val	GCU Ala	GAU Asp	GGU Gly	U C	N Y K L I E O T I D I
		GUC Val	GCC Ala	GAC Asp	GGC Gly		
		GUA Val	GCA Ala	GAA Glu	GGA Gly		
		GUG Val	GCG Ala	GAG Glu	GGG Gly		

H - BO' LIM.

GENETIKA ASOSLARI.

Monoduragay chatishtirish

Faqat bir just alternativ belgisi bilan farq qiluvchi organizmlarni chatishtirishga monoduragay chatishtirish deyiladi. Monoduragay chatishtirishda ko'zatiladigan qonuniyatlarini birinchi bo'lib chex olimi G. Mendel yaratdi.

Genetikadan masalalarni yechishda turli xil simvollardan foydalaniladi va turli yo'llar bilan echipishga harakat qilinadi. Lekin masalalarni yechishda ma'lum tartibga rioya qilinsa, masala yechgan odamga ham, uni tekshirayotgan odamga ham oson bo'ladi.

Shuning uchun masalani yechishda, qo'yidagi tartibni taklif qilamiz:

1. Masalaning sharti yozilishi kerak;
2. Masalani qabul qilingan tartib bo'yicha yechish kerak va masalani yechishda genetikada ishlataladigan hamma simvollardan va terminlardan iloji boricha ratsional soydalanish kerak;
3. Oxirida, masalaga izoh berilishi kerak

Masalan:

1. Masalaning berilgan sharti: Ota-onasi ko'zining rangi jigarrang bo'lgan oilada tug'ilgan ko'k ko'zli erkak, otasining ko'zi rangi jigarrang, onasining ko'zi rangi ko'k, o'zining ko'zi esa jigarrang bo'lgan ayolga uylandi. Ushbu nikohdan tug'ilishi ehtimoli bo'lgan farzandlarni aniqlang.

2. Masalani quyidagi tartibda yechsa bo'ladi

Belgi(Fenotipi)	Gen	Genotipi
Jigarrang ko'z	A	AA,Aa
Ko'k ko'z	a	aa

Yigit oilasining genotipi.

Ayol oilasining genotipi:

Ularning nikoxidan

tug'iladigan farzandlar

$$\begin{array}{cccc} P & \text{♀} & Aa & x \\ & & & \text{♂} & Aa \\ G & A & a & & A & a \\ F & AA & Aa & Aa & aa \end{array}$$

$$\begin{array}{cccc} P & \text{♀} & aa & x \\ & & & \text{♂} & AA \\ G & a & a & & A & A \\ F & Aa & Aa & Aa & Aa \end{array}$$

$$\begin{array}{cccc} P & \text{♀} & Aa & x \\ & & & \text{♂} & aa \\ G & A & a & & a & a \\ F & Aa & Aa & aa & aa \end{array}$$

Masalani yechishda bir qancha qoidalarga e'tibor beriladi va bir qancha simvollardan foydalilanadi:

Avvalom bor birinchi qatorga quyidagilar yoziladi: "R" harfi lotincha "Parentale" ota - ona demakdir, so'ng ♀ - Zuhro - Venera ko'zgusi belgisi go'zallik timsoli - ayol belgisi, undan so'ng ayol organizmini genotipi, keyingi navbatda chatishtirish belgisi "X", undan so'ng ♂ - erkak belgisi - Marsning qalqoni va nayzasi. Qatorning oxirida esa erkak organizmining genotipi yoziladi

Ikkinchi qatorga quyidagilar yoziladi: "G" harfi-gametalarni ya'ni jinsiy hujayralarni anglatadi.

Gametalarni boshqa genotiplardan ajratish uchun, ularni doira ichiga olinsa yanada yaxshi bo'ladi.

Uchinchi qatorga quyidagilar yoziladi: "F" - lotincha "filia" so'zidan olingan bo'lib, farzandlar ma'nosini anglatadi. Hosil bo'lishi ehtimoli bo'lgan organizmlar genotipi yoziladi

3.Masalani izohlaydigan bo'lsak: Masala bir juft alternative belgilar bo'yicha farq qiluvchi organizmlarning chatishtirishga, ya'ni monoduragay chatishtirishga misol bo'la oladi. Ushbu masala asosida "Gametalar so'ligi" gipotezasiga ham. "Bekkross chatishtirish"ga ham tushuncha bersa bo'ladi.

ALLEL GENLARNING O'ZARO TABSIRI

Mendel birinchi bo'lib gepotip yuzaga chiqargan belgilarni lotin harflari bilan ifodaladi.

V. Betson bir-biridan keskin farq qiluvchi bir juft belgini allelmorf belgilar deb atadi.

Masalan: oq va qora, baland va past, uzun va kalta. Keyinchalik, V. Iogensen bitta sifat - belgini yuzaga chiqaruvchi bir juft genni allel genlar deb nomladi. Allel genlar ikki xil xolatda uchrashi mumkin: dominant (A) va retsessiv (a). Allel genlar gomologik xromosomlarning bir xil uchastkalarida (lokuslarida) joylashgan bo'lib, bir xil belgilarning yuzaga chiqishini ta'minlaydi.

Allel genlarning o'zaro ta'sirini bir qancha xillari farqlanadi: 1.To'liq dominantlik 2.Chala dominantlik. 3.O'ta dominantlik. 4. Kodominantlik.

To'liq dominantlik

To'liq dominantlik - geterozigortali duragaylarning barchasida faqat bitta allelning belgisi to'liq namoyon bo'lib, ikkinchi allel belgisining paydo bo'lmasligi.

22. Pamidor mevasining shakli yumaloq va noksimon bo'ladi. Yumaloq shakl dominantlik qiladi. Avlodida teng miqdorda yumaloq va noksimon mevalar hosil qilgan ota-onalarning genotipini aniqlang.

23. Sabzovot yetishtiradigan xo'jalik issiqxonasida duragay urug'lar ekildi. Olingan hosilning 40250 tasi noksimon, 120750 tasi yumaloq shaklli mevalar berdi. Olingan mevalarning ichida qanchasi geterozigortali organizmlar ekanligini aniqlang

24. Drosofila pashshasining bir qancha genlari berilgan: qizil ko'zli (D), kul rang(V) tanali, jigar rang ko'zli (d), qora tanali (v), rudiment qanotli (r).

a) Bulardan qaysi birlari allel genlar ?

b) Qaysi birlari allel gen emasligini aniqlang.

25. Kul rang xo'rozlar va oq rangli tovuqlar chatishdirilib, hammasi kul rang bo'lgan avlod olindi. Ushbu birinchi avlod duragaylari yana oq rangli tovuqlar bilan chatishdirilganda ikkinchi avlodda olingan 172 ta parrandadan 85 tasi oq, 87 tasi kulrang bo'lib chiqdi. Ota-onalarning genotipini aniqlang.

26 Odamlarda uchraydigan bir qancha belgilarni, ya'ni qonda gemoglobinning normada bo'lishligini (N), sochning qora rangligini (V), albinizmni (a) sochning malla rangligini (v), jingalak sochni (S), yuzaga chiqaruvchi genlar berilgan.

a) Shu genlardan: qaysilari allel genlar hisoblanadi ?

b) Qaysilari allel bo'limgan genlar ?

v) Ko'rsatilgan genlar nechta allelni tashkil qiladi ?

g) Qaysi genlar uchun ularning allelmorfisi ko'rsatilmagan ?

27. Qoramollarda shoxsizlik belgisi, shoxli bo'lishiga nisbatan dominantlik qiladi.

1. Shoxli buqa va gomozigotali shoxsiz sigirlar chatishdirilishi natijasida qanday avlod olish mumkin ?

2. Agar shoxsiz buqa va shoxli sigir chatishdirilishi natijasida shoxli buzoq tug'ilganligi ma'lum bo'lsa, shu buqa va shu sigirni yana chatishdirilishi natijasida qanday avlod olish mumkin ?

28. Itlarda yungini rangi qora bo'lishi jigarrang bo'lishiga nisbatan dominantlik qiladi. Yungining rangi qora bo'lgan urg'ochi it rangi jigarrang

bo'lgan erkak it bilan bir necha yillar davomida chatishtirilib, nasl olingen Chatishtirish natijasida hammasi bo'lib, 15 ta qora rangli va 13 ta jigarrangli kuchukchalar olingen. Ota-onasi va olingen avlodning genotipini aniqlang.

29. Qora rangli bo'lgan ikkita urg'ochi sichqonlar, bitta jigar rang erkak sichqon bilan chatishtirildi. Urg'ochi sichqonlarning biri 12 ta qora va 9 ta jigarrang avlod berdi. Ikkinchisi esa 18 ta qora rangli avlod berdi. Chatishtirish uchun olingen sichqonlar ning ota - ona organizmlari va olingen alodlarning genotipini aniqlang.

30. Dengiz cho'chqalarida yungning ho'rpaygan bo'lishi, silliq bo'lishi ustidan dominantlik qiladi.

1. Ho'rpaygan yungli dengiz cho'chqalari o'zaro chatishtirilishi natijasida, 36 ta ho'rpaygan yungli va 11 ta silliq yungli avlod olindi. Ularning ichida gomozigotali organizmlar qancha

2. Ho'rpaygan yungli dengiz cho'chqasi silliq yungli dengiz chuchqasi bilan chatishtirilib, 28 ta ho'rpaygan yungli va 26 ta silliq yungli avlod olindi. Ota - ona organizmlarni va avlod genotipini aniqlang.

31. Drozofila pashshasi tanasining kulrang bo'lishi qora rangli bo'lishi ustidan dominantlik qiladi.

1. Qator tajribalarda kul rang va qora rangli pashshalar chatishtirilib, 117 ta kul rang va 120 ta qora rang pashshalar olindi. Ota - ona organizmlar genotipini aniqlang.

2. Kul rangli pashshalar chatishtirilib, keyingi avlodda 1392 ta kulrang va 467 ta qora rangli pashshalar olindi. Ota - ona organizmini genotipini aniqlang.

32. Qoramollarda yungining rangi qora bo'lishi, qizil rangli bo'lismiga nisbatan dominantlik qiladi.

1. Geterozigotali bo'lgan sigir va bo'qa chatishtirilsa qanday avlod olish mumkinligini belgilang.

2. Qizil rangli bo'qa bilan qora rangli sigir chatishtirilishi natijasida, qizil rangli buzoq olindi. Ota - onasining va olinishi mumkin bo'lgan avlodning genotipini aniqlang.

33. Qora rangli gomozigotali sigirlarni qizil buqalar bilan chatishtirilganda, fenotip va genotip jihatidan **F1** da qanday buzoqlar hosil bo'ladi. Olingen duragaylarni bir-biri bilan chatishtirilganda qanday natijalar kutish mumkin? **F1** dagi duragaylarni, qora rangli sigirlar bilan chatishtirilsachi? (Qizil rang - retsessiv belgi).

34. Mo'ynachilik fermalarining birida, chatishtirish natijasida olingen 225 ta norkadan 167 tasi jigarrang yungli, 58 tasi ko'kimtir-kul rang yungli bo'lib chiqdi. Agar jigar rang, ko'kimtir - kul rang ustidan dominantlik qilishi

ma'lum bo'lsa, chatishtirish uchun olingen ota - ona organizmlarning genotipini aniqlang.

35. Ikkita kul rang akvarium baliqchalarini birinchi marta chatishtirilib, kul rang va qora avlodlar, ikkinchi marta chatnshtirilganda esa faqat kulrang avlodlar olindi. Qaysi rang dominant hisoblanadi. Ota - onalarining genotipi qanday ?

36. Ota-onasi ko'zining rangi jigar rang bo'lgan oilada tug'ilgan ko'k ko'zli erkak, otasining ko'zini rangi jigarrang, onasining ko'zini rangi ko'k, o'zining ko'zini rangi esa jigar rang bo'lgan aylolga o'ylandi. Ushbu nikohdan tug'ilishi ehtimoli bo'lgan farzandlarni aniqlang.

37. Normal qanotga ega bo'lgan drozofila pashshalari o'zaro chatishtirilib, 3565 ta organizm olindi. Ularning ichida faqatgina 2673 tasi normal qanotli, qolgani bukilgan qanotli. Ota - ona organizmining genotipini aniqlang.

38. Leykodistrofiya autosoma - retsessiv holda nasldan naslga o'tadi. Ushbu belgi bo'yicha geterozigotali bo'lgan oilada qanday farzandlar tug'ilishi mumkinligini aniqlang.

39. Kul rang tanali drozofila pashshasi qora rangli drozofila pashshasi bilan chatishtirilib 270 ta qora va 269 ta kul rang tanali drozofila pashshasi olindi. Ota-onalarining genotipi qanday ? Agar 290 ta qora va 820 ta kul rangtanali drozofila olingen bo'lsa -chi ? (Kul rang tana - dominant belgi)

40. Unaqaylik belgisi chapaqaylik belgisiga nisbatan dominantlik qiladi. Onasi chapaqay bo'lgan erkak, to'rtta aka - ukasi va opa - singillaridan, bitta akasi va bitta singlisi chapaqay bo'lib, o'zi esa unaqay bo'lgan aylolga o'ylangan. Ushbu nikohdan tug'ilishi ehtimoli bo'lgan farzandlarni aniqlang.

41. Odamlarda kar-soqovlikka sababchi bo'ladigan genlardan biri retsessiv bulib, autosoma orqali irlsylanadi.

1.Ushbu belgi bo'yicha geteroztgotali ota-onadan qanday avlod tug'ilishi mumkinligini aniqlang.

2.Kar-soqov ayol va normal erkak nikohidan kar-soqov bola tug'ildi. Ota-onasini genotipini aniqlang.

42. Normal ko'zli pashshalar o'zaro chatishtirilganda olingen avlodning 1 / 4 qismi kichraygan ko'zli bo'lib chiqdi. Shu olingen pashshalar, normal ko'zli pashshalar bilan chatishtirilganda 53 ta kichraygan, 62 ta normal ko'zli pashshalar olindi. Berilgan organizmlarning genotipini aniqlang.

43. Gomozigotali qora va gomozigotali oq quyonlar chatishtirilganda:

a) Birinchi avlod duragaylarning genotipi va fenotiplarini aniqlang.

b) Duragaylarda belgilarniig ajralish sodir bo'ladimi ?

v) Mendelning qaysi qonunini bu yerda kuzatish mumkin? (Qora rang-dominant belgi).

44. Toza zotli (gomozigotali) juni qalin quyonni juni siyrak quyon bilan chatishirildi. Duragaylarning F1 va F2 dagi avlodlarini gen va xromosomalar bo'yicha ifodalang (Qalin jun dominant belgi).

45. Vilson kasalligi autosoma - retsessiv tipda nasldan naslga o'tadi. Er xotinlardan biri ushbu kasallik bilan kasallangan bo'lib, ikkinchisi sog'lom va uni aylodida bunday kasallik umuman uchramagan. Ushbu oilada, shu kasallik bilan tug'ilishi ehtimoli bo'lgan farzandlarni aniqlang.

46. Geterozigotali qora quyon xuddi shunday quyon bilan chatishnrildi. Fenotip va genotip bo'yicha duragaylarda belgilarning son jihatdan ajralishnni aniqlang. (Qora rang - dominant belgi).

47. Axondroplaziya autosoma-dominant tipda irlsiylanadi. Axondroplaziya kasalligi bilan kasallangan er-xotining oilasida, normal bola tug'ildi. Keyingi farzandni ham normal bo'lib, tug'ilishi ehtimolini aniqlang.

48. Odamlarda kichik jag' tishlarini bo'lmasligi autosoma-dominant belgi sifatida nasldan naslga o'tadi. Tahlil qilinayotgan belgi bo'yicha geterozigotali oilada, ushbu anomaliya bo'yicha tug'ilishi ehtimoli bo'lgan farzandlarni aniqlang ?

49. Afibrinogenemiya autosoma-retsessiv belgi sifatida nasldan naslga o'tadi. Ota-onasi ushbu belgi bo'yicha sog'lom bo'lgan oilada afibrinogenemiya belgilari bo'lgan farzand tug'ildi. Ikkinchchi farzandni shu kasallik bilan tug'ilishi ehtimoli qanday ?

50. Sindaktiliya autosoma-dominant belgi sifatida nasldan naslga o'tadi. Ota-onalardan birini barmoqlarining tuzilishi normal, ikkinchisi esa shu belgi bo'yicha geterozigotali bo'lgan oilada, kasal farzandlar tug'ilishi ehtimolini anihlang.

51. Junlarining rangiga qarab oq quyonlarning gomozigotali ekanligini bilish mumkinmi ? Qora quyonlarni-chi? (Qora - dominant belgi).

52. Sindaktiliya odamlarda autosoma dominant tipda nasldan naslga o'tadigan belgi. Ota - onalardan biri ushbu belgi bo'yicha geterozigotali bo'lib, ikkinchisi sog'lom bo'lsa, ularning oilasida ushbu belgiga ega bo'lgan farzand to'g'ilishi ehtimolini belgilang

53. Qora mollar junining rangiga qarab toza zotli ekanligini va oq meva beradigan qovoq navlarining toza navli ekanligini qanday aniqlash mumkin ? (Junining qoraligi va qovoqlarning oq rangi - dominant belgi).

54. Albinizm odamlarda autosoma retsessiv belgi sifatida nasldan naslga o'tadi. Er-xotinlardan biri albinos, ikkinchisi esa normal bo'lgan oilada, har xil tuxumdan rivojlangan egizaklar tug'ilib, ulardan biri albinos, ikkinchisi esa tahlil qilinayotgan belgi bo'yicha normal edi. Ushbu oilada yana albinos bo'lgan bola tug'ilishi c'htinolini aniqlang.

55. Agar quyonlarning avlodida junining qalin va siyrakligiga qarab 3:1 yoki 1:1 nisbatda ajralish sodir bo'lgan bo'lsa, ularning ota-onasini genotipi va fenotipini bilish mumkinmi ?

56. Odamlarda, pastki kurak tishlarning qo'shilgan holda bo'lishi, sut tishlari bilan ko'zatilib, keyinchalik doimiy tishlar chiqqanda, ular qo'shilmagan holatda bo'ladi. Ushbu belgi irsiy bo'lib, autosoma ortqali dominant belgi sifatida nasldan naslga o'tadi. Bir oilada, ularni birinchi farzandi ushbu belgi bilan tug'ilganini bilib qolishdi. Ota-onalari qaysi birlarida ushbu belgi bo'lganini eslay olmadilar. Ularning oilasida shu belgiga ega bo'lgan bolalar yana tug'ilishi mumkinmi ?

57. Agar dengiz cho'chqalarining duragaylarida 25 % siyrak va 75 % qalin junli bo'lsa, ota-onalar qanaqa fenotip va genotipga ega bo'ladi? Agar duragaylarning 50 % siyrak va 50 % qalin junli bo'lsa-chi? Fenotip bo'yicha bir xil siyrak junli avlodlar hosil bo'lishi uchun ota-ona qanaqa fenotip va genotipga ega bo'lislari kerak (Qalin junlik dominant belgi).

58. Gul tojli xo'rozni, gul tojli tovuq bilan chatishtirilanda jo'jalar gul tojli bo'ladi. Shu xo'rozni no'xatsimon tojli tovuq bilan chatishtirilganda ham tuxumdan gul tojli jo'jalar chiqadi. Xo'roz- tovuq va jujalarning genotipini aniqlang (Sitologik tomondan ifodalang. Gul tojli – domiinant belgi).

59. Agammaglobulinemianing limfatik to'qima bo'lmasligiga sababchi bo'ladiidan turlaridan biri autosoma retsessiv belgi sifatida irsiylanadi. Ushbu belgi bo'yicha sog'lom bo'lgan ota - onadan, gammaglobulinemiani ushbu shakli bilan kasallangan farzand to'g'ildi. Ushbu oilada yana qanday fenotip va genotipga ega bo'lgan organizmlarning tug'ilishi mumkinligini aniqlang.

60. Ota-onasi muynasini rangi, jigar rang bo'lgan, platina rangli qunduz, otasi jigar rang, onasi platina rang bo'lgan jigar rang mo'ynali qunduz bilan chatishtirilgan. Bunday chatishtirishdan bir nechta platina rangli qunduzlar olingan. Yuqorida ko'rsatilgan har bir hayvonning genotipini aniqlang.

61. Ota-onasi qo'ng'ir bo'lgan qo'ng'ir urg'ochi quyonni, ota-onasi qo'ng'ir bo'lgan qo'ng'ir rangdagi erkak quyon bilan chatishtirilganda bir necha qora quyonchalar tug'iladi. Yuqoridagi quyonchalarining genotipini aniqlang.

62. Ota-onasi malla sochli bo'lмаган, lekin akasi malla sochli bo'lgan ayol, onasi malla sochli, otasi esa malla sochli bo'lмаган, malla soch erkakka turmushga chiqdi. Ushbu nikohdan malla soch bo'lмаган o'g'il va malla sochli qiz tug'ildi. Yuqorida keltirilgan kishilarniig genotipini aniqlang.

63. Galaktozemiya kasalligi autosoma-retsessiv tipda nasdan naslga o'tadi. Hozirgi zamон tibbiyoti erishgan yutuqlari tufayli bu kasallikning

oldi olinishiga erishilmoqda. Er-xotindan biri galaktozemiya kasalligi bo'yicha gomozigotali bo'lib, kasallik bu odamda parhez yordamida oldi olingan, ikkinchisi esa galaktozemiya bo'yicha geterozigotali. Shu oilada galaktozemiya kasalligi bilan tug'ilish ehtimoli bo'lgan bolalarni aniqlang.

O'ta dominantlik

O'ta dominantlik - dominant allelning geterozigota holida - Aa, gomozigotaligiga -AA qaraganda o'z belgisini kuchliroq namoyon qiladi. 64. Agar dominant belgi bo'yicha gomozigotali qo'ylar letal hisoblansa, kul rang geterozigotali bo'lgan qorako'l qo'ylari xuddi shunaqa genotipli qochqor bilan chatishtirilganda keyingi avlodda qanday rangli junga ega bo'lgan avlod olinadi? (Kul-rang - dominant belgi)

65. Tovuqlarning ayrim zoti kalta oyoqliligi bilan ajralib turadi. (Bunday tovuqlar polizlarni titkilab tashlamaydi). Bu belgi dominant belgi bo'lib, bir vaqtida tovuq tumshug'ining qisqarishiga ham olib keladi. Bu dominant gen bo'yicha gomozigotali jo'jalar letal hisoblanadi, ya'ni gomozigotali jo'jalarning tumshug'i shunchalik kaltaki, ular tuxum po'stlog'ini yorib chiqsa olmasdan halok bo'ladilar. Faqat kalta oyoqli tovuqlar yetishiruvchi xo'jalik inkubatoridan 3000 ta jo'ja olingan. Ular ichidan nechta kalta oyoqli ? Nega ?

66. Yungini rangi sariq rangli bo'lgan sichqonlar o'zaro chatishtirilganda: 25 % embrion o'lgan 25 % kul rangli, qolganlari sariq rangli bo'lib chiqqan. Yungining uzunligi normal bo'lishi dominant belgi bo'lib, autosoma orqali irlsiylanadi. Yungining uzun bo'lishi retsessiv belgi. Agarda, ushbu yuqorida berilgan belgilari bo'yicha, digeterozigotali organizmlar o'zaro chatishtirilsa, qanday avlod olinishini aniqlang

67. Tovuq zotlarining ba'zilarida oyoqlar shunchalik kaltaki, bu hol ularni sudralib yuruvchi tovuqlar deb nomlashga sabab bo'lgan. Inkubatorlarda shunday "sudralib yuruvchi" tovuq zotlarini chatishtirish natijasida olingan 10000 tuxumidan, 7498 ta jo'ja chiqdi. Shulardan 2482 tasi normal uzun(aa) oyoqli, qolganlari kalta oyoqli(Aa) bo'ldi. Tuxumdan chiqsa olmagan(AA) hamda uzun oyoqli, kalta oyoqli jo'jalar genotipini aniqlang, hamda genlarga xarakteristika bering.

68. Sichqon yungining rangi autosomada joylashgan genlar orqali belgilanadi (yuzaga chiqadi). Sichqon yungining rangi sariq va kul rang

bo'lishi mumkin. Sariq rangli sichqonlar o'zaro chatishirilganda 2386 ta sariq va 1235 ta kul rang sichqonlar olingen. Keyinchalik sariq va kulrang sichqonlar chatishirilgan. Shu ikki chatishirish natijalariga va genlarga xarakteristika bering.

69. Arilarda qanotini osilib qolgan holatda bo'lishini belgilaydigan gen faqat geterozigota holatda(Aa) namoyon bo'lib, gomozigota holatda(AA) bo'ladi gan organizm nobud bo'lishiga olib keladi. Arilarni erkaklari uruqlanmagan tuxumlardan rivojlanib, gomozigotali(aa) bo'ladi.

1. Osilgan qanotga ega bo'lgan arilarni, normal trutenlar bilan chatishirilganda qanday avlod olish mumkinligini aniqlang.

2. Osilgan qanotli arilar avlodni bo'lgan erkak arilarni genotip va fenotipini aniqlang.

70. Sheroyi qorako'l qo'y zotlarini kul rangi, jahon bozorida yuqori baholanadi. Ularning rangi kul rangli bo'lib, ushbu belgini yuzaga chiqaruvchi genning(A) geterozigota holda bo'lganida(Aa) yuzaga chiqadi. Ushbu genning retsessiv alleli, gomozigota holda(aa) bo'lishi, qo'y zotlarini qora rangda bo'lishini ta'minlaydi. Gomozigota bo'lgan zotlar(AA) nobud bo'ladi. Sheroyi zotlarini yetishtirish bo'yicha ixtisoslashgan fermada, ko'proq sheroziy zot qo'yalarini olish uchun qanday yo'nalihsda ish olib borish kerakligin belgilang.

71. Talassemiya(gemoglobinni normal sintezlanishining buzilishi bilan xarakterlanib, turli o'zgarishlarga sababchi bo'ladi, gomozigota organizmlar 90-95 % hollarda nobud bo'ladi), to'liq bo'lмаган autosoma dominant tipda irlsiylanadi. Geterozigota organizmlarda nisbatan yengil shaklda o'tadi.

1. Er-xotinlardan biri talassemiyani yengil shakli bilan kasallangan, ikkinchisi esa ushbu belgi bo'yicha sog'lom bo'lgan oilada, tahlil qilinayotgan belgi bo'yicha sog'lom bo'lib tug'ilishi mumkin bo'lgan farzandlarni aniqlang?

2. Talassemiyani yengil shakli bilan kasallangan er va xotin nikohidan qanday farzandlar tug'ilishi mumkinligini aniqlang

72. O'rroqsimon hujayrali anemiya, to'liq bo'lмаган autosoma dominat belgi sifatida irlsiyladi. Ushbu belgi bo'yicha gomozigota organizmlar, to'liq jinsiy bolog'at yoshiga yetguncha nobud bo'ladi. Geterozigota bo'lgan organizmlar esa hayotchan bo'lib, bunday organizmlarda bezgak qo'zg'ovchisi, o'z oziqasi uchun S - gemoglobinni o'zlashtira olmaydi. Shuning uchun gemoglobinning ushbu shakliga ega bo'lgan odamlar, malyariya bilan kasallanmaydilar.

1. Ota-onalardan biri o'rroqsimon hujayrali anemiya bo'yicha geterozigotali, ikkinchisi esa ushbu belgi bo'yicha normal bo'lgan oilada, malyariyaga chidamli bolalarning tug'ilish ehtimolini aniqlang

2. Ota-onalarning ikkalovi ham, o'rroqsimon hujayrali anemiya bo'yicha

chidamli shakliga ega bo'lsa, ularning oиласида, qanday bolalar tug'ilishi mumkinligini aniqlang.

73. Golshteyn zotiga ta'lulqi geterozigotali buqa, yungning bo'lmasligini yuzaga keltiradigan retsessiv genni o'zida ushlaydi. Ushbu gen gomozigota holda buzoqlarning nobud bo'lishiga olib keladi. Xuddi o'ziga o'xshagan genotipga ega bo'lgan sigir bilan chatishtirilganda qanday avlod olish mumkinligini aniqlang.

74. Tulkilarning platina rangli yunglari, kumush rangga nisbatan uyqoriroq qadrlanadi va shunga yarasha narxi ham qimmat bo'ladi. Shuning uchun, mo'ynachilik bilan shug'ullanadigan fermalar platina rangli tulkilarni ko'proq olishga harakat qilishadi. Platina rangni yuzaga chiqaruvchi genlar autosomada joylashgan bo'lib, kumush rangni yuzaga chiqaruvchi genga nisbatan dominantlik qiladi. Platina rangni yuzaga chiqaruvchigen gomozigota holda kelganda, orgnizmnning nobud bo'lishiga sababchi bo'ladi. Shularning hisobga olgan holda, platina rangli bo'lgan tulkilarni ko'proq olish uchun qanday yo'nalishda ish olib borish kerakligini belgilang.

Chala dominantlik

Chala dominantlikda, dominant gen retsessiv gen bilan birga kelganda o'z belgisini to'liq yuzaga chiqara olmaydi. Shuning uchun geterozigotali organizmda har ikkala gen, yuzaga chiqargan belgilarning oraliq formasi paydo bo'ladi. Masalan: nomozshomgulning oq va qizil ranglilarini o'zaro chatishtirilganda pushti rangli: nomozshomgul paydo bo'ladi. Odamlarda jingalak sochli va silliq sochli insonlar turmush qurishganda to'lqinsimon sochli avlod yuzaga kelish holatlari kuzatiladi.

75. Fermada faqat bir xil rangdagi zangori patli parrandalarga bo'lishi uchun qaysi rangdagi xo'roz va tovuqlarni chatishtirish lozim? Pati zangori bo'lgan tovuqlarni oq patli xo'rozlar bilan chatishtirilsa, qanday nasl olish mumkin? Sitologik tomondan asoslab bering. (Oq- retsessiv, qora-dominant belgi, zangori rang oraliq forma).

76. Bug'doy boshog'ini kalta bo'lishi(R), boshog'ini uzun bo'lishiga(r) nisbatan dominantlik qiladi, Geterozigota organizmlar(Rr) oraliq shaklda bo'ladi.

1. Kalta boshogqli o'simlik, uzun boshogqli o'simlik bilan chatishtirilganda o'simliklar boshog'i F_1 va F_2 da qanday bo'lishini belgilang.

2. Avlodida hammasi bir xil, oraliq shaklga ega bo'lgan bug'doy olish uchun, qanday o'simliklar chatishtirish kerakligini belgilang.

77. Zangori tovuqlarni qora xo'rozlar bilan chatishtirilib, fenotip va genotip bo'yicha F_1 va F_2 avlodlarda qanday duragaylar olish mumkin ? (Qora - dominant, oq - retsessiv belgi, zangori rang oraliq forma).

78. Kalta qo'loqli qo'ylar va zangori tovuqlarning toza zotlisini olish mumkinmi ? (Sitologik tomonndan asoslab bering, ikkala belgi ham chala dominantlik bilan yuzaga chiqadi).

79. Nomozshomgul o'simligining qizil va pushti rangli gultojibarglarga ega bo'lgan turlari oq rangli gultojibargga ega turi bilan chatishtirilganda, birinchi chatishtirishda F_1 da hammasi pushti gultojibargli, ikkinchi chatishtirishda F_2 da 50 % pushti va 50 % oq gultojibargli o'simliklar olingan. Har ikkala tajribadagi ota-onasi va F_1 duragaylarining genotipini aniqlang.

80. Andaluz tovuq zotlarini patining rangi, qora, oq va havo rangli bo'ladi. Tashkil qilingan yangi tovuqchilik fermasiga havo rangli tovuq va xurozlar olib kelindi. Ularning chatishtirish natijasida olingan 15400 ta jo'jjalarini patini rangi: oq, qora va havo rangli bo'lib chiqdi. Olingan jo'jjalarining orasida 3850 tasi qora rangli bo'lib, ular umumiyligi olingan hamma jo'jjalarining 25 % ni tashkil qilar edi. Umumiy olingan hamma jo'jjalar orasida qanchasining pati rangi ota-onasini pati rangiga o'xshashligini aniqlang.

81. Oq rangli, yelkasida ya'ni orqa tomonida qora butsimon belgiga ega bo'lgan norkalar, oq rangli va qoramitir rangli norkalarni chatishtirish natijasida olinadi. Oq rangli, yelkasida qorabutsimon belgisi bo'lgan norkalar o'zaro chatishtirishi natijasida 36 ta oq rangli, 38 ta qoramitir rangli va 75 ta ota-onasining fenotipiga uxshash bo'lgan norkalar olindi. Olingan avlodning qanchasi gomozigotali ekanligini aniqlang.

82. Qorako'l qo'ylarini ayrim zotlarida, qo'loqlari uzun, kalta va o'rtacha o'lchamda bo'ladi. Uzun qo'loqlilari o'zaro chatishtiriganda uzun qo'loqli, kalta qo'loqlilarni o'zaro chatishtirilganda kalta qo'loqli avlod olinadi. Uzun qo'loqli avlod kalta qo'loqli bilanchatishtirilganda o'rtacha qo'loqli avlod olinadi.

1. Kalta qo'loqli qo'ylar bilan kalta qo'loqli qo'chqorlaq o'zaro chatishtirish natijasida qanday genotipga va fenotipga ega bo'lgan organizmlar olinishini belgilang.

2. Kalta qo'loqli qo'chqorlar bilan, uzun qo'loqli qo'ylar, hamda uzun qo'loqli qo'chqorlar bilan kalta qo'loqli qo'ylarning chatishtirish natijasida olinadigan avlodning fenotip va genotipini aniqlang.

83. Qoramolchilik fermasida kul rang-ko'k Shortgorn zotiga kiruvchi sigir va bo'qalarni chatishtirish natijasida 270 ta buzoq olindi. Ulardan 136 tasi yungining rangi ota-onasi yungining rangiga o'xshash edi. Kul rang-ko'k

Shortgorn zotli qoramollar oq rangli va qora rangli mollarning chatishtrilishi natijasida yuzaga kelishi ma'lum bo'lsa, qolgan buzoqchalarni genotip va fenotipini aniqlang.

84. Itog'iz o'simligi gullarining shakli normal (ikki bo'lakka bo'lingan) va qo'shilgan bo'ladi. Ranglari bo'yicha qizil, pushti va oq rangli bo'ladi. Ikkala juft belgini yuzaga chiqaruvchi genlar har xil xromosomada joylashgan bo'lib, normal shakl qo'shilgan shaklga nisbatan dominantlik qiladi. Pushti rang esa, qizil va oq gullarning chatishtrilishi natijasida hosil bo'ladi.

1). Ikkala juft belgisi bo'yicha geterozigotali organizmlar o'zaro chatishtirilganda qanday avlod olish mumkinligini aniqlang.

2). Pushti rang va shakli ikkiga bo'lingan o'simliklar chatishtirilganda qanday avlod olish mumkin ?

85. Leykositlar yadrosi bilan ko'zatiladigan anomaliyalardan biri to'liq bo'limgan dominant tipda, autosomalar orqali nasldan naslga o'tadi. Bu belgi bo'yicha gomozigota organizmlarda yadroni bo'g'implarga bo'linishi to'liq bo'lmaydi. Geterozigotali organizmlarda ular g'ayri-tabiyy bo'ladi. Yadrosi bo'g'implarga bo'linmagan leykositlarga ega bo'lgan erkak bilan normal leykositlarga ega bo'lgan ayol nikohidan qanday farzandlar tug'ilishi ehtimolini aniqlang

86. Talassemiya autosoma orqali irsiylanadigan to'liq bo'limgan dominant belgi. Ushbu belgi bo'yicha gomozigota organizmlarning 90 - 95 % i o'lim bilan tugaydi. Geterozigota bo'lgan organizmlarda kasallik nisbatan yengil shaklda o'tadi.

1. Bir oilada tug'ilgan 3 ta farzanddan biri Talassemiya kasalligi bilan nobud bo'ldi, ikinchisi yengil shakli bilan kasallandi, uchinchisi esa sog'lom edi. Ushbu ma'lumotlar asosida tug'ilgan farzandlar va ota-onasining genotipini aniqlang.

2. Talassemiya bilan kasallangan erkak bilan ushbu kasallik bo'yicha sog'lom bo'lgan ayol nikohidan, qanday genotip va fenotipga ega bo'lgan farzandlar tug'ilishi mumkinligini aniqlang

87. Yertut o'simligi mevasining rangi qizil, oq va pushti rangli bo'ladi. Qizil rang oq rang ustidan to'liq dominantlik qila olmaydi.

1. Qizil va pushti rangli mevaga ega bo'lgan o'simliklarning chatishtrish natijasida, qanday avlod olinishi mumkinligini belgilang.

2. Qizil va oq rangli mevaga ega bo'lgan o'simliklarning chatishtirilganda birinchi(F_1) va ikkinchi avlod(F_2)da yuzaga keladigan avlodlarning fenotipi va genotipini aniqlang.

3. Qanday rangli mevaga ega bo'lgan o'simliklarning chatishirganda ham fenotipi bo'yicha, ham genotipi bo'yicha 1 : 2 : 1 nisbatda ajralish ro'y beradi.

KO'PALLELLIK

Qon guruuhlarining irsiylanishi (Kodominantlik)

Ayrim holatlarda biror allel gen bir juft (A, a) bo'lmasdan ko'p gendañ iborat bo'lishi mumkin (A, a_1, a_2, a_3 va xakozo). Bu holat bir genning har xil darajada mutatsiyaga uchraganligi oqibatida yuzaga keladi. Organizmda allel genlar qancha ko'p bo'lsa, shunchalik ularning juftlashib, kombinasiyalashish ehtimoli ko'p bo'ladi. Masalan: Dengiz cho'chqasi junining rangi beshta allel genlar bilan belgilanadi. Bu allellarning o'zaro turlicha qo'shilishi hayvon rangining ko'p xilligini ta'minlaydi.

Ko'p allelik genlari o'zaro turlicha ta'sir ko'rsatadi. Ko'pincha ular dominantlikning ketma-ket qatorini hosil qiladi: A gen a_1, a_2, a_3 ustidan, a_1 esa a_2, a_3 ustidan, a_2 esa a_3 ustidan dominantlik qiladi. Odamda AVO sistemasi bo'yicha qon guruuhlari va ularning nasldan - nasiga o'tishi ham ko'p allelik hodisasi asosida tushuntiriladi.

Kodominantlik - geterozigota holatida har ikkala gen bir-biridan mustaqil ravishda o'z ta'sirini yuzaga chiqaradi. Bunga misol qilib, IV - qon guruuhini keltirsak bo'ladi

'88. Odamlarda normal eshitish tug'ma karlikka nisbatan, burun teshigini keng bo'lishi, tor bo'lishiga nisbatan dominantlik qiladi. Birinchi qon guruuhiga ega, tug'ma kar, burun teshigi keng bo'lgan ayol, sun'iy urug'lantirilish natijasida hamilador bo'lib, so'ng vaqt soati kelganda, har xil tuxumdan rivojlangan egizak(o'g'il va qiz) farzandlar ko'rdi.

O'g'li I I-qon guruuhiga ega bo'lib, normal eshitadigan va burun teshigi keng, qizi esa I I I-qon guruuhiga ega bo'lib, normal eshitadigan va burun teshigi tor edi. Ayol, uning egizak farzandlari va suraggat otasining genotipini aniqlang.

89. Quyonlar yungining rangini yuzaga chiqaruvchi genlar bir-nechta. Ularning hammasi dominant genning shaklan o'zgargan turlari bo'lib, xromosomaning bir xil lokuslarida joylashgan bo'ladi. Tananing butunligicha qoplab oladigan rang (S) qolgan hamma rangga nisbatan dominantlik qiladi. Shinshil (C^h) va gimalay (C^b) ranglar, albinizmga (s) nisbatan dominantlik qiladi. Shinshil va gimalay ranglar ($C^{ch}C^b$) birgalikda och-kul rangni yuzaga chiqaradi.

1. Seleksioner shinshil va gimalay rangli quyonlarni chatishtirib, birinchi avlodda hammasi och kulrang bo'lgan quyonlarni oldi. Olingan duragaylar o'zaro chatishtirilishi natijasida 99 ta och kulrang, 48 ta gimalay va 51 ta

shinshil rangli quyonlarni oldi.

Birinchi va ikkinchi avlod, hamda ota-onalari genotipini aniqlang.

2. Fermadagi gimalay urg'ochilar va shinshil rangli erkak quyonlar chatishtirilganda 25 % xo'jalik uchun unchalik foydali bo'lмаган albinos bo'lган quyonlar olindi. Shunday albinoslarni olmaslik uchun, erkak quyonlar genotipi qanday bo'lishi kerak?

90. Sichqonlarda dumini uzunligi bir lokusda joylashgan bir qancha allel A, a, a₁, a₂, genlarga bog'liq.. Allellarning gomozigota holati(AA) embrionnning nobud bo'lishiga olib keladi. Aa - kalta dumli, Aa₁ - dumsiz, aa₁, aa₂, a₁a₂ - normal dumlilarni beradi.

Dumsiz sichqonlar bilan kalta dumli sichqonlar chatishtirilganda qanday genotipli va fenotipli avlodlarni olish mumkinligini belgilang.

91. Dengiz cho'chqalarida yungini rangi 5 ta allel genlar S, c^k, c^d, c^r, c^a - orqali irlashtiriladi. S - geni qolgan hamma genlar ustidan dominantlik qiladi. Bu gen gomozigota holatda ham, geterozigota holatda ham melanin pigmentini terida 100% li bo'lishini ta'minlaydi va terini to'q rangda bo'lishiga olib keladi. (c^a) - geni gomozigota holatda oq rangni beradi, ya'ni pigment bo'lmaydi. Quyidagi genotipli organizmlarni chatishtirilganda olinadigan avlodlarning rangini aniqlang.

- 1) Cc^k x Cc^d 2) Cc^k x c^dc^d 3) c^kc^d x c^rc^a 4) CC x c^ac^a 5) Cc^d x Cc^a
6) c^kc^r x c^dc^a

Genlarning har xil kombinasiyalarda ranglarni yuzaga kelish darajasi har xil bo'ladi.

Genetik olim N.P.Dubinin ranglarni yuzaga chiqish darajasi bo'yicha quyidagi jadvalni keltiradi.

Genotip	Melanin %	Genotip	Melanin %	Genotip	Melanin %
c ^k c ^k	88	c ^k c ^a	36	c ^d c ^a	14
c ^k c ^d	65	c ^d c ^d	31	c ^r c ^r	12
c ^k c ^r	54	c ^d c ^r	19	c ^r c ^a	3

Recipientning qon guruhi	Eritrositlardagi antigenlar	Qon zardobidagi antitelolar	To'rt xil qon guruhlari donor eritrositlarning agglutinasiysi			
			I (O)	II (A)	III (B)	IV (AB)
I (O)	O	α β α β	-	+	-	+
II (A)	A	β	-	-	+	+
III (B)	B	α	-	+	-	+
IV (AB)	AB	-	-	-	-	-

Ma'lumki, I - qon guruhiga ega bo'lgan odamning qonini - barcha odamlarga, II - guruhni faqat II- va IV- qon guruhiga ega bo'lganlarga, III - qon guruhini faqat III va IV ga, IV - guruh qonini esa, faqatgina, IV - qon guruhiga ega bo'lganlarga quyish mumkin. IV - qon guruhiga ega bo'lgan odamning o'zi esa hammadan qon olishi mumkin. Boshqalarga qon beruvechi odam donor, boshqalardan qon oluvchi odam ressipient deyiladi. Hozirgi vaqtida tibbiyatda ko'p qon yo'qotgan odamga qon quyishda asosan o'zini guruhiga tegishli bo'lgan qonni quyish amaliyotda qo'llanilmoqda.

92. Ona qonini farzandlariga har doim ham quysa bo'ladimi? Ota-onasi genotipi qanday b o ' l g a n d a singlisining qoni akasiga quyilishi mumkin?

93. Onaning qoni I - guruh, otasining qon guruhi - IV. Bolalar ota

- ona qon guruhiga ega bo'lishi mumkinmi ?

94. O'g'il bolaning qon guruhi- I, uning singlisi IV - qon guruhiga ega. Shu bolalar ota -onasining qon guruhining aniqlang.

95. Rezus musbat II - qon guruhiga ega bo'lgan, rangni yaxshi ajrata oladigan, qoni normal iviydigan erkak bilan, rezus musbat I


I I- qon guruhiga ega, rangni yaxshi ajrata oladigan qoni normal iviydigan ayol nikohidan, rezus mansifi, I - qon guruhiga ega, daltonik, gemofilik bola dunyoga keldi. Masalada berilgan hamma shaxslarni genotipi va fenotipini aniqlang.

96. Onasining qon guruhi - I , otasining qon guruhi - II . Bolalar o'z onasining qon guruhiga ega bo'lishi mumkinmi ?

97. Tug'ruqxonada ikki o'g'il bolani almashtirib qo'yishdi deb faraz qilaylik. Shu bolalardan birining ota - onasi I - va II - qon guruhiga ega, boshqa bolaniki esa II - va IV. Tekshirish bolalarning I - va IV - qon guruhiga mansubligini aniqladi. Qaysi bola kimning bolasi ekanini aniqlash mumkinmi ?

✓ 98. Ayol I - qon gruppasiga, er - IV ga ega. Shu oilada III qon guruhiga ega, daltonik o'g'il bola tug'ildi. Ota-ona ranglarni yaxshi ajrata oladi. Kelajakda shu bola, sog'lom farzand ko'rishi uchun, qanday genotip va fenotipli ayolga uylanishi kerakligini belgilang. Daltonizm jinsiy X - xromosoma bilan birikkan retsessiv belgi sisatida naslga beriladi.

99. Qora ko'zli ota - onaning oilasida to'rtta bola bor. Ularning ikkitasi



ko'k ko'zli bo'lib, I I- va IV - qon guruhlariga ega, qolgan ikkitasi - qora ko'zli bo'lib, I - va III - qon guruhiga ega. Shu oilada ko'k ko'z, I - qon guruhiga ega bolaning tug'ilish ehtimolini aniqlang. (Qora ko'z dominant).

100. Ota ona II va III - qon guruhiga ega. Ular qanday guruhlarga ega bo'lgan farzandlar ko'rishi mumkinligini belgilang.

101. I - qon guruhiga ega bo'lgan ayolni I - qon guruhiga ega bo'lgan farzandi bor. Ushbu farzandni otasi qanday qon guruhiga ega bo'lishi mumkinligini aniqlang.

102. I - va IV - qon guruhiga ega bo'lgan er-xotin nikohidan, ota-onasini qon guruhiga ega bo'lgan farzandlar tug'ilishi mumkinmi ?

103. I I - qon guruhiga ega onaning I - qon guruhiga ega bo'lgan bolasi bor. Otasining qon guruhi qanday bo'lishi mumkinligini aniqlang.

104. Bir oilada I -, II -, III - va IV - qon guruhiga ega bo'lgan farzandlari bor. Ota-onasining qon guruhini aniqlang.

105 To'g'ruqxonalarining birida, to'g'ruq xonasidan, yangi tug'ilgan chaqoloqlarni xonalarga olib ketayotgan hamshira ayol bilmasdan, chaqoloqlar qo'liga boq`lab qo'yilgan chaqoloq haqidagi ma'lumotlarni tushirib qo'ydi. Gap eshitmaslik uchun ularni shoshib olib, chaqoloqlarni qo'liga bog`lab qo'ydi, shu tufayli ikkita chaqaloq, almashib qoldi. Natijada ushbu ikki bola, o'zlarini uchun begona bo'lgan oilada tarbiyalandilar. Bolalarni biri I - qon guruhiga ega bo'lib, uni tarbiyalayotgan ota-onasi I - va IV - qon guruhlariga ega edilar. Keyingi tekshirishlar shuni ko'rsatdiki, shu I - qon guruhiga ega bo'lgan bola bilan, shu tug'ruqxonada bir vaqtida tug'ilgan boshqa bir III-qon guruhiga ega bo'lgan farzand, ota-onasini ikkalovi I - qon guruhiga ega bo'lgan oilada tarbiyalanayotgani ma'lum bo'ldi. Haqiqatdan ham, ushbu almashib qolgan farzandlar shu ota-onalarning farzandimini ?

106 II - va III - qon guruhiga ega bo'lgan, qoni normal iviydigan er-xotin nikohidan I - qon guruhiga ega gemofilik bola tug'ildi. Ushbu oilada yana qanday fenotipga va genotipga ega bo'lgan farzandlar tug'ilishi mumkinligini aniqlang.

107. Rangni yaxshi ajrata oladigan er va xotin nikohidan I - qon guruhiga ega daltonik va IV - qon guruhiga ega daltonik bo'lgan o'g'il bolalar tug'ildi. Ota-onasining genotipini va ushbu oilada yana qanday fenotipga va genotipga ega bo'lgan farzandlar tug'ilishi mumkinligini aniqlang.

108. Ikkalasi qo'ng'ir ko'zli, II - qon guruhiga ega erkak va III - qon

guruhiga ega bo'lgan ayol nikohidan IV- qon guruhiga ega bo'lgan ko'k ko'zli farzand tug'ildi. Ushbu oilada yana qanday fenotip va genotipga ega bo'lgan farzandlar tug'ilishi mumkinligini aniqlang ?

109. II - qon guruhiga ega, rezus musbat(Rh+) erkak va III - qon guruhiga ega rezus musbat ayol nikohidan I - qon guruhiga ega, rezus manifiy(Rh-) bo'lgan bola dunyoga keldi. Ushbu oilada yana qanday genotipli va fenotipga ega bo'lgan farzandlar tug'ilishi mumkinligini aniqlang ?

110. Bir o'zbek xonadonida to'rtta farzand bo'lib, ular quyidagi fenotipik belgilarga ega. Oilaning birinchi farzandi: Farrux: I I I - qon guruhiga ega, terisining rangi oq, sochining shakli to'lqinsimon . Oilaning ikkinchi farzandi Feruza: III - qon guruhiga ega, terisi bug'doy rang, sochi silliq. Oilaning uchinchi farzandi Shoxrux: II - qon guruhiga ega, terisining rangi bug'doy rang, sochi to'lqinsimon shaklda. Oilani to'rtinchi farzandi Nargiza: III - qon guruhiga ega, terisining rangi oq va sochining shakli silliq. Ularning otalari qon guruhi - IV, sochi silliq , terisining rangi bug'doy rang. Onalarining qon guruhi - I, sochi to'lqinsimon, terisini rangi oq. Ushbu masalada berilgan hamma shaxslarni genotipini aniqlang.

DIDURAGAY CHATISHTIRISH.

Ikki juft alternativ belgilarni bilan farq qiluvchi organizmlarning chatishtirishga diduragay chatishtirish deyiladi. Diduragay chatishtirishga oid masalalar yechishda Angliyalik olim Pennet taklif qilgan katakchadan foydalanish geputip va fenotiplarning aniqlashda juda katta qulaylik yaratadi.

Diduragay chatishtirishga tegishli bo'lgan masalani yechish:

1. Masalaning sharti:

Odamlarda kar-soqov bo'lishiga sababchi bo'ladigan kasallik turlaridan biri retsessiv belgi sifatida irsiylanadi, podagra kasalligi dominat belgi bo'lib irsiylanadi. Bu ikki gen har xil juft xromosomalarda joylashgan. Podagra kasalligiga moyilligi bo'lgan, lekin kasal bo'lnagan kar-soqov ayol ravon nutqqa ega bo'lgan podagra bilan kasallangan erkak bilan turmush qurban, Ularning oilasida kasal bolaning tug'ilish ehtimolini aniqlang.

2. Yechish tartibi:

Belgi(Fenotipi)	Gen	Genotipi
Normal eshitadigan va gapiradigan	A	AA, Aa
Kar - soqov	A	Aa
Podagra bo'yicha kasal	B	BB, Bb
Podagra bo'yicha sog'lom	B	Bb

Fenotipi bo'yicha to'rt xil organizm farqlanad	Berilgan organizmlarning bo'lish extimoli bo'lgan genotiplari
Normal eshitadigan va gapiradigan. Podagra bo'yicha kasal odam	AABB, AABb, AaBB, AaBb
Normal eshitadigan va gapiradigan, Podagra bo'yicha sog'lom odam	AAbb, Aabb
Kar - soqov, Podagra bo'yicha kasal odam	aaBB, aaBb
Kar - soqov, Podagra bo'yicha sog'lom odam	Aabb

Ushbu masala Bekkross chatishtirishga ham misol bo'la oladi
 Normal eshitadigan va gapiradigan podagra bilan kasallangan odam 4 xil genotipga ega bo'lishi mumkin - AABB, AABb, AaBB, AaBb.
 Kar soqov, podagra bo'yicha sog'lom odam esa faqat bitta genotipga - «aabb» ega.

P	♀ aabb	x	♂ AABB
G	ab		AB
F ₁	AaBb		
	100 %		
P	♀ aabb	x	♂ AaBB
G	ab		AB ab
F ₁	AaBb	aaBb	
	50 %	50 %	

P	♀ aabb	x	♂ AABb
G	ab		AB Ab
F ₁	AaBb	Aabb	
	50 %	50 %	
P	♀ aabb	x	♂ AaBb
G	ab		AB Ab aB ab
F ₁	AaBb	Aabb	aaBb aabb
	25 %	25 %	25 % 25 %

111. Drozofila pashhasining tanasi kulrang va qanotlari kalta. Ushbu fenotipni necha xil genotip yuzaga chiqaradi. (Kulrang dominant, kalta qanot retsessiv belgi).

112. Qora, pahmoq junli har ikkala belgisi bilan gomozigotali quyon, oq silliq junli quyon bilan chatishtirildi. F₁, avlodidagi duragaylarning fenotipi va genotiplarini aniqlang. (Junning rangini va shaklini belgilovchi genlar har xil gomologik xromosomalar da joylashgan. (Qora rang, pahmoq jun dominant belgililar).

113. Qalin junli, oq, lekin birinchi belgisi bo'yicha geterozigotali quyonni xuddi shunday belgiga ega bo'lgan quyon bilan chatishtirildi. Keyingi avlodda

belgilarning ajralishini genotip va fenotip bo'yicha ifodalang? (Qora rang, qalın jun - dominant; oq rang va junning siyrakligi - retsessiv belgi).

114. Faqat rangi bo'yicha gomozigotali qora sigirni:

a) o'ziga o'xshagan; b) geterozigotali shoxsiz, qora; v) gomozigotali shoxsiz, qizil;

g) har ikkala alleli bilan gomozigotali shoxli qora buqa bilan chatishtirilganda, belgilari keyingi avlodda fenotip va genotip bo'yicha qanday ajralish ro'y berishini aniqlang? (Shoxsizlik, qora rang - dominant belgi).

115. Qora sochli, ko'k ko'zli ayol ushbu belgilari bo'yicha gomozigotali bo'lib, qora soch, ko'k ko'zli, lekin birinchi belgisi bilan geterozigotali yigitga turmushga chiqqan. Ularning bolalarining genotipi qanday bo'lishi mumkin? (Qora soch, - dominant, ko'k ko'z - retsessiv).

116. Qoramfir, jingalak sochli, faqat birinchi belgisi bilan geterozigotali ayol, qoramfir silliq, lekin birinchi belgisi bilan geterozigotali yigitga turmushga chiqqan. Ularning bolalarining genotipi qanday bo'lishi mumkin? (Qoramfir rang, jingalak soch - dominant; malla, silliq - retsessiv).

117. Qora sochli qo'ng'ir ko'zli, birinchi belgisi bo'yicha geterozigotali ayol, malla sochli qo'ng'ir ko'zli, ikkinchi belgisi bilan geterozigotali erkakka turmushga chiqqan. Bolalarning genotiplari qanday bo'ladi? (Qora soch, ko'ng'ir ko'z - dominant belgilar).

118. Agar: a) Qizil ko'zli, kul rang tanali va shu ikkala belgilari bilan geterozigotali bo'lgan drozofila pashshasining qizil ko'zli, qora lekin birinchi belgisi bo'yicha geterozigotali bo'lgan drozofila pashshasi bilan chatishtirilganda belgilari qanday ajraladi? (Kul rang, qizil ko'z dominant belgi).

119. Qora, pahmoq junli, ikkala belgisi bilan geterozigotali quyonni, oq pahmoq junli, lekin ikkinchi belgisi bilan geterozigotali quyon bilan chatishtirilganda kelgusi avlodlarda belgilarning son jihatidan qanday ajralishini aniqlang. (Qora rang pahmoq jun - dominant belgi).

120. Pahmoq junli oq quyon bilan pahmoq junli qora quyon bitta oq silliq junli quyon olindi. Mana shu belgi bo'yicha ota - onasining genotipini aniqlash mumkinmi? Agar mumkin bo'lsa, duragaylarning bir - biriga bo'lgan nisbatini aniqlab bering. (Qora rang, pahmoq jun - dominant belgi).

121. Onasi ham, otasi ham jingalak, qora sochli. Oilada jingalak sariq sochli bola tug'ildi. Ota - ona genotipini aniqlang. (Jingalaklik, qora rang - dominant belgi).

122. Sochi sariq va silliq ayol, qora, jingalak sochli erkakka turmushga chiqdi. Ota-onasining genotipini, bolalarning genotipini va fenotipini aniqlang. (Qora rang, jingalak soch - dominant belgi).

123. Odamlarda o'ng qo'lni ko'p ishlatish(o'naqaylik) va uzoqni ko'ra olmaslik belgilari, chap qo'lni ko'p ishlatish(chapaqaylik) va normal ko'rish belgilariga nisbatan dominantlik qiladi. Uzoqni yaxshi ko'ra olmaydigan chapaqay erkak va o'naqay normal ko'radigan ayol nikohidan chapaqay, normal ko'radigan farzand tug'ildi. Ota-onha va farzandini genotipini aniqlang.

124. Drozofila pashshalarida qanotini normal bo'lishi va ko'zining normal bo'lishi dominant belgilar bo'lib, autosomalar orqali nasldan naslga o'tadi. Birinchi avlodda olingan 488 ta pashshalardan $\frac{3}{8}$ qismi normal belgilarga ega bo'ldi. $\frac{1}{8}$ qismi qanotlari normal, ko'zlarini shakli esa kichraygan, $\frac{3}{8}$ qismini esa ko'zlar normal bo'lib, qanotlari kichraygan, $\frac{1}{8}$ qismini qanotlari ham, ko'zlar ham kichraygan bo'lib chiqdi.

1. Olingan avlodlar ichida qanchasi, digeterozigotali, qanchasi digomozigotali va qanchasi bitta belgisi bo'yicha gomozigotali, ikkinchi belgisi bo'yicha geterozigotali bo'lib chiqishini aniqlang.

2. Olingan 488 ta avloddan qanchasi kichraygan qanotli va qanchasi normal ko'zli ekanligini belgilang.

125. Pamidor mevasining rangi qizil va sariq, yuzasi silliq va momiq bo'ladi. Qizil rangni yuzaga chiqaruvchi gen dominantlik qiladi, momiq shaklni yuzaga chiqaruvchi gen esa retsessiv .

1. Geterozigotali qizil va silliq mevali pamidorlar, ikkala retsessiv belgiga ega bo'lgan o'simliklar bilan chatishirish natijasida olinishi mumkin bo'lgan avlodni aniqlang.

2. Fermer ho`jaligiga tegishli teplisa(issiqxona)lardan birida ikkala juft belgilari bo'yicha geterozigotali o'simliklarning chatishirish natijasida olingan hosilning hisoblashganda: qizil-silliq mevali pamidorlar 27 t, qizil-momiq mevalilar 9 t. bo'lib chiqdi. Qolgan pamidorlar sariq rangli bo'lib, yuzasi ayrimlarida silliq, ayrimlarida momiq edi. Ushbu hali o'lchanmagan pamidorlar orasida qanchasi, sariq rangli, momiq yuzali ekanligini aniqlang.

126. Qoramollarda shohsizlik belgisi, shohlilik belgisi ustidan, junini qora rangli bo'lishi, qizil rangli bo'lishidan ustunlik qiladi. Berilgan bu ikki juft belgi har xil juft xromosomalarda joylashgan.

1. Shu ikki juft belgi bo'yicha geterozigotali sigir va buqa chatishirilganda qanday avlodlar olinishi mumkinligini aniqlang.

2. Naslchilik xo'jaligida, bir necha yillar davomida qora shoxsiz sigir, qora shoxsiz buqalar bilan chatishirilishi natijasida olingan 896 ta buzoqlardan, 535 tasi qora shoxsiz, 161 tasi qizil shoxsiz bo'lgan. Olingan buzoqlar orasida qanchasi shoxli va qanchasi qizil rangda ekanligini aniqlang.

3. Naslchilik xo'jaligida olingan 1000 ta shoxli qizil sigirlardan 984 ta nasl

olingen. Shulardan 472 tasi qizil, 483 tasi shoxsiz, 501 tasi shoxli. Ota-onasining genotipini va necha % qora ekanligini aniqlang.

127. Itlarda junini rangini qora rangli bo'lishi, jigarrang bo'lishiga nisbatan, o'lchamini kalta bo'lishi uzun bo'lishiga nisbatan dominantlik qiladi.

1. Ikkala juft belgisi bo'yicha geterozigotali bo'lган itlarni chatishirish natijasida necha foiz qora rangli uzun junli kuchukchalar olish mumkinligini aniqlang.

2. Ovchi juni rangi qora va shakli kalta bo'lган itni bozordan sotib oldi. Shu itning genotipini aniqlash uchun, uni qanday fenotip va genotipga ega bo'lган it bilan chatishirib ko'rishi kerakligini belgilang.

128. Albinizmning har xil irlsiy shakkllari bo'lib, ulardan biri qisman albinizm autosoma-dominant tipda, ikkinchi xili to'liq albinizm autosoma-retsessiv tipda nasldan naslga o'tadi. Agarda ota-onalardan birini genotipi digeterozigotali bo'lib, qisman albinizm bilan kasallangan, ikkinchisi to'liq albinizm bilan kasallangan bo'lib, uni avlodida qisman albinizm belgisi hech qachon ko'zatilmagan bo'lган. Ushbu oilada shu anomaliyalar bo'yicha tug'ilishi ehtimoli bo'lган farzandlar fenotipi va genotipini aniqlang.

129. Odamlarda ko'zining rangini qo'ng'ir rangli bo'lishi ko'k rangli bo'lishiga nisbatan dominantlik qiladi, o'naqaylik esa chapaqaylik belgisiga nisbatan dominantlik qiladi.

1. O'naqay va qo'ng'ir ko'zli bo'lган er va xotin nikohidan ko'k ko'zli, chapaqay bo'lган farzand tug'ildi. Ushbu oilada yana qanday genotipli va fenotipli farzandlar tug'ilishi mumkinligini aniqlang.

2. Ko'k ko'zli o'naqay erkak, qo'ng'ir ko'zli o'naqay ayolga uylandi. Ularning nikohidan, ko'k ko'zli o'naqay va qo'ng'ir ko'zli chapaqay farzand tug'ildi. Ota-onasini genotipini va ushbu oillada yana qanday farzandlar tug'ilishi mumkinligini aniqlang.

130. Yaqindan ko'radigan(dominant belgi), chapaqay(retsessiv belgi) erkak, ushbu ikki belgi bo'yicha normal bo'lган ayolga uylangan. Er-xotinning ikkalovini ham aka-ukalari, opa-singilari orasida fenilketonuriya kasaligi bilan kasal bo'lganlari borligi ma'lum. Ularning o'zi esa fenilketonuriya kasaligi bo'yicha sog'lom. Ularning oilasida birinchi tug'ilgan farzandi uchchala belgi bo'yicha normal bo'lган. Ikkinci farzandi esa yaqindan ko'radigan chapaqay, uchinchisi esa fenilketonuriya bilan kasallangan bo'lган.

1. Ota-onasini va hamma farzandlarini genotipini aniqlang.

2. Ushbu oilada hamma belgisi bo'yicha sog'lom farzand tug'ilishi ehtimolini aniqlang.

131. Odamlarda ko'zining rangi qo'ng'ir bo'lishi ko'k ko'zga nisbatan dominantlik qiladi. Yaqindan ko'rish(miopiya)ning bir necha xillari farqlanib,

shulardan biri normal ko'rishga nisbatan dominantlik qiladi.

1. Yaqindan ko'radigan va qo'ng'ir ko'zli bo'lган er va xotin nikohidan ko'k ko'zli, ko'rish bo'yicha normal bo'lган farzand tug'ildi. Ushbu oilada yana qanday genotipli va fenotipli farzandlar tug'ilishi mumkinligini aniqlang.

2. Ko'k ko'zli normal ko'radigan ayol va yaqindan ko'radigan qo'ng'ir ko'zli erkak nikohidan ko'k ko'zli normal ko'radigan farzand to'g'ildi. Ota-onasining genotipini aniqlang.

132. Odamlarda ko'rlikni yuzaga chiqaradigan irsiy belgining ikki xili mavjud bo'lib, ularning ikkalasi autosoma orqali irsiylanadigan retsessiv belgilardir. Ikkala belgini yuzaga chiqaruvchi genlar, har xil just xromosomalarda joylashgan. Ko'rlikni ushbu ikki xilini, birini shartli ravishda "A" shakli, ikkinchisini "B" shakli deb nomlab, belgilarning, quyidagi hollarda qanday irsiylanishini mumkinligini aniqlang.

1.Ota-onasi normal ko'radigan ya'ni sog'lom bo'lган oilada, tug'ilgan farzandlardan biri ko'rlikni "A" turi bilan ikkinchisi "B" turi bilan kasallanganligi aniqlandi. Ota-onasini va tug'ilgan farzandlarni genotipini aniqlang. Ushbu oilada kasallikning ikkala turi bo'yicha kasal bo'lishi mumkin bo'lган va umuman ushbu kasallikkarni yuzaga chiqaruvchi belgilarga ega bo'lman holda tugilishi ehtimoli bo'lган organizmlar qancha foizni tashkil etishi mumkinligini aniqlang.

2.Ota-onalardan biri ko'rlikni "A" turi bilan, ikkinchisi "B" turi bilan kasallangan oilada ikkala turi bo'yicha kasallangan farzand tug'ildi. Ota-onasining hamda ushbu nikohdan yana qanday fenotipga va genotipga ega bo'lган organizmlar tug'ilishi mumkinligini aniqlang.

133. Shafolti mevasini tuklar bilan qoplanganligi(B), silliq bo'lishiga(b) nisbatan, meva etini oq rangda(D) bo'lishi, sariq rangda(d) bo'lishiga nisbatan dominantlik qiladi. Mevasining eti oq rangli, po'sti tuk bilan qoplangan shaftoli, mevasi xuddi shunday shaftoli bilan chatishtirilishi natijasida 28 ta - po'sti tuk bilan qoplangan, meva eti oq rangli, 9 ta - po'sti tuk bilan qoplangan, meva eti sariq rangli, 10 ta - po'sti silliq , meva eti oq rangli, 3 ta - po'sti silliq, meva eti sariq rangli bo'lган o'simliklar olindi. Ota - ona va olingan avlodlarning genotipini aniqlang

134. Odamlarda kar-soqovlikni ikki xili mavjud bo'lib, ular har xil just autosomalarda joylashgan va bir-biri bilan birikmagan holda irsiylanadigan retsessiv belgilardir.

1. Kar-soqovlikning bir xil turi bilan kasallangan, ikkinchi turi bo'yicha geterozigotali bo'lган er-xotin nikohidan qanday farzandlar tug'ilishi mumkinligini aniqlang.

2. Kar-soqovlikni har xil turi bilan kasallangan, ikkinchi turi bo'yicha gomozigotali bo'lgan oilada tug'ilishi ehtimoli bo'lgan farzandlarni aniqlang.

135. Kataraktani bir necha irlari mayjud. Ularning ichida ko'pchilik turlari autosoma-dominant tipda, ba'zilari, autosoma-retsessiv tipda nasldan-naslga o'tadi. Agar ota-onaning ikkalasi, ham autosoma-dominant shakli bilan, ham autosoma retsessiv shakli bilan kasallangan bo'lib, shu belgilar bo'yicha digeterozigotali bo'lsa, ushbu oilada shu anomaliyalar bilan tug'ilishi ehtimoli bo'lgan bolalarni aniqlang.

POLIDURAGAY CHATISHTIRISH

Bir necha juft alternativ belgilar bo'yicha farq qiluvchi organizmlarning chatishtirishga poliduragay chatishtirish deyilib, chatishtirishning ushbu turida F_2 avlodida xilma-xillik yanada murakkablashadi. Ularни tahlil qilish uchun ham Mendel qonunlaridan samarali foydalaniladi. Bunday murakkab irlsiylanishning negizida ham monoduragay chatishtirishdan olingan F_2 dagi 3 : 1 tarzidagi fenotipik ajralish qoidasi yotadi. Bu asosiy ajralish formulasini duragaylar uchun (3 : 1)², triduragaylar uchun (3 : 1)³ va, niroyat, poliduragaylar uchun (3 : 1)ⁿ shaklida ifodalash mumkin. Bu formulalar belgilar bo'yicha to'liq dominant holatda irlsiylanish namoyon bo'lsa, o'z kuchini saqlaydi. Belgilarning to'liqsiz dominantlik holatida irlsiylanganida, ajralish formulasini (1 : 2 : 1)², (1 : 2 : 1)³, va (1 : 2 : 1)ⁿ tarzida ifodalananadi,

136. Odamlarda ko'zining qo'ng'ir rangli bo'lishi, sochning shaklini jingalak bo'lishi dominant belgi, barmoqlarini normal ya'ni beshta bo'lishi retsessiv belgi. Ushbu belgilarning yuzaga chiqaruvchi genlar har xil juft xromosomalarda joylashgan bo'lib, bir biri bilan birikmagan holda irlsiylanadi. Ko'zlarining rangi qo'ng'ir, silliq sochli, polidaktiliya belgisiga, hamda II-qon guruhiiga ega bo'lgan erkak va ko'zlarini rangi ko'k, sochlari jingalak, barmoqlarini soni normada, III - qon guruhiiga ega bo'lgan ayol nikohidan, ko'zining rangi ko'k, silliq sochli, barmoqlarining soni normada, IV - qon guruhiiga ega bo'lgan farzand tug'ildi. Ota-onasini va tug'ilgan farzandni genotipini aniqlang.

137. Polidaktiliya, yaqindan ko'rish va kichik jag' tishlari bo'lmasligi dominant autosoma belgilar bo'lib, bu belgilarni yuzaga chiqaruvchi genlar har xil xromosomalarda joylashgan.

1. Uchchala juft belgisi bo'yicha geterozigotali bo'lgan er - xotin nikohidan shu belgilari bo'yicha sog'lom bo'lgan farzandni tug'ilishi ehtimolini aniqlang.

2. Yuqorida berilgan uchchala kasallikkka ega bo'lgan erkak va shu uchchala belgi bo'yicha sog'lom bo'lgan ayol nikohidan, hamma berilgan belgilari bo'yicha sog'lom farzand tug'ildi. Ushbu oilada yana qanday fenotipga ega bo'lgan farzandlar tug'ilishi mumkinligini aniqlang.

138. Xushbuy hidli no'xat o'simligining poyasi uzun, urug'ining rangi sariq va shakli yumaloq bo'lgan navi bilan, poyasi kalta, urug'ini rangi sariq va shakli yumaloq bo'lgan navi o'zaro chatishtilishi natijasida quyidagi fenotipga ega bo'lgan organizmlar olindi:

58 ta - uzun bandli, urug'ining rangi yashil, shakli yumaloq,

61 ta - uzun bandli, urug'ining rangi sariq, shakli yumaloq,

62 ta - kalta bandli, urug'ining rangi yashil, shakli yumaloq,

59 ta - kalta bandli, urug'ining rangi sariq, shakli yumaloq,

19 ta - uzun bandli, urug'ining rangi yashil, shakli g'adir-budir,

20 ta - uzun bandli, urug'ining rangi sariq, shakli g'adir-budir,

21 ta - kalta bandli, urug'ining rangi yashil, shakli g'adir-budir,

20 ta - kalta bandli, urug'ining rangi sariq, shakli g'adir-budir bo'lgan avlod olindi. Ota-onha genotipini va olingan avlodlar genotipini aniqlang.

139. Kataraktaning bir necha xil irlsiy shakkllari bor. Ko'pchiligi autosoma-dominant tipda, ayrimlari autosoma-retsessiv tipda irlsiylanadi. Ular bir-biri bilan birikmagan holda irlsiylanadi. Bir oilada qo'ng'ir ko'zli er-xotinni ikkaliasi, kataraktaning autosoma-dominant turi bo'yicha ham, autosoma-retsessiv turi bo'yicha ham, ko'zining rangi bo'yicha ham geterozigotali. Ushbu oilada qanday farzandlar tug'ilishi mumkinligini aniqlang.

140. Qoshni sertuk bo'lishi, siyrak bo'lishiga, yuqori qovog'ini osilgani, normada bo'lishiga, burnini katta bo'lishi, kichik bo'lishiga nisbatan dominantlik qiladi. Uchchala belgini yuzaga chiqaruvchi genlar har xil juft xromosomalarda joylashgan. Qoshi siyrak, yuqori qovog'i osilgan, burni katta erkak bilan, qoshi sertuk, yuqori qovog'i normada, burni kichik bo'lgan ayol nikohidan qoshi siyrak, yuqori qovog'i normada, burni kichik bo'lgan qiz tug'ildi. Berilgan qamma organizmlarning genotipini aniqlang.

141. Yanoqlarida chuqurchasi bor bo'lgan, ko'k ko'zli, qoni normal iviydigan ayol, yanoqlarida chuqurchasi yo'q, qo'ngir ko'zli, qoni normal iviydigan erkakka turmushga chiqqdi. Ularning oilasida yanoqlarida chuqurchasi bor, ko'k ko'zli, gemofilik o'g'il bola tug'ildi. Ushbu oilada yana qanday farzandlar tug'ilishi mumkinligini aniqlang. Yanoqlarda chuqurchani bo'lishi, qo'ng'ir ko'z - dominant belgilari bo'lib, autosoma orqali irlsiylanadi.

Gemofiliya retsessiv belgi bo'lib, jinsiy X-xromosoma orqali nasldan naslga o'tadi.

142. Bir-biriga bog'liq bo'limgan holda mustaqil irsiylanadigan 5 ta har xil belgilari bo'yicha farq qiladigan 2 ta gomozigotali AABccdee va aabbCCDDEE o'simliklar chatishtirilgan. So'ng, birinchi avlod duragaylari, xuddi o'zlariga o'xshash genotipga ega bo'lgan o'simlik bilan chatishtirilgan. Birinchi avlod duragaylari genotipini, so'ng ularning o'zi qancha gameta hosil qilishini, hamda ikkinchi avlodda hammasi bo'lib, qancha organizm olish mumkinligini aniqlang.

JINS BILAN BOG'LANGAN BELGILAR.

(Jins bilan birikkan holda irsiyanish.)

Jinsiy xromosomlarda joylashgan genlar orqali yuzaga chiqadigan belgilarga jins bilan bog'langan belgilari deyiladi. Y - xromosoma otadan faqat o'g'ilga o'tadi. Shuning uchun otadagi Y - xromosomada joylashgan gen orqali yuzaga chiquvchi belgi, albatta o'g'ilda ham namoyon bo'lishi kerak. Masalan: gipertriox (qo'loq suprasida tuklarning bo'lishi) erkaklarda uchrab, otadan o'g'ilga o'tadi. Ayollarda 2 ta jinsiy X-xromosoma, erkaklarda 1 ta X-jinsiy va 1 ta Y-jinsiy xromosoma bo'lGANI uchun, belgi jinsiy X-xromosoma bilan birikkan holda irsiylanadigan bo'lsa, otadan faqat qiziga, onadan esa, ham qiziga, ham o'g'liga o'tishi mumkin. Y - xromosoma orqali irsiylanadigan belgi, otadan faqat o'g'liga o'tadi.

143. Normal ko'rish qobiliyagiga ega bo'lgap ota-onadan ranglarni normada ajrata oladigan bolalar va bitta o'g'il - daltonik (qizil va yashil ranglarni ajrata olmaydi) tug'ildi. Bunga sabab nima ? Ota- onasining va bolalarining genotipi qanday ? (Normal ko'rish dominant, ranglarni ajrata olmaslik - daltonizm retsessiv belgi bo'lib, ularni yuzaga chiqaruvchi genlar jinsiy X - xromosomada joylashgan).

144. Ter bezlari bo'limgan yigit, shu belgi bo'yicha sog'lom qizga uylandi. Ota-onasi va bo'lajak bolalarining genotipini aniqlang. (Ushbu belgilarni yuzaga chiqaruvchi genlar jinsiy X - xromosomada joylashgan bo'lib, ter bezlarining bo'lmasligi retsessiv belgidir).

145. Qora sochli, qoni normal iviydngan (sog'lom) va shu belgilari bilan geterozigotali bo'lgan ayol, shunday belgiga ega bo'lgan erkakka turmushga chiqdi. Bolalarining fenotip va genotipini aniqlang. Qora sochli, gemofilik (qoni normada ivimaydigan) o'g'il bolalarning tug'ilish ehtimoli bormi? (Qora soch autosomada joylashgan dominant gen ta'sirida yuzaga chiqadi, qonning normada ivimasligi esa - retsessiv belgi bo'lib, uni yuzaga chiqaruvchi gen jinsiy X-xromosomada joylashgan).

146. Agar qora sochli, sog'lom (qoni normal iviydigan) ayol, qora sochli, sog'lom ya'ni gemofilik bo'lмаган erkakka turmushga chiқsa va ularning nikohidan, malla sochli, gemofilik o'g'il bola tug'ilsa, shu bola va ota-onasining genotipi qanday (qora soch - dominant belgi, gemo-filiya retsessiv belgi bo'lib, X - xromosomadagi gen orqali yuzaga chiqadi) bo'lishini belgilang

147. Tovuq zotlarining birida pati rangining kul rang bo'lishi, oq rangda bo'lishiga nisbatan dominantlik qilib, ushbu belgi autosoma orqali irsiyanadi. Rangni butun tana yuzasi bo'ylab teng taqsimlanishiga nisbatan, ola-bula bo'lishi dominantlik qilib, ushbu belgilarni yuzaga chiqaruvchi genlar, jinsiy X-xromosoma orqali birikkan holda nasldan naslga o'tadi. Birinchi avlodda olingan 884 ta jo'jalarning, 50% erkaklari va 50% urg'ochilarining pati rangi kul rang bo'lgan. Olingan avlodni 1/4 qismida patlarini rangi, tana yuzasi bo'ylab teng taqsimlangan bo'lib, 3/4 qismida esa ola-bo'la bo'lgan. Olinga erkak jo'jalarning hammasini pati ola-bula bo'lgan.

1. Birinchi avlod duragaylarining va chatishtirish uchun olingan ota-onalarning genotipini aniqlang.

2. Birinchi avlod durugaylarining fenotipini va ularning % aniqlang.

3. Birinchi avlodda olingan jo'jalarning orasida kul rang ola-bula xo'rozlar va kul rang ola - bula tovuqlar qancha ekanligini aniqlang.

148. Laboratoriyada qizil ko'zli urg'ochi drozofila pashshalari xuddi shunday belgilarga ega erkak pashshalar bilan chatishtirilganda 69 ta qizil va oq ko'zli erkak pashshalar, hamda 71 ta qizil ko'zli urg'ochi pashshalar olindi. Ko'zni qizil rangi oq rangga nisbatan dominant bo'lib, jinsiy X-xromosoma orqali irsiyanadi. Ota-onalarning genotipini aniqlang.

149. Ko'pgina hollarda endigina tuxumdan chiqqan jo'jalarni erkak va urg'ochilagini ya'ni qaysi birlari tovuq va qaysi birlari xo'roz bo'lishlarini bilib bo'lmaydi. Lekin ayrim hollarda ularning jinsini oldindan ma'lum miqdorda aniq aytса bo'ladi. Tovuq xo'rozlar patining oltin rangli va kumush(oq) rangda bo'lishini belgilovchi genlar jinsiy X-xromosoma orqali birikkan holda irsiyanib, oltin rang, kumush rangga nisbatan dominantlik qiladi. Qushlarda urg'ochilar geterogametali, erkaklari gomogametali bo'ladi.

1.Qanday fenotipga ega bo'lgan tovuq-xo'rozlar chatishtirganda, jo'jalar jinsini aniqlasa bo'ladi.

2. Olingan jo'jalarning hammasi oltin rangli bo'lib chiqdi. Ushbu hol qanday genotipli xo'roz va tovuqlarning chatishtirilishi natijasida olish mumkinligini belgilang.

3.Olingan jo'jalarning hammasi kumush rangli bo'lib chiqdi. Ushbu hol qanday genotipli xo'roz va tovuqlarning chatishtirilishi natijasida olish mumkinligini belgilang.

4.Bitta xo'roz va bir nechta tovug'i bo'lgan xonadonlarning birida ko'rк bo'lgan tovuq bosib yotgan tuxumlar ichidan oltin va kumush ragli jo'jjalar chiqdi. Ular voyaga yetganda, kumush rangli xo'rozlar ham,kumush rangli tovuqlar ham, shuningdek oltin rangli xo'rozlar ham, oltin ranli tovuqlar ham borligi ma'lum bo'ldi. Ushbu ma'lumotlardan foydalangan holda ularning ota-onasi va o'zlarining genotipini aniqlang.

150. Rang ajrata olmaydigan(daltonik) kar bo'lgan erkak, shu belgilari bo'yicha sog'lom bo'lgan ayolga o'ylandi. Ular nikohidan ikki farzand tug'ildi. Kar va daltonik bo'lgan o'g'il hamda yaxshi eshitadigan lekin daltonik bo'lgan qiz. Bu oilada shu ikki belgi bo'yicha kasal bo'lgan qizning tug'ilishi ehtimolini aniqlang. Daltonizm va karlik belgisi retsessiv belgilari bo'lib, daltonizm jinsiy X-xromosoma orqali, karlik esa autosoma orqali nasldan naslga o'tadi.

151. Odamlarda albinism belgisi autosoma-retsessiv holatda irlsiyanadi. Angidrozli ektodermal displaziya jinsiy X - xromosomaga birikkan holda irlsiyanadigan retsessiv belgidir. Ushbu ikki belgi bo'yicha sog'lom bo'lgan erkak va ayol nikohidan, ikkala anomaliyaga ega bo'lgan o'g'il tug'ildi.

1. Ushbu oilada ikkala belgisi bo'yicha sog'lom qiz tug'ilishining ehtimolini aniqlang.

2. Keyingi farzandi ikkala belgi bo'yicha sog'lom o'g'il bo'lishi ehtimoli qancha ekanligini aniqlang ?

152. Gipertrixoz belgisi jinsiy Y - xromosoma orqali nasldan naslga o'tadi. Polidaktiliya belgisi esa dominant belgi bo'lib, autosoma orqali o'tadi. Otasida gipertrixoz, onasida esa polidaktiliya belgisi bo'lgan oilada, ikkala belgi bo'yicha sog'lom qiz tug'ildi. Ushbu oilada yana qanday fenotip va genotipga ega bo'lgan farzandlar tug'ilishi mumkinligini aniqlang.

153. Gipertrixoz belgisi jinsiy Y - xromosoma orqali nasldan naslga o'tib, hayotning 17 yoshida yuzaga keladi. Gemofiliya esa retsessiv belgi bo'lib, jinsiy X - xromosoma orqali nasldan naslga o'tadi. Terining bo'g'doy rang bo'lishi, oq bo'lishiga nisbatan dominantlik qiladi. Qoni normal iviydigan, teri rangi bo'g'doy rang bo'lgan ayol va erkak nikohidan,

gemofilik, teri rangi oq bo'lgan o'g'il tug'ildi. Ushbu oilada yana tug'ilishi ehtimoli bo'lgan boshqa farzandlarni fenotip va genotipini aniqlang?

154. Qoshning sertuk bo'lishi siyrak bo'lishiga, pastki labning qalinligi va osilganligi, normada bo'lishiga, nisbatan dominantlik qiladi. Rang ajrata olmaslik retsessiv belgi bo'lib, jinsiy X-xromosoma orqali nasdan nasnga o'tadi. Qoshi sertuk, labi qalin va osilgan, rangni yaxshi ajratadigan ayol, qoshi sertuk, labi normada, daltonik bo'lgan erkakka turmushga chiqib, qoshi siyrak, lablari normal, daltonik bo'lgan qiz ko'rdi. Berilgan hamma organizmlarning va ushbu oilada yana qanday fenotipga ega bo'lgan farzandlar tug'ilishi mumkinligini aniqlang.

155. Gipofosfatomik raxit X-xromosomada joylashgan dominant gen ta'sirida yuzaga chiqadi. Gipofosfatomik raxit bilan kasallangan II-qon guruhiga ega bo'lgan ayol bilan, ushbu raxit formasi bo'yicha sog'lom III-qon guruhiga ega erkak nihoxidan I-qon guruhiga ega, sog'lom bo'lgan qiz tug'ildi. Ushbu oilada yana qanday genotipga ega bo'lgan farzandlar tug'ilishi mumkinligini aniqlang.

156. Geterozigotali qizil ko'zli urg'ochi drozofila pashshasi, oq ko'zli erkak pashsha bilan chatishdirildi. Duragaylarda belgilarning son jihatidan fenotip va genotipda ajralishini aniqlang. (Ko'rsatilgan belgililar jinsiy X-xromosoma bilan bog'langan. Ko'zning qizil rangda bo'lishi dominant belgi bo'lib, jinsiy X-xromosoma orqali nasdan nasnga o'tadi).

157. Tashbaqa rangli urqochi mushuk(yungining rangi toshbaqalar kossasi rangiga o'xshagini uchun shunday nomlanadi)dan bir nechta mushukchalar tug'ildi. Bu mushukchalardan bittasi malla rangli edi. Uning genotipini aniqlaig. (Urqochi va erkak mushuklarda qora dominant, malla rang retsessiv belgi. Ushbu 2 ta gen birgalikda tashbaqa rangni vujudga keltiradi. Bu genlar jinsiy X-xromosomada joylashgan),

158. Agar tilla rang tovuq, gomozigotali kumush rang xo'roz bilan chatishdirilgan bo'lsa, jo'jalarning rangiga qarab, ularning jinsini aniqlash mumkinmi ? Agar tilla rang geterozigotali kumush rang xo'roz bilan chatishdirilsachi ? Ko'rsatilgan belgililar jins bilan bog'langan. (Kumush rang dominant, tilla rang retsessiv bo'lib, ularni yuzaga chiqaruvchi genlar jinsiy X-xromosomada joylashgan)

PENENTRANTLIK.

Organizmadagi genlarning hammasi ham doimo birdek o'z belgilarini ro'yobga chiqara olmaydi, ya'ni ularda penetrantlik mavjuddir. Penetrantlik - gennenning belgi sifatida namoyon bo'lish chastotasiidir. Odatda penetrantlik % bilan ifodalanadi. Biror belgini yuzaga chiqarish imkoniyatiga ega bo'lgan gennenning, shu gennenning belgisi yuzaga chiqqan organizmlar soniga nisbatan, ushbu gennenning penetrantligini ko'rsatadi. Masalan: A gen 100 kishida uchrasada bu gennenning belgisi faqat 30 kishida yuzaga chiqishi mumkin. Demak; A gennenning penetrantligi 30 %

159. Ko'zning to'r pardasini Angiamatoz kasalligi autosoma - dominant tipda nasldan naslga o'tib, 50 % penetrantlikka ega. Agar ota-onada shu kasallik bo'yicha geterozigotali tashuvchi bo'lishsa, farzandlarining shu kasallik bilan tug'ilish ehtimolini aniqlang.

160. Araxnodaktiliya autosoma - dominant belgi bo'lib, 30 % penetrantlikka ega. Chapaqaylik autosoma - retsessiv belgi bo'lib, to'liq penetrantlikka ega. Shu belgilari bo'yicha geterozigotali bo'lgan ota-onadan ikkala anomaliyaga ega bo'lgan farzandlar tug'ilishi ehtimolini aniqlang.

161. Van der Xeve sindromi autosoma - dominant tipda irsiylanadigan pleyotrop gen bo'lib, ushbu gen, suyaklarning mo'rt bo'lib qolishiga, ko'zning oqsil pardasini ko'k rangli hamda garang bo'libshiga sababchi bo'ladi. Belgilarning penetrantligi o'zgaruvchadir. Oqsil pardani ko'k bo'lishi penetrantligi - 100 %, suyaklarni mo'rtligi - 63 %, garangligi - 60 %. Ko'zning oqsil pardasi ko'k, qolgan begilari bo'yicha normal bo'lgan erkak Van der Xeve sindromi bo'yicha sog'lom bo'lgan oiladan chiqqan qizga o'ylandi. Bu oilada suyagi mo'rtligi bo'yicha kasal bo'lgan farzand tug'ilishi ehtimolini aniqlang. Erkakning ota-onasidan faqat bittasi shunday belgiga ega bo'lgan bo'lsin.

162. Yuz - kalla dizostozsi autosoma - dominant tipda nasldan naslga o'tib, 50 % penetrantlikka ega. Ota - onaning biri shu belgi bo'yicha geterozigotali, boshqasi shu belgiga ko'ra normal bo'lgan oilada kasal bolalarning tug'ilish ehtimolini aniqlang.

163. Otoskleroz kasali autosoma - dominant tipda nasldan naslga o'tib, 30 % penetrantlikka ega. Gipertrixoz esa jinsiy Y-xromosoma bilan bog'langan holda nasldan naslga o'tib, 17 yoshdan keyin namoyon bo'ladi. Onasi normal gomozigotali o'zi esa ikkala anomaliyaga ega bo'lgan erkak bilan gomozigotali normal ayol nikohidan dunyoga kelgan farzandlarda, bir vaqtida, ikkala anomaliyani yuzaga kelish ehtimolini aniqlang.

164. Podagra kasalligi autosomadagi dominant gen bilan aniqlanadi. Ayrim ma'lumotlarga genning penetrantligi erkaklarda 20 % ga, ayollarda "O" ga teng.

a) Ota - onasi geterozigota bo'lgan oilada podagra kasalligining uchrash ehtimoli qanday ?

b) Ota - onaning biri geterozigotali, boshqasi tahlil qilinayotgan belgi bo'yicha normal bo'lsa, oilada podagra kasalligining paydo bo'lish ehtimoli qanday ?

165. Shved genetiklarining ma'lumotlariga ko'ra shizofreniya kasalligining ayrim xillari dominant belgi sifatida nasldan - naslga beriladi. Gomozigota organizmlarda penentrantlik 100 % ga, geterozigotlarda - 20 % ga teng.

a) Ota - onaning birortasi geterozigota, boshqasi shu belgiga ko'ra normal bo'lgan oilada kasal bolalarning tug'ilish ehtimolini aniqlang.

b) Ota - ona geterozigota bo'Iganda - chi ?

166. Otoskleroz kasali (autosoma - dominant gen bilan yuzaga chiqadi) 30 % penetrantlik bilan nasldan naslga o'tuvchi belgi, yuqorigi ko'rak tishning bo'lmasligi jinsiy X-xromosoma bilan birikkan, to'la penentrant bo'lgan rctsessiv belgi sifatida naslga beriladi. Onasi ikkala belgi bo'yicha geterozigotali, otasi ikkala belgisi bo'yicha normal bo'lgan oiladagi bolalarda, ikkala anomaliyaning yuzaga chiqish ehtimolini aniqlang.

167. Ko'zning qora bo'lishi ko'k rang ustidan dominantlik qiladi va autosomadagi gen bilan aniqlanadi. Retinoblastoma boshqa autosomadagi dominant gen orqali yuzaga chiqadi. Retinoblastomaning penetrantligi 60 %. Ikki belgi bo'yicha geterozigotali ota - onadan bolalariing ko'k ko'zli bo'lib tug'ilish ehtimoli qanday bo'ladi ?

BELGILARNING BIRIKKAN HOLDA NASLDAN - NASLGA O'TISHI.

Bitta xromosomada joylashgan genlar o'zaro birikkan holda nasldan naslga o'tadi. Bunday holatda genlarning o'zaro mustaqil taqsimlanish qonuniyati bo'ziladi. Birikkan belgilari har doim ham birgalikda avloddan avlodga o'tavermaydi, chunki meyoz jarayonida gomologik xromosomalar o'rtasida krossingover hodisasi(chalkashib almashish)sodir bo'lib, genlarning joylashish tartibi o'zgarib to'radi. Birikkan belgilarning nasldan naslga o'tish qonuniyatlaridan foydalaiib, genlar orasidagi masofalarni aniqlab, xromosomalar xaritasini tuzish mumkin.

168. Gemofiliya va daltonizm kasalliklari X-xromosomada joylashgan retsessiv gen orqali naslga beriladi. Shu retsessiv genlar orasidagi masofa 9,8 morganidaga teng.

a)Qizning otasi gemofiliya va daltonizm bilan kasallangan, onasi sog'lom va yuqoridagi kasalliklar bo'yicha sog'lom oiladan kelib chiqqan. Shu qiz sog'gom erkak bilan turmush qo'rgan. Mana shu nikohdan tug'iladigan bolalarning fenotiplarini aniqlang;

b)Onasi daltonik bo'lgan, otasi esa gemofiliya bilan kasallangan ayol ikkala kasallik bilan kasallangan erkakka turmushga chiqadi. Bo'halarning ikkala anomaliya bilan tug'ilishi ehtimolini aniqlang.

169. Rang ajrata olmaslik va nomoshomko'rlikni yuzaga chiqaruvchi retsessiv genlar jinsiy X- xromosomada joylashgan bo'lib, ular orasidagi masofa 50 - morganidaga teng. Onasi nomoshomko'r, otasi rang ajrata olmaydigan, o'zini esa ko'rish qobiliyati normal bo'lgan ayol, shu belgilar bo'yicha sog'lom bo'lgan, erkakka turmushga chiqsa, shu oilada ikkala belgi bilan kasallangan bola tug'ilish ehtimolini aniqlang ? Ikkala belgi bo'yicha sog'lom, lekin geterezigotali bo'lgan va bu belgilarni o'z otasidan nasl qilib olgan ayol, ikkala belgi bo'yicha kasal bo'lgan erkakka turmushga chiqsa, oilada shu ikkala anomaliyaga ega bo'lgan bolalarning tug'ilish ehtimolini aniqlang.

170. Odamlarda polidaktiliya (oltibarmoqlik - Ortiqbboy, Ortiqoy) va katarakta (ko'z gavharini xiralashishi) automsoma -- dominant tipda irlsiylanadigan, bir - biri bilan zich birikkan holda (ya'ni krossingover kuzatilmaydi) nasldan naslga o'tuvchi genlardir. Ammo ko'rsatilgan anomaliyalar bir - biri bilan, har doim ham birikkan holda nasldan naslga o'tadi deb bo'lmaydi. Katarakta geni, normal barmoqlar bo'lishini yuzaga chiqaruvchi gen bilan yoki aksincha polidaktiliya bilan, ko'z gavharini normal bo'lishini yuzaga chiqaruvchi gen ham xuddi shu belgilarni yuzaga chiqaruvchi gen bilan birikkan holda bo'lishi mumkin. Katarakta belgisini onasidan, polidaktiliyani esa otasidan olgan ayol, ushbu bo'yicha sog'lom bo'lgan erkakka turmushga chiqqan. Ushbu oilada, berilgan belgilar bo'yicha qanday farzandlar tug'ilish mumkinligini aniqlang.

171. Gemofiliya va daltonizm retsessiv belgilar bo'lib, jinsiy X - xromosoma orqali birikkan holda nasldan naslga o'tadi. Ular orasidigi masofa 9,8 morganidaga teng. Otasi gemofilik, onasi daltonik bo'lgan oilada tug'ilgan qiz bilan, ushbu belgilar bo'yicha sog'lom erkak nikohidan tug'ilgan ikki o'g'ilni biri daltonik, qoni normal iviydi, ikkinchisi gemofilik, lekin rangni yaxshi ajratadi.

1. Berilgan hamma organizmlar genotipini aniqlang.
 2. Ushbu oilada, ikkala juft belgi bo'yicha sog'lom o'g'il va sog'lom qizlar tug'ilish ehtimolini aniqlang va ular qancha foizni tashkil etishi mumkinligini belgilang.
172. Quruqlikda yashaydigan shilliqqurt turlaridan biri - *Cepea nemoralis* ni chig'anog'ining rangi bir lokusda joylashgan uchta gen bilan aniqlanadi. Y - jigar rang, y^l - pushti, y - sariq rang. Jigar rangni yuzaga chiqaruvchi gen, pushti va sariq rangga nisbatan, pushti rang esa sariq ranga nisbatan dominantlik qiladi. Rangni belgilaydigan lokuslar bilan ranglarning taqsimlanishini ta'minlovchi genlar zich birikkan holda irlsiyanadi. B - geni, jigar rang, pushti rang va sariq ranglarni bir tekis, ya'nisi teng taqsimlanishini ta'minlaydi. b^l - geni, umumiy fonda, to'q rangli chiziqlari paydo bo'lishiga sababchi bo'ladi. b - geni, bir nechta tor chiziqlar hosil bo'lishiga olib keladi. B - geni, b^l va b - geni ustidan dominantlik qiladi. Jigar rangli va rangi bir tekis taqsimlangan shilliqqurt pushti rang va rangi keng chiziqli shilliqqurtlar to'rt xil varianda chatishirildi. Bir shilliqqo'rtning genotipi YyBb, ikkinchisining genotipi - y y'bb' bo'lgan. Chatishirishning bitta variantida: ikkita jigar rang tekis, bitta pushti rang keng chiziqli va bitta sariq, tor chiziqli olindi. Ikkinchisi variantda: 2 ta jigar rang silliq, bitta pushti rang tor chiziqli va bitta sariq rangli, keng chiziqli avlod olindi. Qolgan ikkiki variantda teng miqdorda bo'lgan to'rttadan fenotip: jigar rang keng chiziqli, jigar rang tor chiziqli, pushti va sariq bir tekis buyalgan xillari olindi. Shu yuqorida ko'rsatilgan 4 xil variantdagagi chatishirishlarda, ota-onalarda genlar qanday tartibda birikkanligini aniqlang.
173. Odamlarda tirnoqlar va tizza qopqog'i daffekti sindromini yuzaga chiqaruvchi gen va ABO tizimi bo'yicha qon guruhini belgilaydigan genlar bitta xromosomada joylashgan, bir-biri bilan birikkan bo'lib, ular orasidagi masofa 10 morganidaga teng Rezus omilni (Rh+, Rh-) yuzaga chiqaruvchi gen hamda elliptositozni (E, Ee) belgilaydigan genlar esa boshqa juft xromosomada joylashgan bo'lib ular orasidagi masofa 3 morganidaga teng. Tirnoqlar daffekti sindromi, elliptositoz va rezus musbatni yuzaga chiqaruvchi genlar dominant belgilar bo'lib hisoblanadi.
- I.Er - xotinlardan biri, tahlil qilinayotgan hamma belgilar bo'yicha, geterozigotali bo'lib, IV - qon guruhiga ega. Uni oldingi avlodlarida krossingover ko'zatilmagan, tirnoqlar va tizza qopqog'i daffekti sindromini otasidan, II - qon guruhini belgilaydigan gen bilan birga olgan. Er - xotinining ikkinchisi esa hamma retsesiv belgilar bo'yicha gomozigotali bo'lib, I - qon guruhiga ega. Ushbu nikohdan tug'ilish ehtimoli bo'lgan farzandlarni fenotipini va % ni aniqlang

2.Er - xotinlardan biri, tirnoqlar daffekti bo'yicha geterozigotali bo'lib, rezus manfiy IV – qon guruhiiga ega, eritositlarini shakli esa normada. Uning otasi, III - qon guruhiiga ega bo'lgan bo'lib, tirnoqlar daffekti bo'yicha sog'lom bo'lgan. Er - xotinlardan ikinchisini esa tirnoqlari normal tuzilishga ega bo'lib, I - qon guruhiiga ega, rezus omil va elliptositoz belgilari bo'yicha geterozigotali bo'lgan. Uni onasi elliptositoz bilan kasallangan bo'lib, qoni rezus musbat bo'lgan. Ushbu oilada tug'ilish ehtimoli bo'lgan farzandlarni fenotipini va % foizini aniqlang.

174. Odamlarda rezus omilni belgilaydigan gen va elliptositozni yuzaga chiqaruvchi genlar bitta xromosomada joylashgan bo'lib, ular orasidagi masofa 3 morganidaga teng. Rezus musbat va elliptositozni yuzaga chiqaruvchi genlar, dominant bo'lib, autosomalar orqali nasldan naslga o'tadi. Gemofiliya va daltonizm kasalligini yuzaga chiqaruvchi genlar esa retsessiv bo'lib, jinsiy X - xromosoma orqali irlsiylanadi, Ular orasidagi masofa 9,8 morganidaga teng.

1.Onasi daltonik, rezus musbat, boshqa belgilari bo'yicha sog'lom, otasi, elliptositoz bilan kasallangan, gemofilik, rezus manfiy, boshqa belgilari bo'yicha soqlom oilada, elliptositoz bilan kasallangan, rezus musbat, qoni normal iviydigan va rangni yaxshi ajrata oladigan qiz dunyoga keldi. Ushbu qiz kelajakda, ham gemofilik, ham daltonik, lekin boshqa belgilari bo'yicha sog'lom, rezus musbat (ushbu belgi bo'yicha gomozigotali) erkakka tur mushga chiqqan. Ushbu oilada tug'ilish ehtimoli bo'lgan farzandlarning fenotipini aniqlang.

2. Rezus musbat, elliptositoz bilan kasallangan, qoni normal iviydigan, rangni yaxshi ajratadigan ayol va rezus musbat, elliptositoz bo'yicha sog'lom, qoni normal iviydigan rangni yaxshi ajratadigan erkak nikohidan, elliptositoz bo'yicha sog'lom, rezus manfiy lekin ham daltonik, ham gemofilik bo'lgan o'g'il farzand tug'ildi. Kelajakda ushbu o'g'il, berilgan hamma belgilari bo'yicha sog'lom va avlodida hech qachon ushbu kasalliklar uchramagan rezus musbat (ushbu belgi bo'yicha gomozigotali) bo'lgan ayolga uylandi. Ota - onasining genotipini, shuningdek kelajak avlodda tug'ilish ehtimoli bo'lgan farzandlarning genotipi va fenotipini aniqlang. \

175. Odamlarda polidaktiliya (oltibarmoqlik - Ortiqboy, Ortiqoy) (PP,Pp) va katarakta (ko'z gavharining hiralashishi)(KK,Kk)- automsoma - dominant tipda irlsiylanadigan, bir- biri bilan zich birikkan holda (ya'ni krossingover ko'zatilmaydi) nasldan naslga o'tuvchi genlardir. Ammo ko'rsatilgan anomaliyalar bir- biri bilan har doim ham birikkan holda, nasldan naslga o'tadi deb bo'lmaydi. Katarakta geni, normal barmoqlar bo'lishini yuzaga chiqaruvchi gen bilan, yoki aksincha polidaktiliya bilan ko'z gavharini

normal bo'lishini yuzaga chiqaruvchi gen birikkan holda ham bo'lishi mumkin. Kelinning otasi olti barmoqli bo'lib katarakta bo'yicha sog'lom, kuyovning esa otasi normal besh barmoqli bo'lib, onasi katarakta bilan kasallangan, ularning o'zi esa ushbu berilgan ikki juft belgi bo'yicha geterozigotali. Ushbu nikohdan qanday genotip va fenotipga ega bo'lgan farzandlar tug'ilishi mumkinligini aniqlang ?

176. Odamlarda polidaktiliya (oltibarmoqlik - Ortiqboy, Ortiqoy) (PP,Pp) va katarakta (ko'z gavharini hiralashishi) (KK,Kk) - automsoma - dominant tipda irsiylanadigan, bir- biri bilan zich birikkan holda (ya'ni krossingover ko'zatilmaydi) nasldan naslga o'tuvchi genlardir. Gemofiliya va daltonizm kasalligini yuzaga chiqaruvchi genlar esa retsessiv bo'lib, jinsiy X - xromosoma orqali irsiylanadi, ular orasidagi masofa esa 9,8 morganidaga teng. Ham katarakta, ham polidaktiliya belgisiga ega bo'lgan, qoni normal iviydigan, ranglarni yaxshi ajrata oladigan erkak va ushbu belgilar bo'yicha sog'lom ayol nikohidan, olti barmoqli, katarakta belgisiga ega, ranglarni yaxshi ajratadigan, qoni normal iviydigan qiz dunyoga keldi. Shu qiz kelajakda ushbu berilgan belgilar bo'yicha normal bo'lgan erkakka turmushga chiqib, birinchi ko'rgan o'g'il farzandi, ushbu berilgan hamma belgilarga ega bo'lgan holda tug'ildi. Ushbu nikohdan tug'ilishi ehtimoli bo'lgan boshqa farzandlarning ham genotipi va fenotipini, hamda foiz miqdorini aniqlang.

177. Rezus musbat dominat, rezus manfiy retsessiv belgilar bo'lib, autosomalor orqali nasldan naslga o'tadi. Gemofiliya va daltonizm kasalligini yuzaga chiqaruvchi genlar esa retsessiv bo'lib, jinsiy X - xromosoma orqali irsiylanadi. Ular orasidagi masofa esa 9,8 morganidaga teng. Otasi ham daltonik, ham gemofilik bo'lgan oilada tug'ilgan, ushbu belgilar bo'yicha sog'lom, rezus musbat bo'lgan ayol va ushbu berilgan hamma belgilar bo'yicha sog'lom, rezus musbat erkak nikohidan, rezus manfiy, ham daltonik, ham gemofilik bo'lgan o'g'il farzand tug'ildi. Ushbu oilada tug'ilish ehtimoli bo'lgan, boshqa farzandlarning genotip va fenotipini foiz miqdorini aniqlang ?

178. Odamlarda gemofiliya va daltonizm kasalliklarini yuzaga chiqaruvchi belgilar retsessiv bo'lib, jinsiy X - xromosoma orqali birikkan holda irsiylanadi. Ular orasidagi masofa 9,8 morganidaga teng. Odamning qo'loq suprasining zirak taqadigan joyini erkin osilib turishi, qo'shilib ketganligiga nisbatan dominantlik qiladi. Otasi, ham daltonik, ham gemofilik, qo'loq suprasi qo'shilib ketgan oilada, ushbu belgilar bo'yicha sog'lom, qo'loq suprasi esa osilib turadigan qiz dunyoga keldi. Kelajakda shu qiz, qo'loq suprasi qo'shilib ketgan, rangni yaxshi ajratadigan, qoni

normal iviydigan erkakka turmushga chiqdi. Ularning nikohidan, ham daltonik, ham gemofilik, qo'loq suprasi qo'shilib ketgan o'g'il farzand tug'ildi. Ushbu oilada yana tug'ilishi ehtimoli bo'lgan farzandlarning fenotip va genotip bo'yicha (%) foizini aniqlang?

179. Odamlarda gemofiliya va daltonizm kasalliklarini yuzaga chiqaruvchi belgilar retsessiv bo'lib, jinsiy X - xromosoma orqali birikkan holda irsiylanadi. Ular orasidagi masofa 9,8 morganidaga teng. Yanoqlarida chuqurchaning borligi, bo'lmasligiga nisbatan dominantlik qiladi. Daltonik, qoni normal iviydigan, yanoqlarida chuqurchasi yo'q bo'lgan erkak bilan, rangni yaxshi ajratadigan, yanoqlarida chuqurchasi bor bo'lgan ayol nikohidan, ham daltonik, ham gemosilik, yanoqlarida chuqurchasi bo'lмаган o'g'il tug'ildi. Ushbu nikohdan yana qanday fenotip va genotipli farzandlar tug'ilishi mumkinligini va ularning (%) foizini ishlab chiqing.

180. Drozofila pashshasi tanasining rangi va qanotining uzunligi birikkan holda nasldan naslga o'tadi. Tanasining qora rangliligi kul rangliligiga, kalta qanotilik uzun qanotilikka nisbatan retsessiv. Laboratoriyada kul rang uzun qanotli, ikkala belgi bo'yicha geterozigotali bo'lgan urqochi drozofila pashshasi qora tanli, kalta qanotli erkak pashsha bilan chatishirildi. Avlodda kulrang uzun qanotli organizmlar - 1394 ta, qora kalta qanotlilar - 1418 ta, qora uzun qanotlilar - 287 ta, kul rang kalta qanotlilar - 288 ta bo'ldi. Rang va qanotlar uzunligini yuzaga chiqaruvchi genlar orasidagi masofani aniqlang.

181. Odamlarda rezus omilni yuzaga chiqaruvchi gen, eritrositlarning shaklini yuzaga chiqaruvchi gen bilan birikkan holda irsiylanadi va ular orasidagi masofa 3 morganidaga teng. Rezus musbat va elliptositoz autosoma - dominant tipda nasldan naslga o'tadi. Er xotinlardan biri ikkala belgi bo'yicha geterozigotali bo'lib, rezus musbat belgisini otasidan elliptositozni onasidan olgan. Er - xotinlarning ikkinchisi rezus manfiy va normal eritrositlarga ega. Bu oilada tug'ilish ehtimoli bo'lgan farzandlarni aniqlang.

182. Odamlarda gemofiliya va rang ajrata olmaslik genlari, jinsiy X - xromosomada, bir - biridan 9,8 morganida masofada joylashgan. Ikkala belgi ham retsessivdir. Tirnoqlar va tizza qopqog'i kamchilligini yuzaga chiqaruvchi genlar dominant genlar bo'lib autosomada joylashgan. Shu genlardan 10 morganida masofada qon gruppalarini ABO sistemasini bo'yicha aniqlovchi gen bor.

a) IV qon guruhiga ega bo'lgan va boshqa belgilar bilan geterozigotali bo'lgan ayol I - qon guruhiga ega va qolgan belgilari bo'yicha normal bo'lgan gomozigotali erkakka turmushga chiqqan. Agar ayolning otasi ham gemofilik, ham rang ajrata olmaydigan bo'lib, II - qon guruhiga ega va

tirnoqlar tuzilishi bo'zilgan bo'lsa, ushbu oilada tahlil qilinayotgan kasalliklar va ularning qon guruhlari bo'yicha qanday bolalar tug'ilishi mumkin.

b)II - qon guruhiga ega, boshqa tahlil qilinayotgan belgilari bo'yicha geterozigotli bo'lgan ayol, III - qon guruhiga ega, rang ajrata olmaydigan va boshqa belgilarga ko'ra normal erkakka turmushga chiqqan. Er-xotining onalari, I - qon guruhiga ega va ular faqat rangni ajrata olmaydilar. Shu oilada, tahlil qilinayotgan kasalliklar va ularnnng qon guruhlari bo'yicha qanday bolalar tug'ilish ehtimolini aniqlang.

GENETIK HARITA

183. *Drosophila melanogaster* - drozofila pashshasida to'rtta birikkan gurux mavjud. Shulardan I I - xromosomasida joylashgan genlar guruhini olsak, ular qo'yidagi belgilarni yuzaga chiqishiga javobgardir.

ap - vizilagichining rivojlanishiga;
al - muylovlarida tuklarning rivojlanishiga;
d - oyog'idagi bo'g'imlarining soniga;
dp - ko'krak yuzasining relefiga;
pys - qanonida qo'shimcha tomirlarning rivojlanishiga;
sm - qorin qismida tuklarning rivojlanishiga;
sp - ko'krak qismining yon tomonidagi tuklarning soniga;
qo'yida drozofila pashshasini I I - xromosomasida joylashgan genlar orasida sodir bo'ladigan krossingoverning % berilgan.
dp - 9 % - sp, dp - 13 % - al, dp - 18 % - d, sp - 4 % - al, sp - 9 % - d, sp - 30 % - pys, pys - 21 % - d, pys - 3.4 % - ap, pys - 9.5 % - sm, ap - 24.4 % - d

Ushbu ko'rsatilgan ma'lumotlardan foydalangan holda xromosoma xaritasini tuzib chiqing, genlarning joylashgan lokusini aniqlang.

184. Odamning jinsiy X-xromosomasining 2 ta uchastkasida joylashgan genlar haqida quyidagi ma'lumotlar keltirildi. Xromosomaning bir uchastkasida quyidagi genlar birikkan holda irlsiyanadi: qon zardobi geni (Xm). Rang ajrata olmaslikning ikkita: deyteranopsiya (d) va protanopsiya (r), gemofiliya (h) va glyukoza-6-fosfatdegidrogenaza yetishmasligi geni (G). Xromosomaning boshqa uchastkasida quyidagi genlar birikkan holda irlsiyanadi: qon guruhining yuzaga chiqaruvchi genlar (Xg), ko'z albinizmi (a), ixtioz (i) va angiookeratoma (ac). X-xromosomaning birinchi uchastkasi uchun

quyidagilar ma'lum: Xm-geni d-geni bilan 7 %, G-geni bilan 11 % va p-geni bilan 16 % krossingoverli gametalarni beradi. G-geni d-geni bilan 4 %, p-geni bilan 5 %, h-geni bilan 8 % krossingoverli gametalarni beradi. h-geni d-geni bilan 12 % krossingoverli gametalarni beradi. X-xromosomani II-uchastkasida Xg va as 28 %, Xg va i - 11 %, Xg va a - 18%, a va as - 10%, I va a esa 7 % krossingoverli gametalarni hosil qiladi. X-xromosomani ikkala uchastkasining genetik xaritasini tuzib chiqing.

185. Drosophila melanogaster - drozofila pashshasida to'rtta birikkan gurux mavjud. Shulardan jinsiy X - xromosomada quyidagi belgilarning yuzaga chiqishiga javobgar bo'lgan genlar joylashgan ekan.

b - tukchalarining uzunligini;

cb - qanotlarining shaklini;

cv - qanotlarida ko'ndiang tomirlarining rivojlanishini;

dy - qanotlarining rangini;

ec - ko'z katakchalarining o'lchamini;

hw - qanotlarida qo'shimicha tuklarining rivojlnishini;

oc - oddiy ko'zlarning rivojlanishini;

s - tanasining qanday rangda bo'lishini;

sn - tanasidan o'sib chiqqan tukchalarining shaklini

Ko'p sonly tajribalar o'tqazilishi natijasida drozofila pashhasi jinsiy X - xromosomasida sodir bo'ladigan krossingover %' quyidagicha ekanligi ma'lum bo'ldi: cv geni ec geni bilan 8,2% krossingover beradi. Uni cv - 8,2 % - ec ko'rinishida yozsak, qolgan ko'rsatkichlar quyidagicha:

cv - 13,7 % - hw, cv - 2,3 % - cb, cv - 7,3 % - sn, hw - 5,5 % - ec, hw - 16 % - cb, cb - 5 % - sn, cb - 7,1 % - oc, sn - 2,1 % - oc, sn - 15,2 % - dy, sn - 22,2 % - s, b - 23 % - s, b - 29,8 % - dy, b - 42,9 % - oc

Ushbu ko'rsatilgan ma'lumotlardan foydalangan holdajinsiy X - xromosoma xaritasini tuzib chiqing, genlarning joylashgan lokusini aniqlang.

ALLEL BO'L MAGAN GENLARNING O'ZARO TA'B SIRI.

Odatda har bir gen mustaqil ravishda bitta belgini yuzaga chiqaradi. Mendel kashf etgan irsiyat qonunlari aynan mana shu holatlarni, ya'ni organizmning har qaysi belgisi faqat bir gen ta'sirida irsiylanishiga oid holatlarni o'zida aks ettiradi. Lekin Mendeldan keyinigi davrdagi genetic tahlil sohasidagi tadqiqotlar rivoji tusayli, organizmdagi aksariyat belgilarning irsiylanishi bittagina genga emas, balki bir necha allel bo'l magan genlar faoliyatiga bog'liq ekanligi isbotlandi. Belgilarning bir necha just allel bo'l magan genlarning o'zaro ta'sir etib irsiylanishini quyidagi xillari yaxshi o'r ganilgan:

1. Genlarning epistatik ta'siri (epistaz);
2. Genlarning komplementar ta'siri (komplementariya);
3. Genlarning polimer ta'siri (polimeriya).

Epistaz - bir allel gen(I - i)ning allel bo'l magan ikkinchi gen(S - s)ga nisbatan dominantlik qilishi. Epistazda bir allel gen unga allel bo'l magan ikkinchi gendan ustun keladi. Epistaz dominant yoki retsessiv bo'lishi mumkin. Agar dominant gen ustun bo'lsa, dominant epistaz, retsessiv gen ustun bo'lsa, retsessiv epistaz deyiladi. Belgini yuzaga chiqishiga to'sqinlik qiladigan gen, gen-suppressor yoki gen-ingibitor deb ham nomlanadi. Genlarning epistatik ta'sirini o'r ganishda diduragaylash sxemasidan foydalilanadi. Dominant epistazda belgilarni ikkinchi avlodda 13 : 3 yoki 12 : 3 : 1 nisbatda ajraladi. Retsessiv epistazda esa 9 : 3 : 4 nisbatda ajraladi.

Komplementarlik - bir organizmda mavjud bo'lgan ikkita allel bo'l magan genlar alohida kelganda har xil belgini, birga kelganda esa boshqa bir belgini yuzaga chiqarishi. Komplementarlikda ikki va undan ortiq allel bo'l magan genlarning o'zaro ta'siri natijasida organizmda yangi, ota-onada yo'q belgilarning rivojlanishi ta'minlanadi. Ikkinchi avlodda belgilarni komplementar ta'sirini natijasida 9 : 3 : 3 : 1, 9 : 7, 9 : 6 : 1 nisbatlarda ajralishi mumkin.

Polimeriya - bir belgining bir nechta allel bo'l magan genlar ta'sirida yuzaga chiqishi. Polimeriya orqali irsiylanish qonuniyatlarini urganishning ahamiyati juda katta. Ko'pgina belgilarni polimer genlar(poligenlar) ta'sirida irsiyanadi va rivojlanadi. Organizmda allel bo'l magan dominant genlar miqdori qancha ko'p bo'lsa, belgi shuncha kuchliroq namoyon bo'ladi. Masalan: Organizmda 4 ta dominant gen bo'lsa, belgi o'ta rivojlangan, 3 ta dominant gen bo'lsa o'rtacha, 2 ta dominant gen bo'lsa kam, 1 ta dominant gen bo'lsa o'ta kam darajada rivojlangan, dominant gen bo'lmasa shu belgi

rivojlanmagan bo'ladi. Diduragay chatishtirishda, genlarning polimeriya ta'siri natijasida ikkinchi avlodda ajralish 15:1, 1:4:6:4:1 nisbatlarda ro'y beradi.

186. Tovuqlar pati rangining oq bo'lishi ikki just allel bo'lmagai va birikmagan genlar bilan ifodalanadi. Birinchn just allelning dominant geni patning rangli bo'lishini, uniig retsessiv alleli esa oq bo'lishini belgilaydi. Ikkinchi just dominant gen, patning rangli bo'lishiga to'sqinlik qiladi, uning retsessiv alleli esa rangli bo'lishiga monelik qilmaydi. a) Oq patli tovuq va xo'roz chatishtirnlganda 1680 jo'ja olingen. Ulardan 315 tasi rangli, qolganlari oq. Tovuq, xo'roz va rangli jo'jalarning genotipini aniqlang.

b) Tovuq fermasida oq va rangli tovuqlar chatishtirilganda 5044 oq, 3033 rangli jo'jalar olindi. Tovuq, xo'roz va jo'jalarning genotipini aniqlang.

v) Oq tovuq rangli xo'roz bilan chatishtirilganda 915 ta rangli, 916 ta oq jo'jalar olingen. Barchasining genotiplarini aniqlang.

187. Sichqonlarning rangi ikki just allel bo'lмаган va birikmagan genlar bilan ifodalanadi. Birinchi justning dominant geni - kul rangli, retsessiv geni esa qorarangli bo'lishini; ikkinchi justning dominant geni rangning hosil bo'lishiga yordam qiladi, uning retsessiv alleli esa rang hosil bo'lishiga to'sqinlik qiladi.

a) Kul rang sichqonlar o'zaro chatishtirilganda 82 kul rang, 35 oq va 27 qora rangli avlodlar paydo bo'lgan. Barcha rangdagi sichqonlar genotipini aniqlang.

b) Kulrang sichqonlar o'zaro chatishtirilganda 58 ta kul rang va 19 ta qora avlodlar paydo bo'lgan. Barcha rangdagi sichqonlar genotipini aniqlang.

188. Otasining qoni I - guruh, onasiniki III - guruh bo'lgan oilada I qon guruhiga ega bo'lgan qiz tug'ilgan. Shu qiz II - qon guruhiga ega bo'lgan erkakka turmushga chiqqan va ularning ikkita qizi bo'lgan: bittasi - IV, ikkinchisi - I guruhli. Uchinchi avlodda IV - qon guruhiga ega bo'lgan qizaloqning I - qon guruhli onadan tug'ilishi taajjublanarli hol bo'ldi. Birinchi marta shunday holat Hindistonning Bombey shaxrida kuzatilgani uchun, bu holatga Bombey fenomeni deyiladi. Ammo ilmiy adabiyotlarda, shunga o'xshash holatlar haqida bir qancha ma'lumotlar berilgan. Ayrim olimlarning fikricha bu hodisa kamidan - kam uchraydgan retsessiv epistatik gennnnng A va B guruhlarni yuzaga chiqarishga to'sqinlk qilish xususiyati bilan ifodalanadi.

Shu nazariyani hisobga olgan holda:

a) Ushbu Bombey fenomenida keltirilgan uchchala avlodning genotipini aniqlang;

b) Yuqoridagi oilaning avlodidagi birinchi qiz o'ziga o'xshagan genotipga ega bo'lgan erkakka turmushga chiqsa, I - qon gruppasiiga ega bo'lgan bolalar tug'ilish chtimolini aniqlang.

189. Koker - spaniel zotli qora itlar chatishtirilganda to'rt xil tusdagi duragaylar olinadi: 9 ta qora, 3 ta malla, 3 ta qo'ng'ir va 1 ta och sariq. Qora Koker - spanielni och sariq it bilan chatishtirilib olingan kuchuklar orasida och sariq kuchukcha ham bor edi. Qora spaniel it xuddi shundap genotipdagi it bilan chatishtirilganda, tusiga ko'ra, qanday kuchukchalar tug'ilishi mumkinligini aniqlang ?

190. Odamning bo'yи bir necha just birikmagan, polimer genlar nazoratida bo'ladi. Agar muhit ta'sirini istesno qilib, shartli ravishda, odam bo'yini o'lchami qancha bo'lishi uch just genning ta'sirida yozaga chiqishi hisobga olinsa, bir populyatsiyadagi eng past bo'yili odamlarda faqat retsessiv genlar bo'lib, ularni bo'yи 150 sm, eng uzun buyli odamlarda esa barcha dominant genlar bo'lib, bo'yalarini uzunligi 180 sm bo'lsin.

a) Bo'yini nazorat qiluvchi uch just gen bo'yicha geterozigota odamlarning bo'yini aniqlang; b) Bo'yи past ayol o'rita bo'yili erkakka turmushga chiqqan. Ularning 165, 160, 155, 150 sm. bo'yga ega bo'lgan 4 farzandi bor. Ota - ona va ularning farzandlarining genotiplarini aniqlang ?

191. Bashoqdoshlar oilasiga kiruvchi o'simlik turlarini birida doninig rangi ikki just allel bo'lмаган genlar orqali yuzaga keladi. Dominant genlardan biri qora rangni yuzaga chiqaradi, ikkinchisi esa kul rangni yuzaga chiqaradi. Qora rang, kul rangni yuzaga chiqishi ga yo'l qo'ymay, uni bo'g'ib qo'yadi. Ikkala justning retsessiv allellari oq rangni yuzaga chiqishini ta'minlaydi.

1. Qora donli o'simliklarning o'zaro chatishtirish natijasida, avlodida 12 ta qora rangli, 3 ta kul rangli va bitta oq rangli donga ega bo'lgan o'simliklar olindi. Chatishtirish uchun olingan ota - ona genotipini hamda olingan avlodning genotipini aniqlang.

2. Oq donli o'simliklar bilan, qora donli o'simliklar chatishtirilishi natijasida olingan avlodning yarmisi qora, yarmisi kul rang bo'lib chiqdi. Chatishtirish uchun olingan va hosil bo'lgan avlodning genotipini aniqlang.

192. Cariq mevali qovoq bilan oq mevali qovoqlarni o'zaro chatishtirish natijasida birinchi avlodda hammasi oq mevali qovoqlar olindi. Birinchi avlodda olingan duragaylar o'zaro chatishtirilganda keyingi avlodda 216 ta oq mevali, 55 ta sariq mevali hamda 18 ta yashil mevali qovoqlar olindi. Ota - onasining va olingan avlodning genotipini aniqlang.

193. Yovvoyi aguti(Δ a) tusi uchun, har bir junida sariq pigmentli halqani bo'lishi xos. Uning yuzaga chiqishi "A" geniga bog'liq bo'lib, uni

retsessiv alleli "a" esa junlarda sariq halqa bo'lmasligiga olib keladi. Shuning uchun "aa" genotipli sichqonlar qora junli bo'ladi. Aa – genotipli sichqonlarning junini rangi esa yovvoyi aguti tusiga xos bo'ladi. Sichqonlarning junini rangi qanday bo'lishiga yana boshqa juft xromosomada joylashgan boshqa bir juft genlar ham qatnashadi. Uning dominant alleli "B" rangni yuzaga chiqishiga ta'sir ko'rsatmaydi, retsessiv alleli "b" esa, gomozigota(bb) holatda kelganda "A" va "a" genlarga har xil ta'sir ko'rsatadi. Dominant gen "A" bilan birga kelganda, ularning junini rangi jigarrang bo'lishiga olib keladi. Agar resessiv gen "a" bilan gomozigota holda (aabb) kelsa, yangi "shokolod" rangli junga ega bo'lgan sichqonlarning paydo bo'lishisha olib keladi. Sichqonlarni yana boshqa bir juft xromosomasida, ular junining rangiga ta'sir ko'rsatuvchi, yana bir juft gen bo'lib, uning dominant alleli "C" ranglarga umuman ta'sir ko'rsatmaydi, retsessiv alleli "c" esa, gomozigota (cc) holatda kelganda, ranglarni yuzaga chiqishiga yo'l qo'ymay, ularni bo'g'ib qo'yadi. Ushbu uch just belgi bo'yicha geterozigotali sichqonlarni chatishtirish natijasida qanday genotip va fenotipga ega bo'lgan avlodni olish mumkinligini aniqlang.

194. Odamlarda irsiy yaqindan ko'rish(miopiya) kasalligini bir qancha turlari bo'lib, shulardan - 2,0 dan - 4,0 gacha bo'lgan o'rtamiyona hamda -5,0 dan yuqori bo'lgan turlari autosoma - dominant tipda irsiylanadi. Ushbu belgilarni yuzaga chiqaruvchi genlar har xil xromosomada joylashgan bulib, bir - biri bilan birikmagan holda nasldan naslga o'tadi. Onasi yaqindan ko'radigan, otasi normal ko'rish qobiliyatiga ega bo'lgan oilada ikki farzand: ug'il va qiz bola tuo'ildi. Qizida yaqindan ko'rishning o'rtamiyona turi, o'g'lda yuqori bo'lgan turi namoyon bo'ldi. Shu oilada yuqorida ko'rsatilgan belgilarni bo'yicha sog'lom farzand tug'ilish ehtimolini aniqlang, agar ayolning ota - onasidan faqat bittasi yaqindan ko'rish kasalligiga mubtalo bo'lib ikkinchisi sog'lom bo'lsa. Shuni esda tutish kerakki, agar odamlarda shu belgilarni ning ikkalasi uchrasa, unda faqat yaqindan ko'rishning yuqori bo'lgan xili namoyon bo'ladi.

195. Piyoz piyozboshini qizil rangda bo'lishini dominant gen, sariq rangda bo'lishini uning retsessiv alleli belgilaydi. Ammo rangni yuzaga chiqaruvchi gen ishini, boshqa, u bilan birikmagan dominant gen belgilaydi. Uning retsessiv alleli rangni bo'g'ib qo'yadi, natijada piyozboshi oq bo'lib qoladi. Piyozboshi qizil rangda bo'lgan o'simlik sariq piyozboshli o'simlik bilan chatishtirildi va natijada qizil, sariq va oq rangli piyozboshga ega o'simliklar olindi. Ota - ona organizmlar va avlod genotipini aniqlang.

196. Sichqonlar yungining rangi ikki juft allel bo'lmasligi, bir - biri bilan birikmagan genlar orqali yuzaga chiqadi. Bir juftning dominant geni kul

rangni, uning retsessiv alleli qora rangni yuzaga chiqaradi. Boshqa juftning dominant geni rangni yuzaga chiqishini ta'minlaydi, uning retsessiv alleli esa rangni bo'g'ib qo'yadi ya'ni ingibratorlik qiladi.

1. Kulrang sichqonlarni o'zaro chatishtirish natijasida 64 ta kulrang, 28 ta oq rangli va 21 ta qora rangli sichqonlar olindi. Ota-onasi va olingan avlodning genotipini aniqlang.

2. Kulrang sichqonlarni o'zaro chatishtirish natijasida 42 ta kul rang va 14 ta qora rangli sichqonlar olindi. Ota-onasi va olingan avlodning genotipini aniqlang.

3. Kul rang va oq rangli sichqonlarni chatishtirish natijasida 31 ta kul rang, 14 ta qora rang va 15 ta oq rangli sichqonlar olindi. Ota-onasi va olingan avlodning genotipini aniqlang.

197. XX asrning 60-yillarida Hindistonning Bombey shahrida yashovchi aholi orasida, ma'lum bir oilalarda, qon guruhini irsiyanishi tekshirilganda, genetika qonunlardan chekkaga chiqish holatlari ko'zatilgan. Masalan IV qon guruhiga ega bo'lgan er-xotin nikohidan, I-qon guruhiga ega bo'lgan farzandlar yoki I-qon guruhiga ega bo'lgan ayollar, IV-qon guruhiga ega bo'lgan farzandlar ko'rishgan. Ushbu holat Bombey shahrida ko'zatilgani uchun unga "Bombey fenomini" degan nomni berishgan. Genetik olimlarning fikri bo'yicha bunga, odamlarda kamdan-kam holatlarda uchraydigan retsessiv epistatik gen sababchi bo'lar ekan. Ushbu retsessiv gen gomozigota holda keladigan bo'lsa, qon guruhini belgilaydigan aglyutinogen "A" va "B" larni bo'g'ib qo'yib, yuzaga chiqishiga yo'l qo'ymas ekan. Ushbu nazariyaga binoan:

1. IV-qon guruhiga ega bo'lgan ayol va IV-qon guruhiga ega bo'lgan erkak nikohidan I-qon guruhiga ega bo'lgan farzand tug'ildi. Berilgan hamma organizmlarning genotipini aniqlang.

2. I-qon guruhiga ega bo'lgan ayol bilan, IV-qon guruhiga ega bo'lgan erkak nikohidan I-qon guruhiga ega bo'lgan farzand tug'ildi. Ota-onasi va farzandining genotipini aniqlang.

198. Hushbuy hidli no'xatni gullarining rangi qizil va oq rangli bo'ladi. Gullarining rangi oq rangli bo'lgan o'simliklar o'zaro chatishtirilganda, birinchi avlod duragaylarining hammasi qizil rangli bo'lib chiqdi. Birinchi avlod duragaylari o'zaro chatishtirilganda, keyingi avlodda qizil va oq rangli gulga ega bo'lgan o'simliklar 9 : 7 nisbatda hosil bo'ldi. Ota-onasining hamda birinchi va ikkinchi avlod duragaylarining genotipini aniqlang, genlarga xarakteristika bering.

199. Tovuq - xo'rozlar tojining shakli bargsimon, no'xatsimon, gulsimon va yong'oqsimon bo'ladi. Gulsimon tojli xo'roz va no'xatsimon tojli tovuq

chatishtirilishi natijasida birinchi avlodning hammasi yong'oqsimon tojli bo'lib chiqdi. Birinchi avlod duragaylari o'zaro chatishtirilganda keyingi avlodda hamma belgilarga ega bo'lgan: bargsimon, no'xatsimon, gulsimon va yong'oqsimon tojli tovuq - xo'rozlar olindi. Ota - ona organizmlar, birinchi va ikkinchi avlod durgaylarining genotipini aniqlang.

200. "Bir - biridan ajralmas to'tiqushlar" deb nomlanadigan to'tiqush turining patlari rangi ikki juft allel bo'Imagan, bir - biri bilan birikmagan holda irsiylanadigan genlar orqali yuzaga chiqadi. Ikkala justni dominant genlari birgalikda yashil rangni, bir justni dominant geni bilan ikkinchi justni retsessiv genini birgalikda bo'lishi sariq yoki havo rangni, retsessiv allellari esa oq rangni yuzaga chiqaradi.

1. Yashil rangli to'tiqushlarni bir necha yillar davomida o'zaro chatishtirilishi natijasida: 64 ta yashil, 21 ta sariq, 22 ta havo rangli va 7 ta oq rangli to'tiqushlar olindi. Ota - ona va olingan avlodlarning genotiplarini aniqlang.

2. To'tiqushlarni oq rangilari nisbatan kamroq uchragani uchun, havaskorlar orasida ushbu rangning ishqibozlari ko'proq bo'ladi. Oq rangli to'tiqushlarga zaruriyat to'g'ilib, zoofermaga buyurtma berildi. Lekin ushbu vaqtida zoofermada sariq, yashil va qavo rangli to'tiqushlar bo'lib, oq rangilari yo'q edi. Fermada bor bo'lgan to'tiqushlarni har qanday kombinasiyada chatishtirilmasin, oq rangililarini olib bo'lmasdi. Ushbu holatning sababini tushuntirib bering.

201. Qovoqda mevasining shakllari: yumaloq(sharsimon), gardishsimon va uzunchoq bo'ladi.

1. Yumaloq shaklli qovoqlar o'zaro chatishtirilganda birinchi avlod durgaylarining hammasi gardishsimon bo'lib chiqdi. Olingan birinchi avlod - gardishsimonlar o'zaro chatishtirilganda esa, 9 ta gardishsimon, 6 ta yumaloq va 1 ta uzunchoq mevali qovoqlar olindi. Birinchi, ikkinchi avlod va ota - onalarining genotipini aniqlang.

2. Gardishsimon shaklli qovoq bilan uzunchoq shaklli qovoqlarni chatishtirish natijasida. 1 : 2 : 1 nisbatda, gardishsimon, yumaloq va uzunchoq shaklli qovoqlar olindi. Chatishtirish uchun olingan va hosil bo'lgan organizmlarning genotipini aniqlang

202. Quyonlar qo'log'ining uzunligi ikki juft bir - biri bilan birikmagan genlar orqali nazorat qilinadi. Qo'log'ining uzunligi 30 sm(hamma genlari dominant) bo'lgan quyonlar bilan, qo'log'ining uzunligi 10sm(hamma retsessiv genlar) bo'lgan quyonlar chatishtirilib olingan birinchi avlod quyonlari yana o'zaro chatishtirilib, quyonlarning ikkinchi avlod quyonlari yana o'zaro chatishtirilib, quyonlarning ikkinchi avlod olingan. Birinchi avlodda olingan quyonlar qo'log'ining uzunligini hamda ikkinchi avlodda

olinishi mumkin bo'lgan quyonlar qo'log'ining uzunligini aniqlang.

203. Yovvoyi aguti(Aa) tusi uchun, har bir junida sariq pigmentli halqaning bo'lishi xos. Uni yuzaga chiqishi "A" geniga bog'liq bo'lib, uning retsessiv alleli "a" esa junlarda sariq halqa bo'lmasligiga olib keladi. Shuning uchun "aa"-genotipli sichqonlar qora junli bo'ladi. Aa - genotipli sichqonlar junining rangi esa yovvoyi aguti tusiga xos bo'ladi.

Sichqonlar junining rangi qanday bo'lishiga yana boshqa juft xromosomada joylashgan boshqa bir juft genlar ham qatnashadi. Uning dominant alleli "B" rangni yuzaga chiqishiga ta'sir ko'rsatmaydi, retsessiv alleli "b" esa, gomozigota(bb) holatda kelganda "A" va "a" genlarga har xil ta'sir ko'rsatadi. Dominant gen "A" bilan birga kelganda, ular junining rangi jigarrang bo'lishiga olib keladi. Agar resessiv gen "a" bilan gomozigota holda(aabb) kelsa, yangi "shokolod" rangli junga ega bo'lgan sichqonlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Aguti tusiga ega sichqonlarni o'zaro chatishtirish natijasida: aguti tusiga ega, jigar rang, qora va shokolod rangli junga ega bo'lgan sichqenlar olindi. Ota - ona va olingan avlodlarning fenotip va genotipini aniqlang.

204. Tovuq - xo'roz zotlaridan birida patining rangi, ikki juft allel bo'limgan va har xil xromosomalarda joylashgan genlar orqali yuzaga chiqadi. Bir juftning dominant geni rangni yuzaga chiqishiga olib keladi, uni retsessiv alleli esa oq rangni yuzaga chiqaradi. Boshqa juftning dominant geni esa rangni yuzaga chiqishiga yo'l qo'yaydi, ya'ni bo'g'ib qo'yadi, uni retsessiv alleli esa rangni bo'g'maydi.

1. Oq rangli tovuq va xo'rozlarni chatishtirish natijasida olingan 1616 ta jo'jalardan 303 tasi rangli, qolganlari oq bo'lib chiqdi. Ota - onasi va olingan avlodning genotipini aniqlang.

2. Oq tovuqlar va rangli xo'rozlarni chatishtirish natijasida 615 ta rangli va 616 ta oq jo'jalar olindi. Ota - onasi va olingan avlodning genotipini aniqlang.

3. Rangli tovuq va xurozlarni chatishtirish natijasida olingan 124 ta jo'jalardan 93 tasi rangli, qolganlari oq bo'lib chiqdi. Ota - onasi va olingan avlodning qenotipini aniqlang.

III - BO'LIM.

ANTROPOGENETIKA. GENEOLOGIK USUL

(AVLODLAR SHAJARASINI TUZISH.)

Odamda ayrim belgilarinig nasldan - naslga o'tishini o'rganishda shajara tuzish va uning tahlili (genealogik metod) odam genetikasini o'rganishning asosiy metodlaridan biri hisoblanadi. Bu usul yordamida belgining irsiyligi, jinsga bog'liqligi, irsiylik xarakteri, oila a'zolari va Ularning gepotipi, belgining chastotasi va keyingi avlodlarda namoyon bo'lish ehtimoli o'rganiladi. Geneologik usul yordamida odam irsiyatini o'rganish ikki bosqichda olib boriladi. Birinchi bosqichda proband(shifokarga murojaat qilgan va uni asosida shajara tuziladigan odam) ni avlodlari haqida ma'lumotlar to'planadi. Ikkinci bosqichda maxsus qabul qilingan belgilardan foydalangan holda, shajara tuziladi va uni tahlil qilinadi. Shajarani tahlil qilish quyidagilarni aniqlashga imkon beradi:

1. O'rganilayotgan belgining irsiy yoki irsiy emasligini;
2. Irsiy belgining nasldan naslga o'tish xarakterini; ya'ni tahlil qilinayotgan belgi:
 - a) dominant belgimi, retsessiv belgimi ?
 - b) automoma orqali irsiylanayaptimi, jinsiy xromosoma orqali irsiylanayaptimi ?
 - c) gennig penentrantligini, ekspressivligini ?
 - d) belgiga ega bo'lgan shaxs, ushbu belgi bo'yicha gomozigotalimi, geterozigotalimi ? Shajara tuzilib, tahlil qilib bo'lingandan keyin, ma'lum bir ma'lumotlarni bersa bo'ladi.

205. Probandda polidaktiliya belgisi bor. Bu belgi otasida bor, onasida yo'q. Probandning ikkita amakisi bo'lib ulardan biri oltibarmoqli, ikkinchisi besh barmoqli. Shuningdek ikkita ammasidan birida polidaktiliya bo'lib, ikkinchisida yoq. Olti barmoqli amakisi ikki marta o'ylangan bo'lib, ikkala xotinining barmoqlari normada. Birinchi nikohidan olti barmohli hizi,

ikkinchi nikohidan 6 ta farzandi bo'lib, 2 ta qizi va bir o'g'li olti barmoqli, ikki o'g'li va bir qizi besh barmoqli. Normal barmoqli ammasi normal barmoqli erkakka turmushga chiqqan bo'lib, ularni 6 ta farzandidan: 3 ta qizi va 3 ta o'g'illarining hammasida barmoqlari soni normada. Probandning ota avlodidan buvasi jiti barmoqli, buvisi besh barmoqli. Agar proband, ushbu belgi bo'yicha normal bo'lgan ya'ni besh barmoqli ayolga o'ylangs, ularning oilasida handay farzandlar tug'ilishi mumkinligini aniqlang.

206. A. S. Pushkinniga oilasi haqida A. G. Galachyan quyidagi ma'lumotlarni keltiradi. Shoirning otasi Sergey Lvovich Pushkin o'zinnng uchinchi avlod jiyani, Gannibal avlodidan bo'lgan, Nadejda Osipovnaga uylangan. Ularning Aleksandr dan tashqari yana Lev va Olga ismli farzandlarn bo'lgan. Sergey Lvovichning otasi - Lev Aleksandrovich ikki marta uylangan. Uning Voykova degan ayoldan uchta o'g'il: Nikolay, Petr va Aleksandr tug'ilgan"; Chicherina degan ayoldan esa Sergeydan boshqa yana o'g'li Vasiliy va ikki qizi: Anna va Yelezaveta tug'ilgan. Lev Aleksandrovichning Mariya ismli singlisi bo'lgan. Lev Aleksandrovich va Mariya Aleksandrovnalarni otasi Aleksandr Petrovich Golovina (xonim) bilan nikoqda bo'lgan. Aleksandr Petrovichning otasi Petr Petrovich Pushkin esa Osipovaga uylangan. Petr Petrovichning Aleksandr dan tashqari yana 4 ta o'g'il: Ivan, Leontiy, Ilya, Fedor va Agrofena ismli bitta qizi bo'lgan. Fedor ismli o'g'li Korneeva xonimga o'ylanib, o'g'il ko'rishgan. Unga Aleksandr deb ism qo'yishgan. Ushbu o'g'li Aleksandrning 2 o'g'li - Yuriy, Mixail hamda Nadejda va Mariya ismli 2 ta qizi bo'lgan. Qizi Mariya Aleksandrovna Pushkina bilan Osip Gannibal nikohidan to'g'ilgan qiz - Nadejda Osipovna, Sergey Lvovichning rafiqasi, demak, Aleksandr Sergeevich Pushkinning onasi bo'lgan. Shu ma'lumotlarga asoslanib, Pushkinlar oilasining shajarasini tuzing.

207. Proband - sog'lom, rangni yaxshi ajrata oladigan ayol. Shu ayolning singlisi ham sog'lom, lekin ikkita ukase daltonizm (ranglarni ajrata olmaslik) bilan kasallangan. Probandning ota-onasi sog'lom. Proband onasining 4 ta singlisi bo'lib, ularning erlari sog'lom. Proband onasining sibislari haqida sho'lar ma'lum: birinchi singlisining oilasidagi bitta kasal, bitta sog' o'g'li va ikkita sog'lom qizi bo'lgan; ikkinchi va uchinchi singlisining oilasida bittadan kasal o'g'li va bittadan sog'lom qizi bo'lgan; to'rtinchi singlisining oilasida bitta sog'lom qizi bo'lgan. Probandning ona tomonidan buvisi sog'lom, lekin buvasi daltonik bo'lgan. Probandning otasi tomonidan daltonizm bilan kasallanganlar aniqlanmagan. Agar proband sog'lom erkakka turmushga chiqsa, oilada daltonizm bilan kasallangan bolalarning tug'ilish ehtimolini aniqlang.

208. Proband braxidaktiliya bilan kasallangan ayol. Uni 3 ta akasi va bitta singlisi bo'lib, hammasi sog'lom. Probandning otasi ham kasal, onasi sog'lom. Probandning amakisi ham shu kasallikka duchor bo'lgan bo'lib, uning xotini sog'lom. Ularning 4 ta o'g'li va 6 ta qizidan, bitta o'g'li va ikkita qizi sog'lom, qolganlari esa braxidaktiliya bilan kasalangan. Probandning 2 ta ammasi bo'lib, ulardan biri sog'lom, ikkinchisi kasal. Proband otasining onasi, ya'ni buvisi kasal, buvusi esa ushbu belgi bo'yicha sog'lom bo'lgan. Buvisining 7 ta opa-singillari va 4 ta aka-ukalari bo'lib, opa-singillaridan 3 tasida va bitta ukasida shu kasallik bo'lman, qolganlarida bo'lgan. Buvasingin braxidaktiliya belgisi bo'lgan aka - ukasidan 2 tasi va braxidaktiliya belgisi bo'lgan opa-singlisidan 3 tasi, shu belgi bo'yicha normal bo'lgan odamlar bilan turmush 'rishgan. Shulardan bir akasida braxidaktiliya belgisiga ega 2 ta qizi bo'lgan, ular sog'lom erkaklarga turmushga chiqishgan. Birinchi qizining sog'lom bo'lgan 3 ta o'g'li va bitta qizi, hamda braxidaktiliyasi bo'lgan bitta o'g'li va 2 ta qizi bo'lgan. Ikkinchisi qizining 4 ta o'g'lidan, 2 tasi sog'lom, 2 tasi kasal, 2 ta qizidan bitti sog'lom ikkinchisi kasal bo'lgan. Buvisining ikkinchi kasal akasida bitti sog'lom va bitta braxidaktiliyali qizi bo'lgan. Shu braxidaktiliya belgisiga ega bo'lgan qizi, shu belgi bo'yicha sog'lom erkakka turmushga chiqib, bitta sog'lom va bitta braxidaktiliya belgisiga ega bo'lgan o'g'il ko'rishgan. Buvisining kasal singillaridan birini 2 ta qizi bo'lib, ular normal bo'lishgan. Ikkinchisini, normal o'g'li va 2 ta braxidaktiliyaga ega qizlari bo'lgan. Shu qizlaridan bitti sog'lom erkakka turmushga chiqib, shu belgi bo'yicha normal o'g'il ko'rigan. Buvisining braxidaktiliya belgisiga ega uchinchi singlisining 2 ta normal qizi va braxidaktiliyaga ega o'g'li bo'lgan. Shu o'g'li normal barmoqli ayolga o'ylanib, 2 ta qizli bo'lishgan. Qizlarining bitti normal, ikkinchisida braxidaktiliya kuzatilgan. Buvisining otasi ham braxidaktiliya belgisiga ega bo'lib, onasi esa ushbu belgi bo'yicha sog'lom bo'lgan. Buvisining otasini 6 ta normal aka-ukalari va 3 ta braxidaktiliya belgisiga ega bo'lgan singillari bo'lgan. Buvi otasining, ota-onalari haqida quyidagilar ma'lum: onasida braxidaktiliya bo'lgan, otasi shu belgi bo'yicha sog'lom bo'lgan. Yuqorida berilgan ma'lumotlar asosida, berilgan oilaning shajarasini tuzing, irlashtirish yagona belgini irlashtirish xilini hamda, shajarada berilgan hamma shaxslarning genotipini aniqlang ?

209. Proband-barmoqlari normal(besh barmoqli) qiz. Uning otasi va onasi ham normal barmolarga ega. Probandning otasini kalta - barmoqlar(braxidaktiliya) bilan tuqilgan singlisi va barmoqlari normal ukasi bor. Probandning braxidaktiliyaga ega ammasi sog'lom erkak bilan turmush qo'rigan bo'lib, ularning braxidaktiliya belgisiga ega bo'lgan o'g'li

bor. Probandning ota tomonidan buvisi braxidaktiliya bilan kasallangan bo'lib, buvasi sog'lom. Buvisining braxidaktilyali singlisi bo'lgan. Probandning ota tomonidan buvisining ota - onasida ham braxidaktiliya kuzatilgan. Probandning katta buvasi (ya'ni buvisini otasi) ikki marta o'ylangan bo'lib, uning ikkinchi ayolida braxidaktiliya bo'lman. Shu sog'lom ayol bilan bo'lgan nikohdan katta buvanng ikkita sog'lom qizi va to'rtta kasal o'g'illari bo'lgan. Katta buvaning shu ikkinchi nikohidan bo'lgan barcha bolalari kasal bo'lman qiz va yigitlar bilan turmush qurishgan. Katta buvaning shu nikohidan bitta qizining, sog'lom ikki qizi va o'g'li, ikkinchi qizining esa, sog'lom o'g'li, bitta o'g'lining braxidaktilyasi bo'lgan qizi, ikkinchi o'g'lining esa, bitta normal qizi va ikkita braxidaktiliya bilan tug'ilgan egizak qizlari bo'lgan. boshqa ikkita o'g'illarining bittadan sog'lom o'g'il farzandlari bo'lgan. Proband huddi o'ziga o'xshagan genotipga ega bo'lgan erkakka turmushga chiqsa, shu oilada braxidaktiliya bilan kasallangan bolalar tug'ilish ehtimolini aniqlang.

210. Proband miyacha ataksiyasi bilan kasallangan ayol. Eri sog'lom. Ularning 6 ta o'g'li va 3 ta qizi bor. Bir qizi va bir o'g'li kasal, qolganlari sog'lom. Probandning sog'lom singlisi va 3 ta shu kasallik bilan tug'ilgan aka - ukalari bor. Sog'lom singlisi, sog'lom erkakka turmushga chiqqan bo'lib, bitta sog'lom qizlari bor. Uchta aka - ukalari sog'lom ayollarga o'ylangan bo'lib, birining oilasida 2 ta sog'lom o'g'il va kasal qizi bor. Ikkinchisida sog'lom o'g'il va kasal qizi bor. Uchinching oilasida 2 ta o'g'il va 3 ta qizi bo'lib, hammasi sog'lom. Probandning otasi kasal, onasi esa sog'lom. Agarda probandning qizlari sog'lom erkaklarga turmushga chiqishsa, qanday farzandlar ko'rishlari mumkinligini aniqlang.

211. Probandida yaqindan ko'rish(miopiya) belgisi bor. Uning ikkita singlisi va bitta ukasi bo'lib, ushbu belgi ikkala singlisida ham bo'lib, ukasida esa yoq. Probandning singlisi, ushbu belgi bo'yicha normal erkakka turmushga chiqqan bo'lib ularning bitta qizida ushbu belgi yoq. Probandning onasi ushbu belgiga ega, otasida yoq. Otasining avlodida ushbu belgi hech kimda o'chramaydi. Onasining uchta singlisi va bitta ukasi bo'lib, ulardan faqat bitta singlisida ushbu belgi bor. Probandni ushbu belgiga ega bo'lman katta xolasi, huddi shunday belgiga ega bo'lman erkakka turmushga chiqqan bo'lib, ularning ushbu belgiga ega bo'lman faqat bitta qizi bor. Probandning ikkinchi xolasi ushbu belgiga ega bo'lman erkakka turmushga chiqqan, Ularning bitta o'g'li va ikkita qizi bo'lib, hammasi normal. Yaqindan ko'rish belgisi bor bo'lgan xolasi ushbu belgiga ega bo'lman erkakka turmushga chiqqan. Ularning ushbu belgiga ega bo'lman bir qizi va bir o'g'li bor. Probandni tog'asi, yaqindan

ko'rish belgisiga ega bo'lgan xolasining, ushbu belgiga ega bo'lмаган qiziga о'ylangan. Ularning to'rtta о'г'lidan ikkitasida ushbu belgi bor, ikkitasida ushbu belgi yoq. Proband onasining ona avlodni, ya'ni buvisini bitta opasi va bitta akasi hamda bitta ukasi va bitta singlisi bo'lib, ularning oila a'zolarining ayrimlarida yaqindan ko'rish belgisi kuzatiladi. Buvisini opasida ushbu belgi bo'lib, uni turmush urtog'ida ham yaqindan ko'rish belgisi bo'lган. Ularning yakkayu yagona bo'lган о'г'lida ham ushbu belgi bo'lган. Buvisining ushbu belgi bo'yicha normal bo'lган akasi, ushbu belgi bo'yicha normal ayolga о'ylangan bo'lib ularning uchta о'г'ли va ikkita qizida ushbu belgi kuzatilmagan. Buvisining singlisida yaqindan ko'rish belgisi bo'lib, uni turmush о'rtog'ida ushbu belgi bo'lмаган. Ularning uchta о'г'ли va bitta yagona qizi bo'lib, ularning hammasida ushbu belgi kuzatilmagan. Ularning ushbu yagona qiziga probandning tog'asi о'ylangan. Proband buvisining ukasida va uning turmush urtog'ida yaqindan ko'rish belgisi yoq, lekin ularning ikki о'г'lidan birida va ikkita qizining birida ushbu belgi yuzaga chiqqan.

1. Ushbu berilgan masalaning shajarasini tuzing.

2. Irsiyylanayotgan belgini tahlil qilib chiqing.

3. Shajarada ko'rsatilgan hamma shaxslarning genotipini belgilang.

212. Bir о'qimishli, iqtisodiy jihatdan yaxshi ta'minlangan bir erkak (uni proband deb olamiz) oila a'zolari orasida, hammaga ham e'lon qilib bo'lmaydigan bir xunuk belgi kuzatilar edi. Ushbu belgi, asosan ajdodni erkak a'zolarida uchrar edi. Probandning uchta akasi va bitta ukase bo'lib, ushbu belgi ikkita akasida va ukasida bor edi, o'zida esa yoq edi. Ikkita opasi va bitta singlisi bo'lib, ularda shu belgi yoq edi. Probandning otasi va onasida ham ushbu belgi yoq edi. Proband ota avlodining birortasida ham ushbu belgi bo'lмаган, ona avlodining ko'pchiligidagi uchragan. Probandni uchta tog'asi bo'lib, shulardan ikkitasida ushbu belgi bo'lган. Uchta xolasi bo'lib, ularning erlarida ushbu begi kuzatilmagan. Bitta xolasining bir qizi, ikkita о'г'ли bo'lib, ularning hammasida ushbu belgi kuzatilmagan. Ikkinci xolasini yakayu yagona bir о'г'ли bo'lib, unda shu belgi kuzatilgan. Uchinchi xolasini ikkita о'г'ли, bir qizi bo'lib, ushbu belgi о'г'illariini birida kuzatilgan, ikkinchi о'г'lida va qizida ushbu belgi ko'zatilmagan. Proband onasining, ota - onasida ham ushbu belgi kuzatilmagan. Probandning buvisi (ya'ni onasining onasi)ni otasida esa, ushbu belgi bo'lган. Proband ushbu, o'zi uchun juda xunuk bo'lган belgidan umuman qutilish maqsadida, uzoqroq bo'lган mamlakatga ketib, u yerda mahalliy millatga mansub bo'lган bir qizga о'ylanadi. Taqdirning qarangki, keyinchalik ma'lum bo'lishicha uylangan qizi, о'зига qarindosh

bo'lib chiqdi. Proband buvisining, ushbu belgiga ega bo'lgan otasi urush yillarida taqdir taqozasi bilan chet elda qolishga majbur bo'lib, o'sha mamlakatda ushbu belgi bo'yicha sog'lom bo'lgan mahalliy millatga mansub ayolga o'ylangan. Ularning turmushidan, ushbu belgiga ega bo'lman bir o'g'il va bir qiz tug'iladi. Shu qizi, ushbu belgiga ega bo'lman erkakka turmushga chiqib, ikkita farzand ko'rishgan. Ushbu belgiga ega bo'lgan o'g'il va sog'lom bo'lgan qiz. Mana shu qizi kelajakda, ushbu belgiga ega bo'lman erkakka turmushga chiqib, bir qiz va ikkita o'g'il ko'rishgan. Hammalarida ham, ushbu belgi kuzatilmagan. Ushbu oilada tug'ilgan qizga, taqdir taqozasi bilan proband uylangan.

1. Ushbu berilgan masalaning shajarasini tuzing.
2. Irsiylanayotgan belgini tahlil qilib chiqing.
3. Shajarada ko'rsatilgan hamma shaxslarning genotipini belgilang.
4. Proband qo'rqib yurgan belgi, ularning oilasida irsiylanadimi, yoqmi ?

213. Proband - erkak o'roqsimon hujayra anemiyasini yengil shakli bilan kasallangan. Uning turmush o'rtog'i sog'lom. Ularning sog'lom o'g'li va uroqsimon anemiyani yengil shakli bilan kasallangan qizi bor. Probandni onasi va buvisi(onasini onasi)ning ikkalovi ham o'roqsimon anemiyadan yengil shakli bilan kasallangan bo'lgan, ularning qolgan sibslari esa sog'lom bo'lishgan. Probandning xotinini ikkita singlisi bo'lib, biri o'roqsimon anemiyani yengil shakli bilan kasallangan, ikkinchisi esa anemiyadan o'lgan. Xotinining ona va otasi ham anemiya bilan kasallangan bo'lib, otasining bitta akasi va bitta ukasi, shuningdek bitta opasi va bitta singlisi ham, ushbu kasallik bilan kasallangan bo'lgan. Bulardan tashqari otasining oilasida yana ikkita odam: aka va ukasi o'roqsimon anemiyadan vafot etishgan.

1. Ushbu berilgan masalaning shajarasini tuzing.
2. Irsiylanayotgan belgini tahlil qilib chiqing.
3. Shajarada ko'rsatilgan hamma shaxslarning genotipini belgilang.
4. Agarda probandning qizi, xuddi o'ziga o'xshagan genotipga ega bo'lgan erkakka turmushga chiqsa, ularning oilasida tug'ilishi mumkin bo'lgan farzandlarning genotip va fenotipini aniqlang.

214. Proband to'g'ma katarakta xastaligi bilan kasallangan. Turmush urtoqi, sog'lom ayol bo'lib, ularning katarakta bilan kasallangan qizi va sog'lom o'g'li bor. Probandning otasi katarakta bilan kasallangan, onasi esa sog'lom. Onasining avlodida, ushbu belgi hech kimda kuzatilmagan. Otasining avlodи tahlil qilinadigan bo'lsa: otasining otasi(ya'ni buvasi) ham

ushbu kasallik bilan kasallangan, onasi esa(ya'ni buvisi) sog'lom bo'lgan. Probandning ikkita amakisi bo'lib, ularning biri katarakta bo'yicha sog'lom, ikkinchisida esa katarakta kuzatilgan. Ularning turmush o'rtoqlari sog'lom bo'lgan. Katarakta bilan kasallangan amakisining, ikkita o'g'li va bir qizi bo'lib, ulardan faqat bitta o'g'li katarakta bilan kasallangan bo'lgan. Ikkinchisi amakisining bir o'g'li va bir qizi bo'lib, ikkalovi sog'lom bo'lgan. Probandning yana uchta ammasi bo'lib, ularning ikkitasi katarakta bilan kasallangan, biri esa sog'lom bo'lgan. Sog'lom ammasining eri, katarakta bo'yicha sog'lom bo'lib, ularning ikki qizi va bir o'g'li sog'lom bo'lishgan. Katarakta bilan kasallangan ammalarining ham erlari sog'lom bo'lib, birlarini oilasida katarakta belgisiga ega bo'lgan o'g'il va sog'lom qiz, ikkinchilarini oilasida katarakta belgisiga ega qiz va sog'lom o'qillari bo'lgan. Agarda probandni sog'lom qizi, katarakta bilan kasallangan ammasining sog'lom o'g'liga turmushga chiqsa ularning oilasida tug'ilishi ehtimoli mumkin bo'lgan farzandlarni genotip va fenotipini aniqlang.

215. Proband tirnoq va tizza qopqog'i desfekti sindromi bilan kasallangan, akasi normal. Bu sindrom probandning otasida bo'lib, onasi sog'lom bo'lgan. Otasi tomonidan buvasi ham shu sindromga ega, buvisi esa sog'lom. Proband otasining uchta akasi va to'rtta singlisi bo'lib, ulardan 2 ta akasi va 2 ta singlisi shu sindrom bilan kasallangan. Kasal amakisining xotini sog'lom bo'lib, ularning 2 ta sog'lom qizi va bitta sog'lom o'g'li bor. Agar proband shu belgi bo'yicha sog'lom ayolga o'yansa, ularning oilasida qanday farzandlar tug'ilishi ehtimolini aniqlang.

216. Kuyov va kelin o'ng qo'llari bilan barcha ishlarni bajaradi(o'naqay)lar. Kelinning oilasida o'ng qo'l bilan ish bajaruvchi 2 ta singlisi va uchta chapaqay aka - ukasi bo'lgan. Kelinning onasi o'naqay, otasi - chapaqay, otasining bitta singlisi va 2 ta aka - ukasi o'naqay, yana bir singlisi va ukasi chapaqay. Kelinning ota tomonidan buvasi o'naqay, buvisi - chapaqay. Kelinning onasini akasi, ukasi, opasi, singlisi bo'lib, barchasi o'naqay. Kuyovning onasi o'naqay, otasi esa chapaqay. Ota va onasni tomonidan buva - buvilar o'naqay. Shunday oilada chapaqay bola tug'ilish ehtimolini aniqlang.

217. Proband va uning besh akasi sog'lom. Probandning ota - onasi kar va soqov. Ikki amakisi va ammasi ham kasal; to'rt xolasi va tog'asi sog'lom, lekin bitta xolasi va bitta tog'asi kar soqov. Ona tomonidan buvasi va buvisi sog'lom. Ota tomonidan buvasi va buvisi kasal. Ona tomonidan buvisining kar va soqov bo'lgan bitta akasi va ikkita singlisi bor. Ota tomonidan buvasining ikki - ukasidan bittasi kasal, ikkinchisi sog' bo'lib, besh opa - singlisidan ikkitasi kasaldir. Probandni ota tomonidan buvasini

ota - onasi sog'lom, buvisining esa ota - onasi esa kar - soqov bo'lgan. Proband, kar - soqov bo'lmanan va bunday kasallik avlod - ajdodida umuman kuzatilmagan oiladan bo'lgan ayolga uylansa, shu oilada kar va soqov bolalar tug'ilishining ehtimolini aniqlang.

POPULYATSION - STATISTIK USUL POPULYATSIYA GENETIKASI.

Populyatsiya genetikasi populyatsiyalarda gen va genotiplarning taqsimlanish qonuniyatlarini o'rghanadi. Tibbiyotda ma'lum bir allelning kishilar o'rtasida bir xilda uchramasligi va bu allelning tarqalish chastotasini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Hisoblash Xardi - Vaynberg qonuni asosida olib boriladi. Bu qonun ideal muvozanatlari populyatsiya uchun xosdir. Xardi-Vaynberg qonunining birinchi qoidasiga ko'ra muayyan populyatsiya bitta allel gen chastotasining majmuasi - turg'un o'zgarmas) kattalikdir.

Bu shunday ifodalanadi: $R + q = 1$ (ya'ni 100%).

R - dominant genning miqdorn;

q - shu allel retsessiv genning miqdori;

Xardi - Vaynberg qonunining ikkinchi qoidasi: muayyan populyatsiyada bir allel bo'yicha genotiplar majmui turg'un kattalik bo'lib, genotiplarniig populyatsiyada tarqalishi Nyuton binomi ikkinchi darajasi koefisientiga mos keladi. Populyatsiyadagi genotiplar chastotasini aniqlashda quyidagi formuladan foydalaniлади:

$R^2 + 2Rq + q^2 = 1$ (100%).

R² - dominant gen (A) bo'yicha gomozigota organizmlar soni (genotipi AA),

2Rq - geterozigotalar soni (genotipi 2 Aa),

q² - retsessiv gen (a) bo'yicha gomozigota organizmlar soni (genotipi aa).

Xardi - Vaynberg qonuniga binoan, yuqoridagi formulalardan foydalangan holda, populyatsiyada bior allel gen chastotasi (A yoki a) ma'lum bo'lsa, shu allel bo'yicha populyatsiya-dagi turli genotiplar (AA, Aa, aa) chastotasini aniqlash mumkin.

218. Alkoptonuriya autosoma - retsessiv belgi sifatida irsiyatga beriladi. Kasallik 1:100 000 chastotasi bilan o'chraydn. Populyatsiyadagi geterozigota organizmlarni aniqlang.

219. Qon gruppasining MN sistemasiga ko'ra $L^M L^M$, $L^M L^N$, $L^N L^N$ genotiplar asosida MM, MN va NN fenotiplar yuzaga chiqadi. K. Shtern ma'lumoti bo'yicha, turli xil aholi gruppalari orasida, LM genniig chastotasi (%) quyidagicha keltiriladi:

AQSH oq tanlilarida	- 54
AQSH negrlarida	- 53,2
AQSH hindularida	- 77,6
Sharqiyl Grenlandiya eskimoslarida	- 91,3
Ayinlarda	- 43
Avstralialiya aborigenlarida	- 17,8

Har bir populyatsiyannng genetik strukturasini aniqlang.

220. Retinoblastoma (ko'zdagi yomon sifatlari o'sma) va Marfan sindromi (turli xil belgilari bnlan bir qatorda barmoqlari ingichka, uzun - o'rgimchak oyoqlari kabi bo'ladi) autosom dominant tipda naslga beriladi. Retinoblastomaning penentrantligi 60%. Marfan sindromining penentrantligi - 30%. Yevropada retinoblastoma kasalligi 100000 kishi ichida 3, Marfan sindromni 4 chastotada uchraydi. Shu ikki kasallik genining yevropaliklar orasidagi tarqalish chastotasini aniqlang.

221. Odamlarda kar va soqovlik belgisi autosomada joylashgan bo'lib, retsessiv holda nasldan - naslga o'tadi. Mazkur kasallikning uchrash darajasi 2 : 10 000. 8000000 aholisi bo'lgan shaharda mazkur belgi bo'yicha geterozigota va kar - soqov odamlarning soni qancha ?

222. Arpa o'simligida albinism belgisi autosoma - retsessiv tipda naslidan - naslga o'tadi. Tekshirilayotgan uchastkada 84000 o'simlikdan 210 tasi albinos bo'lib chiqqan. Arpa o'simliklaridagi albinoslik genini chastotasini aniqlang.

223. Orollarning birida 10000 ta tulki ovlandi. Shulardan 9991 tasi malla rangli qolgan 9 tasi oq rangli edi. Malla rang oq ranga nisbatan dominantlik qiladi. Malla rangli tulkilarning qanchasi gomozigotali va qanchasi geterozigotali ekanligini va ularning % aniqlang.

224. Irsiy metgemoglobinemiya kasalligi autosoma - retsessiv gen bo'lib, Alyaska eskimoslari orasida 0,09 % chastotada uchraydi. Eskimoslar populyatsiyasida bu gennin tarqalish chastotasini aniqlang ?

225. Genetiklarning XIV-Xalqaro Ilmiy Kongressining materiallarida (Bochkov N.P., 1979) Yevropa aholisi o'rtasida kasalliklarning uchrashi haqida quyidagi ma'lumotlar keltiriladi (har 1000 ta tug'ilgan chaqaloqqa):

1. Autosoma - dominant tipda irsiyanish:
 - neyrofibromatoz - 0,4
 - giperxolisterinemiya - 2,0

- axondroplaziya - 0,02
- 2. Autosoma – retsessiv tipdagi irsiylanish:
 - amavrotik (Teya-Saks sindromi) oilaviy idiotiya - 0,04
 - sistinuriya - 0,06
 - sistinoz (Fankoni sindromi) - 0,01

Shu ko'rsatilgan 6 ta kasallik bo'yicha populyatsiyadagi genlar chastotasini aniqlang.

226. Diego sistemasi bo'yicha qon guruhi ikki gen D^a va D^i bilan belgilanadi. D^a geni D^i geni ustidan dominantlik qiladi. Diego musbat odamlar (D^aD^a D^aD^i D^iD^i) mangoloid irqiga mansub bo'lган odamlarda o'chraydi. Diego musbat odamlar janubiy amerikalik hindu qabilalari orasida 36 % ni, yaponlarda esa 10 % ni tashkil qiladi. Shu berilgan populyatsiyalarda D^a va D^i genlarning chastotasini aniqlang.

227. Okeanda paydo bo'lган orollarning biriga, o'simliklarning rivojlanishi uchun yetarli sharoit yuzaga kelgandan keyin, bir gen bo'yicha geterozigotali(100 %) bo'lган, faqat o'z-o'zidan changlanadigan, noma'lum o'simlikning urug'i kelib tushdi. So'ng u, orolda shu o'simlikning populyatsiyasiga asos soldi. Shu geterozigotali bo'lган belgining keyingi avlodlarda (F1, F2, F3, F4...Fn), yuzaga chiqish chastotasini aniqlang ?

228. O'zbekistonning tog'li rayonlarining birida, boshqalardan nisbatan izolyasiyalangan holda yashayotgan, aholi punktlarining birida ko'rikdan o'tkazilganda, fonda hali yaxshi o'rganilmagan kasallik aniqlandi. Aholi punktida yashayotgan 1000 kishidan 9 tasida o'sha noma'lum kasallik aniqlandi. Ushbu kasalni yuzaga chiqargan gen, yana qancha odamda borligini aniqlang.

229. Fruktozuriya autosoma - retsessiv tipda irsiylanib, 7 : 1 000 000 chastotada uchraydi. Fruktozuriya bilan kasallangan odamlarda, siydiqi bilan katta miqdorda fruktozalar ajraladi. Populyatsiyada geterozigota organizmlarning miqdorini aniqlang.

230. Dengiz chuchqalarini populyatsiyasida xo'rpaygan yungga ega bo'lган(retsessiv belgi)lari 36 % ni, silliq yungga ega bo'lganlari 64 % ni tashkil qiladi. Ushbu populyatsiyadagi dominant (A) va retsessiv (a) genlarning chastotasini aniqlang. P va q chastotalarini % foizda ifodalang

231. Qon gruppasing MN sistemasiga ko'ra $L^M L^M$, $L^M L^N$, $L^N L^N$ genotiplar asosida MM , MN va NN fenotiplar yuzaga chiqadi. Bir populyatsiyada tibbiy ko'rikdan o'tkazilgan 4200 odamdan, 1218 tasi MM genotipga, 882 tasi NN genotipga, 2100 ta odam MN genotipga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Uchchala genotipning chastotasini aniqlang:

232. Toshkent viloyati Toshkent tumani aholisi o'ylarida ushlovchi itlar

ko'rikdan o'tkazilganda, ushbu populyatsiyada ko'proq tarqalgan, jaydari itlar bo'lib chiqdi. Jaydari itlar populyatsiyasi orasida: 245 ta kalta oyoqli, 24 ta normal oyoqli itlar b'orligi aniqlandi. Itlarda kalta oyoqlilik dominant belgi bo'lib(A), normal oyoqlilik esa retsessiv(a)dir. Ushbu populyatsiyadagi AA, Aa, aa genotipli organizmlarning chastotasini aniqlang.

233. Aholisi 1 mln kishidan iborat bir shaharning, rayonlaridan birida yashovchi 280000 aholi tibbiy ko'rikdan o'tqazildi va autosoma - resesiv holatda irsiylanadigan Shpilmeyer - Fogta irsiy kasalligi bilan kasallangan 7 ta odam ruyhatga oldindi. 1 mln aholiga nisbatan, ushbu kasallikning uchrash ehtimolini hisoblab chiqing va genotiplar chastotasini aniqlang. Shpilmeyer - Fogta kasalligi ko'pincha o'smirlik davrida paydo bo'lib, asosan nerv hujayralarida (bosh miya po'stlog'i, miyachada) o'zgarishlar natijasida aql pastligiga olib keladi.

234. Ximik olimlarning aniqlashlaricha, past konsentrasiyada tayyorlangan tiromochevina suyuqligiga sezgirlik("degustatorlik" - ya'ni tilga tegizilib, ma'zasini ta'tib ko'rish) har xil odamlarda, har xil bo'lar ekan. Tiromochevinaga sezgirlik dominant(T) geni bilan belgilanganda, sezmaslik (t) geni bilan belgilanadi. Negroid irqiga mansub kishilarda, bu suyuqlikni sezmaydiganlar 0,45; Mangoloiglarda - 0,65 va Yevropoid irqiga mansub shaxslarda 0,50 chastotada uchrashi aniqlangan. Yuqorida ko'rsatilgan uchta irqga mansub kishilar populyatsiyalarida tiromochevinaga sezgirlik chastotasini hisoblab chiqing.

235. Tananing tuliq albinos bo'lishi (tuliq albinizm) autosoma - retsessiv belgi sifatida avloddan - avlodga beriladi. Bu kasallik 1:15000 nisbatda uchraydi. Populyatsiyadagi geterozigota organizmlar sonini aniqlang.

236. Podagra autosoma dominant tipda nasldan naslga o'tadigan kasallik bo'lib, 2 % odamlarda uchraydi. Ayollarda podagra geni yuzaga kelmaydi, erkaklarda uning penentrantligi 20 % ga teng. Ushbu ma'lumotlarga asoslangan holda, tahlil qilinayotgan populyatsiyada, ushbu belgini genetik strukturasini aniqlang.

237. Aholi soni 500000 bo'lgan rayonda alkoptonuriya(autosom retsessiv belgi) bilan kasallangan 4 ta odam aniqlangan. Ushbu populyatsiyada tahlil qilinayoggan belgiga ko'ra geterozigota organizmlar sonini aniqlang.

238. Tulkilarning bir populyatsiyada, 84 % tulkilar malla rangli, 16 % i oq rangli junga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Malla rang oq rangga nisbatan dominantlik qiladi. Populyatsiyadagi gomozigota va geterozigota organizmlarning chastotasini aniqlang.

EGIZAKLAR USULI

Organizmda yuzaga chiqadigan belgilarning har biri ikkita muhim omilga ya'ni organizmning irsiyatiga va tashqi muhit sharoitiga bog'liq. Egizaklar belgilarning irsiyani sharoitida va rivojlanishida genotipning ham, muhit sharoitining ham ta'sir darajasini o'rganish uchun juda qo'lay biologik ob'ektdir. Ko'pgina kasaliklarni va belgilarni kelib chiqish sabablarini aniqlashda egizaklar asosiy ob'ektdir. Odatda egizaklar ikki xil bo'ladi: bir tuxumdan rivojlangan egizaklar(BE) yoki monozygotali va ikki tuxumdan rivojlangan egizaklar(IE) yoki dizigotali. Monozygotali egizaklar bitta otalangan (urug'langan) tuxumdan rivojlanadi. Ular doimo bir xil jinsli va bir xil genotipli bo'ladi. Ularni fenotipi ham, genotipi ham o'xshash bo'ladi. Dizigotali egizaklar ikkita otalangan tuxumdan rivojlanadi va har xil jinsli bo'lishi mumkin. Dizigotali egizaklar monozygotali egizaklarga qaraanda ko'proq to'g'iladi. Masala yechishda egizaklarning konkordantlik va diskordantlik belgilari e'tiborga olinadi. Agar bir xil kasallik ikkala egizakda ham uchrasa konkordantlik, birida uchrab, ikkinchisida uchramasa diskordantlik deyiladi. Genotip rolini ko'rsatuvchi statistik ma'lumot-larni ko'p usullar yordamida olish mumkin, lekin bu usullar ichida eng ko'p qo'llaniladigani Xolsinger formulasidir.

$$N = \frac{BE \text{ o}'xshashligining \% - IE \text{ o}'xshashligining \%}{100 \% - IE \text{ o}'xshashligi \%} \times 100$$

N - genotipning roli; BE - monozygotali egizaklar; IE - dizigotali egizaklar;

Agar N=1,0 o'rganilayotgan belgi butunlay irsiy ekanligini bildiradi.

Agar N=0,0 bo'lsa belgining yuzaga chiqishida asosiy omil muhit ekanligini bildiradi.

239. Monozygota egizaklarda tutqanoq kasalligi bo'yicha konkordantlik 67% bo'lsa, dizigota egizaklarda bu kasallik 3% ga teng. Tutqanoq kasaligini necha % irsiyatga va necha % muhitga bog'liqligini aniqlang?

240. Monozygota egizaklarda revmatizm bo'yicha konkordantlik 20,3% bo'lsa, dizigota egizaklarda revmatizm 6,1 % ga teng. Revmaizmning necha % irsiyatga va necha % muhitga bog'liqligini aniqlang?

241. Qizamiq yuqo'mli kasallik bo'lib, bir tuxumdan paydo bo'lgan egizaklarda konkordantlik 98%, ikki tuxumdan paydo bo'lgan egizaklarda esa 94 % ni tashkil qiladi. Qizamiqning necha % irlisyatga va necha % muhitga bog'liqligini aniqlang ?

242. Quyidagi ayrim kasalliklarning egizaklarda uchrash chastotasi jadvalidan foydalanib, jadvalda berilgan kasalliklarni namoyon bo'lish sabablarini Xolsinger formulasidan foydalanib, aniqlab chiqing.

Nº	Kasalliklar	Monozigotali egizaklar (%)	Dizigotali egizaklar (%)
1	G'ilay ko'z	32	3
2	Sil (Tuberkulyoz)	37	15
3	Quyon lab	33	5
4	Ko'k yo'tal	97	93
5	Poliomelit	36	6
6	Bronzial astma	19	4,8
7	Paratit	82	74
8	Gipertoniya	26,2	10
9	Tepki	50	38

MODIFIKASION O'ZGARUVCHANLIKNING STATISTIK QONUNLARI

243. Toshkent tibbiyot akademiyasida ta'lim olayotgan o'zbek millatiga mansub bir xil yoshdag'i (17 - 20 yoshdag'i) 120 ta l- kurs talabalar (o'g'il bolalar)ning bo'yи, santimetrlar(sm) hisobida va vazni (massasi) kg. lar hisobida o'lchanganda ular quyidagi ko'rsatkichlarga ega ekanliklari ma'lum bo'ldi.

176-64, 174-61, 161-50, 169-56, 162-51, 171-60, 172-65, 176-68, 157-46, 177-62, 170-59, 171-59, 187-76, 173-61, 176-65, 182-73, 171-60, 174-65, 171-61, 173-65, 179-64, 168-58, 182-70, 173-61, 180-78, 168-57, 176-63, 164-55, 171-59, 185-73, 167-55, 167-59, 167-57, 180-68, 184-72, 177-69, 175-61, 175-61, 184-74, 171-58, 177-61, 165-56, 165-51, 178-65, 176-65, 175-63, 177-64, 183-79, 167-53, 166-57, 167-54, 174-54, 180-72, 172-60, 182-63, 176-64, 166-54, 167-56, 166-53, 174-62, 177-63, 175-63, 170-59, 173-60, 175-58, 170-59, 159-47, 174-62, 173-61, 164-59, 177-78, 179-67, 177-64, 168-59, 170-53, 178-67, 175-65, 168-57, 172-62, 176-65, 175-67, 181-77, 171-60, 178-69, 192-81, 166-58, 186-80, 179-67, 167-55, 165-54, 168-54, 167-58, 173-60, 172-59, 167-55, 175-66, 170-58, 172-61, 182-69, 173-61, 170-60, 172-60, 161-52, 174-63, 171-64, 188-72, 169-65, 176-62, 160-48, 174-69, 179-68, 184-71, 173-65, 171-59, 175-58, 165-54, 163-51, 177-65, 175-54, 183-71,

Urganilayotgan belgilar uchun eng muhim statistik ko'rsatkichlarni hisoblab chiqing. Alovida bo'yish va alovida vazni bo'yicha: 1) O'rtachi miqdorni; 2) Variasion qatorni; 3) Variasion grafikni

244. Toshkent tibbiyot akademiyasida ta'lif olayotgan talabalar tibbiy ko'rikdan o'tkazilgan vaqtida, bir kursda o'qiydigan tengdosh 100 ta qizni tana og'irligi (vazni) bo'yicha ko'rsatkichi quyidagicha ekanligi ma'lum bo'ldi.

54, 62, 65, 51, 50, 56, 62, 60, 62, 53, 65, 51, 48, 47, 53, 58, 54, 63, 61, 52, 49, 58, 50, 58, 52, 46, 50, 54, 62, 53, 44, 68, 54, 56, 58, 48, 49, 57, 62, 64, 58, 49, 66, 56, 48, 60, 42, 51, 56, 48, 56, 54, 56, 52, 69, 52, 50, 70, 56, 53, 50, 56, 54, 50, 59, 55, 49, 60, 64, 56, 53, 62, 54, 56, 50, 57, 58, 49, 56, 53, 64, 53, 66, 54, 64, 51, 52, 62, 57, 52, 69, 54, 48, 52, 64, 56, 60, 52, 51, 48

Berilgan ko'rsatkichlar asosida: maxsus formuladan foydalangan holda o'rtacha miqdorni hisoblab chiqing, variasion qator tuzing, variasion egri chiziq tuzish orqali variasion qatorni grafik yo'l bilan tasvirlang.

245. Toshkent Pediatriya institutiga tegishli tug'riqxonada yangi tug'ilgan 100 ta o'g'il bola chaqolqlarning, vazni kilogramm (kg) hisobida aniqlanganda, ular quyidagicha bo'lgan.

3,9	4,1	4,2	3,9	3,9	3,9	3,3	4,3	3,3	3,2	3,2	3,2	2,7	4,1	4,1	3,2	3,2
2,8	2,8	2,8	2,9	2,9	2,9	3,1	3,1	3,1	3,0	3,0	3,0	3,2	3,2	3,2	3,2	3,1
3,1	3,1	3,1	3,4	3,4	3,4	3,6	3,6	3,6	3,5	3,5	3,5	3,6	3,6	3,6	3,8	3,8
2,8	3,1	3,1	3,3	3,3	3,3	3,3	3,4	3,4	3,4	3,8	3,8	3,2	3,2	3,2	3,0	3,0
3,0	2,9	2,9	2,9	3,2	3,2	3,3	3,3	3,3	3,5	3,5	3,5	3,6	3,6	3,7	3,7	3,7
3,0	3,0	3,0	3,1	3,1	3,1	3,6	3,5	3,4	3,4	3,2	3,2	3,3	3,1	3,5		

Berilgan ko'rsatkichlar asosida: maxsus formuladan foydalangan holda o'rtacha miqdorni hisoblab chiqing, variasion qator tuzing, variasion egri chiziq tuzish orqali variasion qatorni grafik yo'l bilan tasvirlang.

Odamlarda ba'zi belgi va kasalliklarning irlsiylanishi

Dominant belgi	Retsessiv belgi
1 Til uchini qayira olishi	1 Til uchini qayira olmasligi
2 Ten, soch va ko'z pigmentlarining normada bo'lishi	2 Albinizm (pigmentning yoqligi)
3 Qora soch	3 Malla soch
4 Ko'zning katta bo'lishi	4 Ko'zning kichik bo'lishi
5 Unaqaylik	5 Chapaqaylik
6 Burun shakli "Rim burni"	6 To'g'ri burun
7 Polidaktilya (ortiqcha barmoqlilik)	7 Barmoqlarning norma (5 ta'da bo'lishi)
8 Braxidaktilya (kalta barmoqlilik)	8 Barmoqlarning normal holatda bo'lishi
9 Sindaktilya (barmoqlarning yopishgan bo'lishi)	9 Barmoqlarning normal holatda bo'lishi
10 Yuzda sepkilning bo'lishi	10 Sepkilning bo'lmasligi
11 Past bo'ylik	11 Baland bo'ylik
12 Tilning nay qilib o'ray olishlik	12 Bunday xususiyat yoqligi
13 Normal eshitish qobiliyatiga egalik	13 To'g'ma kar bo'lish
14 Nutqning normada bo'lishi	14 Soqovlik
15 Ter bezlarining normada bo'lishi	15 Ter bezlarining yo'qligi
16 Rezus mustaq qon	16 Rezus manfiy qon
17 II, III, IV qon guruhi	17 I- qon guruhi
18 Ernitrositlarning normal shakli	18 O'rroqsimon anemiya
19 Burun kataklarining kengligi	19 Burun kataklarining torligi
20 Yuzda botiqlik (chuqracha) bo'lishi	20 Yuza botiqlik bo'lmasligi
21 Qo'loq suprasi pastki qismining teriga yopishmagani	21 Qo'loq suprasi pastki qismining teriga yopishgan bo'lishi
22 Qora ko'z	22 Ko'k va kulrang ko'z
23 Bosh barmoqning tumtoq, yalpoq bo'lishi	23 Bunday xususiyat bo'lmasligi
24 Mongoloid ko'z	24 Evropoid ko'z
25 Kipriklarning uzun bo'lishi	25 Kipriklarning qisqa bo'lishi
26 Teri rangining normal bo'lishi	26 Albinizm
27 Terining qora bo'lishi	27 Teri rangining normal bo'lishi
28 Jingalak soch	28 Sochning tekis bo'lishi
29 Axondoplaziya (pakanalik)	29 Bo'yning normal bo'lishi
30 Yaqidandan kurish (Mioipiya)	30 Normada ko'rish
31 Labning qalin bo'lishi	31 Labning ingichka bo'lishi
32 Qoshning sertuk bo'lishi	32 Koshning siyrak bo'lishi
33 Yuqori qovoqning osilganligi	33 Normada bo'lishi
34 Burinning katta bo'lishi	34 Burinning kichik bo'lishi
Jins bilan birikkan holda irlsiylanadigan belgilari	
1 Ko'z qorachig'ining to'liq ko'rnishi	1 Ko'z qorachig'ining to'liq ko'rnimasligi
2 Teri bezlarining normada bo'lishi	2 Teri bezlarining bo'lmasligi
3 Qonning normal ivishi	3 Qon ivimasligi (Gemofiliya)
4 Ranglarni normal ajrata olish	4 Rang ajrata olmaslik (Daltonizm)
5 Giper fosfomatik raxit	5 Ushbu kasallikning bo'lmasligi
6 Agammaglobulenimiyasi	6 Ushbu kasallikning bo'lmasligi
7 Tishlaming qorayib ketishi	7 Ushbu kasallikning bo'lmasligi
8 Ushbu kasallikning bo'lmasligi	8 Angidrozli ektodermal displaziya

MASALADA BERILGAN IRSIY KASALLIKLAR VA AYRIM ANOMALIYALAR HAQIDA QISQACHA MA'LUMOTLAR

Agammaglobulinemiya - qon plazmasida oqsil fraksiyalaridan biri bo'lgan gamma - globulin-larning bo'lmasligi yoki miqdorini keskin kamayib ketishi bilan xarakterlanadigan kasallik. Bir necha xil shakli farqlanadi. Ayrim shakllarida organizmda bakterial infeksiyalarga qarshi chidamlilik keskin pasayib ketadi.(pnevmoniya, sepsis va boshqa kasalliklarga olib keladi) Ushbu kasalik retsessiv tipda autosomalar orqali ayrim shakllari esa jinsiy X - xromosoma bilan birikkan holda irsiylanadi.

Alkaptонuriya. Alkoptonuriya kasalligida gomogentizinoksidafermentini sintezini belgi-lovchi gen mutasiyaga uchragani uchun organizmda bu ferment juda kamayib ketadi. Natijada to'qimalarda va fiziologik suyuqliklarda gomogentizin kislotosi to'plano boradi. Siydkdagি alkopton havoda oksidlanib, siylik tezda qorayib qoladi. Yoshlikda alkaptонuriya kasalligi sezilarsiz bo'lib, yosh ulg'aygan sari Kasallikning belgilari paydo bo'la boshlaydi va biriktiruvchi to'qimalarda gomogentizin kislotosi to'planib, bo'g'inlardagi tog'aylorlar sariq binafsha rangga kiradi, qo'loq suprasi va burun tog'aylori qorayadi. Yosh ulg'aygan sari tog'aylarda qora pigment to'planib, bo'g'in kasalliklari paydo bo'ladi. Bu kasallik 5:1000000 nisbatda uchraydi. Davolashda parhez asosiy hisoblanib, kasal fenilalanin va tirozin aminokislota-lari ko'p bo'lgan oziqalarni kam iste'mol qilishi kerak. Autosoma retsessiv holda irsiylanadi

Angidrozli ektodermal displaziya - bir qancha belgilari bilan xarakterlanadi: ter ajralmasligi, tishlarining ma'lum qismi bo'lmasligi, tanani qoplagan tuklarining juda siyrak bo'lishi, termoregulyasiyaning bo'zilishi. Jinsiy X - xromosomaga birikkan holda irsiylanadigan retsessiv belgidir.

Angiamatoz - ko'zning to'r pardasi kasalligi. Aautosoma - dominant tipda nasldan naslga o'tib, 50 % penentrantlikka ega. Ko'z to'r pardasi qon tomirlari keskin kengayib ketishi va yangi qon tomirlari hosil bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Araxnodaktiliya yoki Marfan sindromi. turli xil skelet, ko'z va vistseral anomaliyalarni birgalikda yuzaga kelishi bilan bir qatorda barmoqlarning ingichka, uzun - o'rgimchak oyoqlari kabi bo'lishi bilan xarakterlanadi. Autosoma - dominant tipda irsiylanadi. Penentrantligi 30 % ga teng. Uchrash chastotasi 4:1000000.

Afibrinogenemiya - qon plazmasi tarkibida uning asosiy oqsillaridan biri fibrinogenning to'liq bo'lmasligi. Ushbu kasallik ovqat hazm qilish,

siydiq tanosil yo'llarida va boshqa ayrim a'zolarda qon oqishi ko'zatiishi bilan xarakterlanadi. Kasalliknning klinik belgilari: asosan har xil jarahatlardan, operasiyalardan keyin, qon oqishi kuchayadi. Ko'p qon yo'qotish, ko'pincha o'lim bilan tugaydi. Autosoma retsessiv belgi sifatida irsiylanadi.

Axondroplaziya yoki homila xondrodistrofiysi - embrional rivojlanish davrining ilk bosqichlaridayoq rivojlana boshlaydi. Tanasining shakli normal bo'lgani bilan, qo'l-oyoqlari proporsional bo'limgan holda kalta bo'lishi bilan xarakterlanadi. Bunday kasallikka duchor bo'lgan bolalarning ko'pchiligi, embrional davridayoq nobud bo'ladilar. Tug'ilganlari esa yashab qoladi. Autosoma dominant belgi sifatida irsiylanadi.

Vander Xeve sindromi. Autosoma - dominant tipda irsiyanadigan pleyotrop gen bo'lib, uch xil muhim belgilarni o'z ichiga oladi: suyaklarning mo'rtligini, ko'zning oqsil pardasi (sklera)ni ko'k rangli bo'lishini va garanglikni. Ushbu gen bilan belgilanadigan belgilarning har biri, o'z penentrantligiga ega. Uchchala anomaliyalarni bir vaqtida uchrashi 7 % dan 44 % gacha bo'lishi mumkin. Har bir belgining penentrantligi ham o'zgaruvchandir. Garangligi 26-60 %, suyaklar mo'rtligi 29 % dan 63 % gacha, sklerani ko'k bo'lishi 100 % gacha. Autosoma retsessiv tipda irsiylanadi. Kasallik asosoan 10-15 yoshlarda boshlanadi.

Vilson kasalligi yoki Gepato - serebral distrofiya. Jigarda, miyada, buyrakda, ko'zning shoh pardasida va boshqa qator a'zolarda ortiqcha miqdorda to'planishi mumkin bo'lgan mis elementini tashib yuradigan seruloplazmin oqsili sintezining buzilishi bilan bog'liq bo'lgan kasallik. Bu kasallikda jigar tsirrozi, miya to'qimalarida degenerativ o'zgarishlar ko'zatiladi, glyukozani, aminokislotalarni, siydiq kislota va fosfatni, bo'yrik kanalchalariga o'tqazib berilish jarayoni bo'zildi.

Galaktozemiya. Uglevodlar almashinuvining buzilishi bilan kelib chiqadigan kasallik. Kasallik 1:70000 nisbatda uchraydi. Ushbu kasallikda organizm galaktozani o'zlashtira olmaydi, shuning uchun u qonda va to'qimalarda to'planib, organizmga salbiy ta'sir ko'rsata boshlaydi. Jigarda o'zgarish ro'y beradi, bo'yrik ishi buziladi, oqsillar siydkorra o'ta boshlaydi. Natijada siydiq tarkibida oqsil va aminokislotalar ko'payadi. Kasallik belgilari: qayt qilish, sarg'ayib ketish, ozish, ich ketishi, aqliy zaiflik, organizmda suv miqdorini kamayishi. Hozirgi zamон tibbiyoti erishgan yutuqlar tufayli, bu kasallikning oldini olishga erishilmoxda. Kasallik vaqtida aniqlanib, parhez qilinsa, davolash mumkin bo'ladi.

Gemofiliya - qon ivimasligi. Plazmatik tromboplastinni hosil bo'lishida ishtirot etuvchi, qon ivishini turli omillarining bo'lmagligi bilan bog'liq.

Gemofiliyani hozirgi vaqtida 4 xili aniqlangan. Jinsiy X - xromosoma bilan birikkan holda irsiylanadigan retsessiv belgi. Gemofiliyani ayrim turlari esa autosoma - dominant va autosoma retsessiv holda nasldan naslga o'tadi.

Gipertrixoz - qulq suprasining chekka qismlarida tuklar o'sib chiqishi bilan xarakterlanadi. Jinsiy Y - xromosoma orqali nasldan naslga o'tadi. Faqat erkaklarda ko'zatilib, 17 yoshdan keyin yuzaga keladi.

Daltonizm(Axromapatiya) - rang ajrata olmaslik. Qizil rangni ajrata olmaslik - *protanopiya*. Yashil rangni ajrata olmaslik - *deutanopiya*. Ko'k rangni ajrata olmaslik - *tritanopiya*. Retsessiv belgi bo'lib, jinsiy X-xromosoma orqali irsiylanadi. Autosoma retsessiv holda nasldan naslga o'tuvchi turi ham mavjud.

Katarakta. Ko'z gavharining xiralashishi bo'lib, bir qancha shakkllari mavjud. To'g'ma kataraktaning autosoma - dominant hamda autosoma - retsessiv holda irsiylanadigan xillari mavjud. To'g'ma kataraktaning fenokopiyalari ham uchraydi.

Leykodistrofiya. Autosoma - retsessiv holda irsiylanadigan kasallik, Bu kasallik lipidlar almashinuvining buzilishi bilan yuzaga keladi. Mielinning parchalanishi natijsida nerv hujayralarida lipidlar to'planadi va shu hujayralarni zaharlaydi.

Kasallarda aqliy zaiflik, ko'rish nervining ta'sirchanligini yoqolishi, eshitish xususiyatining pasayishi, harakatsizlik va hakoza zaharlaydi.

Marfan sindromi (Araxnodaktilyaga qarang)

Miopiya - yaqindan ko'rish. Odam ko'z soqqasining cho'ziqroq shaklda bo'lishi hamda ko'z gavharining dungligi ortib ketishi oqibatida yuzaga keladi. Miopiya tug'ma va hayotda ortirilgan hollatlarda ham kuzatiladi. Yaqindan ko'rishni bir qancha turlari bo'lib, turlicha irsiylanadi. Ko'pincha yaqindan ko'rishni -2,0 dan -4,0 gacha bo'lgan o'rtamiyona, hamda -5,0 dan yuqori bo'lgan turlari bo'lib, ularning ikkalasi ham autosoma - dominant tipda irsiylanadi. Ushbu belilarni yuzaga chiqaruvchi genlar har xil just xromosomalarda joylashgan bo'lib. Bir - biri bilan biikmagan holda nasldan naslga o'tadi. Agarda yaqindan ko'rishni shu ikki xili bir odamda uchrasa, yaqindan ko'rishni yuqori bo'lgan turi, o'rtamiyona turiga nisbatan epistatik ta'sir ko'rsatadi.

Otoskleroz - o'rta quloqda joylashgan eshitish suyakchalar bilan bog'liq bo'lgan kasallik. Belgining ekspressivligi(eshitish o'tkirligi pasayish darajasi)zararlangan qismni katta kichikligiga bog'liq. Autosoma dominant tipda irsiylanib, 30 % penentrantlikka ega.

Podagra - siyidik kislotasi almashinuvining buzilishi bilan bog'liq bo'lib, almashinuv jarayoni buzilishi natijasida, organizmda uni konsentrasiyasini oshib ketadi. Turli to'qimalarda urat qoldiqlari to'planadi, buyrakda toshlar hosil bo'lishi bilan xarakterlanadi. Autosoma dominant tipda irlsiyanadi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda genning penentrantligi erkaklarda 20 %, ayollarda "O" ga teng. Podagra - bo'g'imlar kasalligi bo'lib, siyidik kislotaning tuzlari(uratlar) to'planib qolishi bilan bog'liq. Odamlarning har 1000 tasidan 3 tasida podagra kasalligi ko'zatiladi. Kasallik asosan erkaklarda 40 yoshdan keyin, ayollarda menopauzidan keyin yuzaga keladi. Podagrani birlamchi(irlsiy bo'lgan) va ikkilamchi(bayot davomida ortirilgan) turlari farqlanadi. Birlamchi irlsiy bo'lgan podagra irlsiyat bilan bog'liq bo'lib, ma'lum bir fermentativ sistemani buzilishi natijasida, organizmda siyidik kislotasi mahsulotlarining ko'payishi (metabolit shakli) yoki siyidik bilan ajralishning buzilishi (bo'rakli shakli) yoki ikkala shakli (aralash shakli) odamlarda uchraydi. Ikkilamchi podagra bayot davomida ortirilgan turi bo'lib, turli sabablar tufayli hamda har xil kasalliklardan keyin yuzaga keladi.

Polidaktilya. Oltibarmoqlik. Qo'shimcha barmoqlarning hosil bo'lisi. Belgining yuzaga kelish darajasi har xil bo'ladi. Qo'l- oyoqlarning hammasida 6 ta barmoq bo'lishidan boshlab, faqat ayrimlaridagina ortiqcha baromoq bo'lisi bilan xarakterlanadi. Ayrim hollarda 7 ta barmoq bo'lisi ham kuzatiladi. Autosoma - dominant holatda irlsiyanadi

Retinoblastoma. Kuzning onkologik kasalligi bo'lib, to'r pardanining asab qismilari bilan Bog'liq. Kasallik 3 yoshdan boshlanadi. Avval kasallik belgilari yuzaga kelmay, sekun asta yuzaga kela boshlaydi va odamning umuman ko'ra olmasligiga olib keladi. Vaqtida davolanilmasa o'limga sababchi bo'ladi. Autosoma - dominant tipda irlsiyanib, 60 % ga yaqin penentrantlikka ega. Ikkala ko'zning zararlanish ehtimoli 50 % ga teng.

Sindaktilya. Panjalarni tutashib ketishi. Dominant holatda irlsiyanadi.

Talassemiya yoki Kulji anemiyasi - gemoglobinning normal sintezlanishiining bo'zilishi bilan xarakterlanadi. Eritrositlarning morfoloyigasi o'zgarishidan tashqari har xil darajada bo'lgan o'zgarishlar, ayniqsa skelet sistemasi bilan hamda sariq kasallikning har xil darajasi ko'zatiladi. Gomozigota organizmlar 90 - 95 % hollarda nobud bo'ladi. Geterozigota organizmlarda nisbatan engil o'tadi. To'liq bo'limgan autosoma - dominant tipda irlsiyanadi.

O'roqsimon hujayrali anemiyasi(Serpovidnokletochnaya anemiyasi). Polipeptid zanjirida ro'y beradigan mutasiya natijasida yuzaga keladi. Normal gemoglobin(NBA) beta B - subbirliklarida 6 o'rindagi aminokislota

glutamat kislota o'rniga valin joylashishi tufayli kelib chiqadigan NBS gemoglobin sintez qilinishi tufayli yuzaga keladi. O'roqsimon anemiya to'liq bo'lmanan autosoma dominant belgi sisatida irsiylanadi. Ushbu belgi bo'yicha gomozigota organizmlar, to'liq jinsiy bolog'at yoshiga etgunlaricha nobud bo'ladilar. Geterozigotali organizmlar hayotchan bo'lib, ularning organizmiga tushgan bezgak qo'zg'ovchilari S - gemoglobinni o'zlashtira olmaydi. Shuning uchun eritrositni ushbu shakliga ega bo'lgan odamlar malyariya - ya'ni bezgak kasalligi bilan kasallanmaydilar.

Fankoni sindromi. Hozirgi vaqtida ushbu sindromni 7 ta xili farqlanadi. Masalada berilgan turi Fankoni - Albertini - Selveger(oilaviy sistinli diabet, aminokislotali diabet, sistinoz) sindromi deb nomlanib, autosoma retsessiv tipda irsiylanadi. Monoaminokarbon kislotalar guruhiba kiruvchi tsistin aminokislotsasi almashinuvining buzilishi bilan bog'liq bo'lib, uni kristallari to'qimalarda to'plana boradi. Buyrakning egri bugri kalavasimon kanalchalarining faoliyatini buzilib, ularda degenerasiya beradi. Suyaklarda raxit kasalligiga o'xshash o'zgarishlar sodir bo'ladilar. Yurak va buyraklar faoliyatining buzilishi o'llinga olib keladi.

Fenilketonuriya. Autosoma - retsessiv holatda irsiyanib, o'g'il bolalarda ham, qiz bolalarda ham bir xil rivojlanadi. Fenilalanin aminokislotsasini tirozinga aylantirib beradigan fenilalanin gidroksidaza fermentining hosil bo'lishini ta'minlovchi gen mutatsiyaga uchrashi natijasida, yuzaga keladi. Qonda fenilalanin aminokislotsasining miqdori ko'payib, tirozinga aylanmasdan qonda to'planib, siyidik bilan ajralib chiqadigan pirovinograd kislotsasini hosil qiladi. Bu kislota nerv hujayralarini zaharlaydi va aqliy zaiflikka olib keladi. Kasallikni davolashda parhez katta rol o'ynaydi. Ovqat ratsionidan fenilalanin aminokislotsasini o'zida ushlaydigan maxsulotlarni chiqarb tashlash kerak.

Fruktozuriya - lipidlar almashinuvini buzilishi bilan bog'liq bo'lgan kasallik. Kasallikning ikkita xili farqlanadi. Birinchi xili jigar fermenti fruktokinazani yetarli miqdorda bo'lmanligi bilan bog'liq bo'lib, siyidik orqali ko'p miqdorda fruktoza ajralishi bilan va kasallik belgilari unchalik namoyon bo'imasligi bilan xarakterlanadi. Autosoma retsessiv tipda irsiylanadi, uchrash chastotasi 7: 1 000 000 ga teng. Ikkinci xili jigar, buyrak va ichaklar shilliq qavatining qator fermentlarining yetishmasligi natijasida yuzaga keladi. Fruktoza va uning almashinuv mahsulotlari qonda va to'qimalarda ko'p miqdorda to'plana boshlaydi va organizmnning aqliy, jismoniy rivojlanishiga tusqinlik qila boshlaydi. Fruktozuriyani ushbu ikkinchi xili nasldan naslga o'tib, birinchi xili bilan birikmagan holda irsiylanadi. Kasallikni erta aniqlab, parhezga e'tibor berilib, davolash ishi

olib borilsa, kasalning og'ir shaklini oldini olish mumkin bo'ladi.

Elliptositoz. Eritrositlar shaklini o'zgarishi bilan xarakterlanadi. Eritrositlar ovolsimon shaklga ega bo'ladi. Gomozigota holatda, og'ir gemolitik anemiya rivojlanadi. Autosoma dominant tipda nasldan naslga o'tadi.

Yuz-kalla dizostozi - asosan bosh suyaklari anomaliyasi bo'lib hisoblanadi. Bosh suyak bo'laklarini suyak choklari yordamida bir - biri bilan birikishi erta sodir bo'ladi. Katta liqildoq uzoq vaqt davomida bitmaydi(ya'ni suyakka aylanmaydi). Autosoma - dominant belgi bo'lib, penentrantligi - 50 % ga teng.

Sistinuriya - chala dominantlik asosida yuzaga keladi. Retsessiv gen bo'yicha gomozigotali(aa) odamning buyragida tosh hosil bo'lishi mumkin, geterozigotali(Aa) organizmda tosh hosil bo'lmaydi, lekin siydiginining tarkibida tsistinning miqdori oshib ketadi. Dominant gen bo'yicha gomozigotali(AA) organizmda tosh hosil bo'lmaydi.

AYRIM MASALALARINI ECHISHI USULLARI

7. Polipeptid quyidagi aminokislatalardan tashkil topgan: valin - alanin - glisin - lizin - triptofan - valin - serin - glutamat kislotasi. Ko'rsatilgan polipeptidni kodlaydigan DNK uchastkasini aniqlang. Masalani sharti bo'yicha berilgan polipeptidni kodlaydigan DNK molekulasidagi uchastkani aniqlash kerak. Avvalom bor berilgan polipeptidni aminokislatalarga to'g'ri keladigan tripletlar, genetic kod ko'rsatilgan jadvaldan foydalanib, aniqlanadi. Aminokislatalarning ko'pchiligini bir qancha kodon bilan kodlana olishini hisobga olgan holda, hohlagan bittadan kadon olinadi.

Polipeptid zanjiri:	valin-alanine-glisin-lizin-triptofan-valine-serin-glutamat kislotasi.
i-RNK molekulasi:	GUU - GCU - GGU - AAA - UGG - GUG - AGU - CAA

i-RNK molekulasidagi tripletlar asosida DNK molekulasini bitta zanjiri, so'ng uning asosida ikkinchi zanjiri aniqlanadi.

i-RNK:	GUU - GCU - GGU - AAA - UGG - GUG - AGU - CAA
DNK molekulasi:	CAA - CGA - CCA - TTT - ACC - CAC - TCA - GTT GTT - GCT - GGT - AAA - TGG - GTG - AGT - CAA

49. Masalani berilgan sharti:

Belgi(Fenotipi)	Gen	Genotipi
Sog'lom organism	A	AA, Aa
Afibrinogenemiya	a	aa

♀/♂	A	A
A	AA	Aa
a	Aa	aa

Afibrinogenemiya retsessiv belgi bo'lib, autosoma orqali irlsiylanadi. Masalani sharti bo'yicha 2 ta sog'lom, er va xotin nikohidan kasal bola tug'ilgan. Demak er-xotin ushbu belgi bo'yicha geterozigotali bo'lishgan. Shuning uchun ularning oilasida kasal bola tug'ilgan. Aslida bu oilada 75 % sog'lom, 25 % kasal bola toug'ilish chtimoli bor..

71. Masalaning berilgan sharti:

Talassemiya bo'yicha gomozigotali(AA) organizmlar nobud bo'ladi. Geterozigotali(Aa) organizmlar esa yashab qoladi. Sog'lom organizmlar esa(aa), retsessiv genlarga ega. Masalaning 1-shartida: Talassemiyani yengil shakli bilan kasallangan odam bilan, sog'lom odam nikohidan qanday farzandlar tug'ilishi mumkinligi so'ralgan. Demak ota - onaning genotipi R Aa x ♀/♂ bo'lgu.

Ushbu nikohidan 50 % sog'lom va 50 % Talassemiyaning yengil shakli bilan kasallangan bolalar tug'ilishi mumkin.

Masalani 2- shartida Talassemiyaning yengil shakli bilan, er - xotinning ikkalasi kasallangan bo'lGANI uchun, ularning genotipi Aa x Aa bo'ladi.

Ularning nikohidan 25 % Talassemiyaning og'ir formasi bilan(ular nobud bo'ladi), 50 % Talassemiyaning yengil shakli bilan, 25 % sog'lom bo'lGAN bolalar tug'ilishi mumkin.

Belgi(Fenotipi)	Gen	Genotipi
Talassemiya og'ir Shakli	A	AA
Talassemiya yengil shakli	Aa	Aa
Sog'lom organism	a	aa

♀/♂	a	a
A	Aa	Aa
a	aa	aa

♀/♂	A	a
A	AA	Aa
a	Aa	aa

98. Qon guruhlari quyidagi genotiplar bilan belgilanadi:

Ayo I I - qon guruniga, er - IV ga ega bo'lgan oilada III - qon gruppasi bilan daltonik o'g'il bola tug'ilgan. Ota-onal ranglarni yaxshi ajrata oladi. Kelajakda shu boladan sog'lom farzand ko'rishi ehtimolini va ularning qon gruppalari qanday bo'lishini aniqlash kerak bo'ladi. Rang ajrata olmaslik esa jinsiy X-xromosoma orqali irlasylanadi. Shu ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda masala echiladi.

III-qon guruhiga ega daltonik o'g'il bola $P \text{♀ } J^0 J^0 X^D X^d \times \text{♂ } J^A J^B X^D Y$ genotipga ega bo'lgan ota-onadan tug'ilgan, bolaning genotipi $\text{♂ } J^0 J^B X^d Y$

106. Masalaning berilgan sharti.

B e l g i	Gen	Genotip
I - guruh(O)	J^0	$J^0 J^0$
II - guruh (A)	J^A	$J^0 J^A, J^A J^A$
III - guruh (B)	J^B	$J^0 J^B, J^B J^B$
IV - guruh (AB)	$J^A J^B$	$J^A J^B$

genotipga egalar: $P \text{♀ } J^0 J^A X^H X^h$

B e l g i	Gen	Genotip
I - guruh(O)	J^0	$J^0 J^0$
II - guruh (A)	J^A	$J^0 J^A, J^A J^A$
III - guruh (B)	J^B	$J^0 J^B, J^B J^B$
IV - guruh (AB)	$J^A J^B$	$J^A J^B$

B e l g i	Gen	Genotip
Daltonizm	X^d	$X^d X^d$ $X^d Y$
Rangi normal ajratishi	X^D	$X^D X^D$ $X^D X^d$

II - va III - qon guruhiga ega bo'lgan, qoni normal iviydigan er - xotin nikohidan I - qon guruhiga ega gemofilik bola tug'ildi. Ushbu oilada yana qanday fenotipga va genotipga ega bo'lgan farzandlar tug'ilishi mumkinligini aniqlang.

Demak: II - va III - qon guruhiga ega bo'lgan, sog'lom, odamlardan I - qon guruhiga ega gemofilik bola tug'ilgan ekan: $\text{♂ } J^0 J^0 X^h Y$ ota - ona quyidagi $\times \text{♂ } J^0 J^B X^H Y$

Chatishirish natijasi quyidagicha bo'ladi :

$\text{♀ } J^0 J^0$	$J^0 X^H$	$J^0 X^h$	$J^A X^H$	$J^A X^h$
$J^0 X^H$	$J^0 J^0 X^H X^H$	$J^0 J^0 X^H X^h$	$J^0 J^A X^H X^H$	$J^0 J^A X^H X^h$
$J^0 Y$	$J^0 J^0 X^H Y$	$J^0 J^0 X^h Y$	$J^0 J^A X^H Y$	$J^0 J^A X^h Y$
$J^B X^H$	$J^0 J^B X^H X^H$	$J^0 J^B X^H X^h$	$J^A J^B X^H X^H$	$J^A J^B X^H X^h$
$J^B Y$	$J^0 J^B X^H Y$	$J^0 J^B X^h Y$	$J^A J^B X^H Y$	$J^A J^B X^h Y$

127. Masalaning berilgan sharti:

Belgi(Fenotipi)	Gcn	Genotipi
Qora rangli jun	A	AA, Aa
Jigar rang jun	a	aa
Kalta jun	B	BB, Bb
Uzun jun	b	bb

Masalaning 1-shartida ikkala just belgisi bo'yicha geterozigotali bo'lgan itlarning chatishtirish natijasida necha % qora rangli uzun junli kuchukchalar olish mumkinligi so'ralsin. Demak chatishtirish uchun olingan itlarning genotipi P ♀ AaBb x ♂ AaBb

Chatishtirish natijasi quyidagicha bo'ladi:

♀/♂	AB	Ab	aB	ab
AB	AABB	AABb	AaBB	AaBb
Ab	AAAb	AAAb	AaBb	Aabb
aB	AaBB	AaBb	aaBB	aaBb
ab	AaBb	Aabb	aaBb	aabB

Organizmlarning F_1 duragayida genotipik va fenotipik ajralish tahlili

Fenotipi bo'yicha to'rt xil organizm farqlanadi	Berilgan organizmlarni bo'lishi ehtiomi bo'lgan genotiplari
Qora rangli, uzun junli	AAAB, AABb, AaBB, AaBb
Qora rangli, kalta junli	AAAb, Aabb
Jigar rang, uzun janli	aaBB, aaBb
Jigar rang, kalta junli	aabb

№	Genotipik guruhlar		Fenotipik guruhlar	Fenotip
	Genotip	Takrorlanishi		
1.	AAAB	1		
2.	AABb	2		
3.	AaBB	2		
4.	AaBb	4		
5.	AAAb	1		
6.	Aabb	2		
7.	aaBB	1		
8.	aaBb	2		
9.	aabb	1		
			Qora rangli, uzun junli	Qora rangli, kalta junli
			Jigar rang, uzun janli	Jigar rang, kalta junli

Demak: olingan 16 ta organizmdan 9 tasi qora rangli uzun junli bo'lib chiqdi.

16 - 100

9 - X

$$X = \frac{9 \times 100}{16} = 56,25\%$$

Demak: qora rangli uzun junli organizmlar 56,25 % ni tashkil qiladi.

Masalaning 2-shartida ovchi rangi qora, shakli kalta junli, bo'lgan it sotib olib, uni genotipini tekshirib ko'rmoqchi. Demak ovchi sotib olgan it 4 xil genotipga ega bo'lishi mumkin: AABB, AABb, AaBB, AaBb Ushbu itning genotipini tekshirib kurish uchun, bekkros chatishirish o'tqazish kerak. Buning uchun, ikki just belgi bo'yicha retsessiv gomozigotali (aabb) organizm bilan, tahvilijan chatishirish o'tqazish kerak. Chatishirish natijasida olingan organizmlar fenotipiga qarab, xulosa chiqarsa bo'ladi.

174. Masalaning berilgan sharti:

B y e l g i	Gen	Genotip
Rezus musbat	R	RR, Rr
Rezus manfiy	R	Rr
Elliptositoz	Э	ЭЭ, Ээ
Normal eritrotsitlar	э	ЭЭ
Qoni normal ivishi	X ^H	X ^H X ^H X ^H X ^h
Gemofilik qon ivimasligi	X ^h	X ^h X ^h X ^h Y
Rangni normal ajratishi	X ^D	X ^D X ^D X ^D X ^d
Daltonizm	X ^d	X ^d X ^d X ^d Y

Masalada berilgan ma'lumotlarga asoslanib, ota-onasi va ushbu oilada tug'ilgan qiz quyidagi genotipga ega ekanligi ma'lum bo'ladi. P ♀ X^{Hd}X^{Hd}RR ЭЭ x ♂ X^{hD}Yи ЭЭ ♀ X^{Hd}X^{hD} Rr ЭЭ
Demak: ushbu genotipga ega bo'lgan qiz: ♀ X^{Hd}X^{hD} Rr ЭЭ ♂ X^{hD}Y RR ЭЭ – genotipli erkakka turmushga chiqqan. Endi masalada berilgan genlar orasidagi masofani hisobga olgan holda gametalarni va ularning foizini aniqlaymiz: qizning organizmidagi jinsiy xromosomalarda joylashgan genlari gametalarga quyidagi tartibda tarqaladi:

X^{Hd} 45,1 %, X^{hd} 45,1 %, X^{HD} 4,9 %, X^{hd} 4,9 %

Autosomada joylashgan genlari gametalarga quyida tartibda tarqaladi:
 r Θ 48,5 %, R Θ 48,5 %, r Θ 1,5 %, R Θ 1,5 %

Xromosomalarning ikkinchchi jufti	Xromosomalarning birinchchi jufti			
	X^{Hd} 45,1 %	X^{hd} 45,1 %	X^{HD} 4,9 %	X^{hd} 4,9 %
r Θ 48,5 %,				
R Θ 48,5 %,				
r Θ 1,5 %				
R Θ 1,5 %				

Gorizontal va vertical yo'nalishdagi gametalarni bir biriga ko'paytiriladi va 100 ga bo'linib, hosil bo'lgan gametalarning foizi yoziladi.

Xromosomalarning ikkinchchi jufti	Xromosomalarning birinchchi jufti			
	X^{Hd} 45,1 %	X^{hd} 45,1 %	X^{HD} 4,9 %	X^{hd} 4,9 %
r Θ 48,5 %,	X^{Hd} r Θ 21,87 %	X^{hd} r Θ 21,87 %	X^{HD} r Θ 0,68 %	X^{hd} r Θ 0,68 %
R Θ 48,5 %,	X^{Hd} R Θ 21,87 %	X^{hd} R Θ 21,87 %	X^{HD} R Θ 0,68 %	X^{hd} R Θ 0,68 %
r Θ 1,5 %	X^{Hd} r Θ 2,38 %	X^{hd} r Θ 2,38 %	X^{HD} r Θ 0,07 %	X^{hd} r Θ 0,07 %
R Θ 1,5 %	X^{Hd} R Θ 2,38 %	X^{hd} R Θ 2,38 %	X^{HD} R Θ 0,07 %	X^{hd} R Θ 0,07 %

Erkakning organizmida esa bor yo'g'i 2 xil gameta hosil bo'ladi
 ♂ X^{hd} R Θ , ♂ Y R Θ Gametalardagi genlar to'plami o'xshash bo'lib, faqat jins bo'yicha farq qilgani uchun, chatishitirish natijasida hosil bo'lgan organizmlarning, yarmi urg'ochi, yarmi erkak organizm bo'lib chiqadi.

♂ X^{Hd} X^{hd} Rr $\Theta\Theta$, ♂ X^{Hd} Y Rr $\Theta\Theta$ - Qoni normal iviydi, daltonik, rezus musbat, ellipitositoz bilan kasallangan. - 21,87 %

♀ $X^{hD}X^{hd}$ Rr $\Theta\Theta$, ♀ $X^{hD}Y$ Rr $\Theta\Theta$ - Gemofilik, rangni yaxshi ajratadi, rezus musbat, ellipitositoz bilan kasallangan. - 21,87 %

♀ X^{Hd} X^{hd} RR $\Theta\Theta$, ♀ $X^{Hd}Y$ RR $\Theta\Theta$ - Qoni normal iviydi, daltonik, rezus musbat, eritrositlari normal. - 21,87 %

♀ X^{Hd} X^{hd} RR $\Theta\Theta$, ♀ $X^{Hd}Y$ RR $\Theta\Theta$ - Gemofilik, rangni yaxshi ajratadi, rezus musbat, eritrositlari normal. - 21,87 %

♀ X^{Hd} X^{hd} Rr $\Theta\Theta$, ♀ $X^{Hd}Y$ Rr $\Theta\Theta$ - Qoni normal iviydi, daltonik, rezus musbat, eritrositlari normal. - 2,38 %

♀ X^{Hd} X^{hd} RR $\Theta\Theta$, ♀ $X^{Hd}Y$ RR $\Theta\Theta$ - Gemofilik, rangni yaxshi ajratadi, rezus musbat, ellipitositoz bilan kasallangan. - 2,38 %

♀ X^{Hd} X^{hd} RR $\Theta\Theta$, ♀ $X^{Hd}Y$ RR $\Theta\Theta$ - Gemofilik, rangni yaxshi ajratadi,

rezus musbat, elliptositoz bilan kasallangan. - 2,38 %

$\text{♀ X}^{\text{HD}} \text{X}^{\text{hd}} \text{RrEe}$ ♂ $\text{X}^{\text{HDY}} \text{RrEe}$ - Qoni normal iviydi, rangni yaxshi ajratadi, rezus musbat, elliptositoz bilan kasallangan - 0,68 %

$\text{♀ X}^{\text{hd}} \text{X}^{\text{hd}} \text{RrEe}$ ♂ $\text{X}^{\text{hdY}} \text{YrEe}$ - Gemofilik, daltonik, rezus musbat, elliptositoz bilan kasallangan. - 0,68 %

$\text{♀ X}^{\text{HD}} \text{X}^{\text{hd}} \text{RRee}$ ♂ $\text{X}^{\text{HDY}} \text{RRee}$ - Qoni normal iviydi, rangni yaxshi ajratadi, rezus musbat, eritrositlari normal. - 0,68 %

$\text{♀ X}^{\text{hd}} \text{X}^{\text{hd}} \text{RRee}$ ♂ $\text{X}^{\text{hdY}} \text{RRee}$ - Gemofilik, daltonik, rezus musbat, eritrositlari normal. - 0,68 %

$\text{♀ X}^{\text{HD}} \text{X}^{\text{hd}} \text{Rree}$ ♂ $\text{X}^{\text{HDY}} \text{Rree}$ - Qoni normal iviydi, rangni yaxshi ajratadi, rezus musbat, eritrositlari normal. - 0,07 %

$\text{♀ X}^{\text{hd}} \text{X}^{\text{hd}} \text{Rree}$ ♂ $\text{X}^{\text{hdY}} \text{Rree}$ - Gemofilik, daltonik, rezus musbat, eritrositlari normal - 0,07 %

$\text{♀ X}^{\text{HD}} \text{X}^{\text{hd}} \text{RRee}$ ♂ $\text{X}^{\text{HDY}} \text{RRee}$ - Qoni normal iviydi, rangni yaxshi ajratadi, Rezus musbat, elliptositoz bilan kasallangan. - 0,07 %

$\text{♀ X}^{\text{hd}} \text{X}^{\text{hd}} \text{RRee}$ ♂ $\text{X}^{\text{hdY}} \text{RRee}$ - Gemofilik, daltonik, rezus musbat, elliptositoz bilan kasallangan. - 0,07 %

174-masalani 2-chisi ham xuddi shunday tartibda yechiladi.

200. Masalaning berilgan sharti:

Belgi(Fenotipi)	Gen	Genotipi
Yashil rang	AB	AABB, AAB _a , AaBB, AaB _a
Sariq rang	aB	aaBB, aaB _a
Ko'k(havo) rang	AB	AaB _a , AaBB
Oq rang	aB	Aabb

Masalaning I-shartida yashil patli tutiqushlar o'zaro chatishtirilishi natijasida, 64 ta yashil, 21 ta sariq, 22 ta ko'k, 7 ta oq rangli to'ti-qushlar olingan. Ota - ona va olingan avlod genotipini aniqlash kerak.

Masalada berilgan raqamlarning 7ga qisqartirsak 9 : 3 : 3 : 1 nisbat chiqadi. Gemak chatishtirish uchun olingan ota - ona genotipi:

P $\text{♀ AaBb} \times \text{♂ AaBb}$ bo'lган

Chatishtirish natijasi quyidagicha bo'ladi:

♀/♂	AB	AB	aB	aB
AB	AABB	AAB _b	AaBB	AaB _b
aB	AAB _b	AAB _b	AaB _b	Aab _b
aB	AaB _b	AaB _b	aaBB	aaB _b
aB	AaB _b	Aab _b	aaB _b	Aabb


Organizmlarning F_2 duragayida genotipik va fenotipik ajralish tahlili


Genotipik guruhlar		Fenotipik guruhlar	
No	Genotip	Takrorlanishi	Fenotip
1.	AABB	1	
2.	AAB \bar{B}	2	
3.	AaBB	2	Yashil patli to'tiqushlar
4.	AaB \bar{B}	4	
5.	A \bar{A} B \bar{B}	1	
6.	A \bar{A} B \bar{B}	2	Sariq patli to'tiqushlar
7.	aaBB	1	Ko'k (havo) patli to'tiqushlar
8.	aaB \bar{B}	2	
9.	aabb	1	Oq patli to'tiqushlar

Masalaning 2-shartida berilgan ma'lumotlар asosida shunday xulosaga kelsak bo'ladi.

Oq patli to'tiqushlar (**aabb**) olib bo'lmanining sababi, ushbu vaqtda fermada quyidagi genotiplarga ega bo'lgan to'tiqushlar bo'lman: Yashil ranglillardan - **AaB \bar{B}** ; sariq ranglillardan - **A \bar{A} B \bar{B}** ; ko'k(havo) ranglillardan - **aaB \bar{B}** . Ushbu berilgan genotipli organizmlar oq rangli to'tiqushlarni berishi mumkin edi.

206. A.S. Pushkinning oilasini shajarasini tuzishda, shu narsaga e'tibor qaratish kerakki, Pushkinning otasi va onasi har xil avlodga tegishli bo'lgan shaxslardir. Bulardan tashqari Pushkinning otasi va onasi bir-biriga qarindosh bo'lib, Pushkinning otasi Sergey Lvovich o'z jiyani bo'lgan Nadejda degan qizga o'ylangan.





223. Masalani yechishda Xardi-Vaynberg formulasidan foydalaniadi:

$$P^2 + 2Pq + q^2 = 1,0$$

Ovlangan tulkilarning 9991 tasi malla(sariq) rangli, 9 tasi oq rangli bo'lgan. Ovlangan tulkilarning umumiy soni 10 000 tani 1,0 ga teng qilib olsak, 9991 tani 0,9991 ga, 9 tani 0,0009 ga teng qilib olishimiz mumkin. Endi berilgan formuladan foydalangan holda kerakli bo'lgan sonlarni aniqlasak bo'ladi. Retsessiv organizmlarning soni ma'lum(q^2).

$$q = 0,0009 = 0,03.$$

Formuladan: $P + q = 1,0$ ga teng ekanligini hisobga olsak.

$P = 1,0 - q$ ni miqdori $P = 1,0 - 0,03 = 0,97$ ga teng bo'ladi.

Shunday qilib: kerakli bo'lgan $P(0,97)$ ni miqdori ham, $q(0,03)$ ni miqdori ham topildi.

Endi topilgan sonlarni formulaga qo'yib chiqamiz:

$$P^2 + 2Pq + q^2 = (0,97)^2 + 2 \times (0,97 \times 0,03) + (0,03)^2 = 0,9409 + 0,0582 + 582(0,0582) \text{ tasi}(2Rq) - \text{malla rang geterozigotali (aa)} \\ 9(0,0009) \text{ tasi}(q) - \text{oq rangli (aa) tulkilar ekan.}$$

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G.M. Murtazin Zadachi I uprajneniya po obshey biologii. - M: Prosveshenie 1972 g.
2. N.B. Bochkova Medisinskaya genetika - M.: Masterstvo, 2002 g.
3. N.V.Xelevin, A.M.Lobanov., O.F.Kolesova Zadachnik po obshey I medisinskoy genetike Uchebnoe posobie dlya vuzov Izdatelstvo "Vishshaya shkola" 1984 g
4. A.S.Almatov, Sh.Turabekov, G'.J.Jalolov Genetikadan masalalar to'plami va ularni yechish metodikasi. T.:Universitet,1993 y.
5. A.T.G'ofurov, S.S.Fayzullaev, V.Matchanov, I,Azimov Genetik bilimlarni puxta o'zlashtirish va masalalar yechish metodikasi. T.,2000 yil
6. Bochkov N.I., Zaxarov A.F., Ivanov V.I. Medisinskaya genetika. M.: Medisina, 1984 7. Kaminskaya E.A. Sbornik zadach po genetike. Mn.: Visheysaya shkola, 1982
8. V.P. Balashov, T.N. Shevorokova, Zadachnik po medisinskoy genetike, Saransk, Izdatelstvo Mordovskogo universiteta, 1998.
9. 3. Gulyaev G. V. , Zadachnik po genetike. M. , Kolos, 1980

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I Bo'lim.. Molekulyar genetika.....	5
II Bo'lim. Genetika asoslari.....	9
Monoduragay chatishtirish.....	9
Allel genlarning o'zaro ta'siri.....	10
To'liq dominantlik.....	11
O'ta dominantlik.....	16
Chala dominantlik.....	18
Ko'pallellik.....	21
Qon guruqlarini irsiylanishi (Kodominantlik).....	21
Diduragay chatishtirish.....	25
Poliduragay chatishtirish.....	31
Jins bilan bog'langan belgilar (Jins bilan birikkan holda irsiylanish).....	33
Penentrantlik.....	37
Beglarning birikkan holda nasldan - nislga o'tishi.....	38
Genetik harita (karta)	44
Allel bo'limgan genlarning o'zaro ta'siri.....	46
III Bo'lim. Antropogenetika. Geneologik usul (avlodlar shajarasini tuzish).....	53
Populyatsion - statistik usul	
Populyatsiya genetikasi.....	60
Egizaklar usuli.....	64
Modifikatsion o'zgaruvchanlikni statistik qonunlari.....	65
Odamlarda ,ba'zi belgi va kasalliliklarning irsiylanishi.....	67
Masalada berilgan irsiy kasalliklar va ayrim anotomiylar haqida qisqacha ma'lumotlar.....	68
Ayrim masalalarni echish yollari.....	73
Adabiyotlar ro'yhati.....	82

*Sermonos
Nodur
shaxsefedek
jeek*

O'quv - uslubiy nashr

GENETIKADAN MASALALAR

TO'PLMI

O'quv qo'llanma

Muharrir
Prof. P.X. XOLIKOV

Komputerda sahifalovchi
D.Mirsaidov

Bosishga 01.10.2009 y.da ruxsat etildi. Bichimi 60 x 84 1/16.
Bosma tobog'i 5,25. Adadi 500 nusxa.
Bahosi kelishilgan narxda.



Daminov Akmal Oxunjonovich

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi
gistatogiya va tibbiyot biologiyasi
kafedrasidotsenti.

Toshkent viloyati Toshkent
tumanida tug'ilgan. Toshkent Davlat
Tibbiyot Institutini tugatgan.

1994 yilda "Indol ta'sirida jiganing
morfofunktsional holati" mavzusida
nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi.
Dotsent Daminov A.O. kafedrada
ishlash davomida o'zini iqtidorli ilmiy
xodim va mohir pedagog sifatida
ko'rsatdi. U tomonidan 50 dan ortiq
ilmiy maqola, tezis va o'quv-uslubiy
qo'llanmalar chop etildi.

Ish jarayoni davrida u o'zining
izlanuvchanligi, mehnatsevarligi, o'z
ustida doimiy muntaзам ravishda
ishlaydigan, o'ziga va atrofdagilarga
nisbatan o'ta talabchan, bilimli va
yuqori saviyali yetuk mutaxassis va
tashkilotchi ekanligini ko'rsatdi,
muntaзам ravishda kasbiy mahoratini
oshiradi, kafedra va Toshkent Tibbiyot
Akademiyasi jamoatchilik ishlarida faol
qatnashadi.